

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Magistratura bo‘limi
Tilshunoslik kafedrası**

**“TASDIQLAYMAN”
Bo‘lim boshlig‘i
N.I.Asqarov**

“ ” _____ 2015 yil

**“HIMOYAGA QO‘YILDI”
Kafedra mudiri
D.A.Nabieva**

“ ” _____ 2015 yil

**«TILSHUNOSLIKDA EPONIMZATSIYA VA
ANTROPONIMIZATSIYA HODISALARI»**

MAVZUSIDA

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

**Bajardi: Hamidova Shahlo Bahodirovna
“O‘zbek tili va adabiyoti” mutaxassisligi magistranti**

Ilmiy rahbar: fil.fan.nom, dotsent Nurmonova D.A.

ANDIJON – 2015

MUNDARIJA

Kirish	3
---------------------	----------

1. Eponim va antroponimlar lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida.....	8
--	---

1.1. Eponim va antroponimlarning semantik struktur tadqiqi.....	8
---	---

1.2. Eponim va antroponimlarda motivatsiya hodisasi talqini.....	18
---	----

Bob bo'yicha xulosa	
----------------------------------	--

2. Antroponimlarning shakllanish usullari.....	
--	--

2.1. Tub-sodda so'zlardan hosil bo'lgan antroponimlar (bir o'zakli).....	59
--	----

2.2. Yaxlitlangan (so'z yasash qolipidan uzoqlashgan) antroponimlar.....	65
--	----

2.3. Qo'shma antroponimlar.....	67
---------------------------------	----

Bob bo'yicha xulosa.....	
---------------------------------	--

3. Antroponimlarning semantik uslubiy xususiyatlari.....	
--	--

3.1. Antroponimlarning shakllanishida morfemalarning semantik va uslubiy xususiyatlari.....	70
--	----

3.2. Antroponimlarning uslubiy xususiyatlari.....	75
---	----

Bob bo'yicha xulosa.....	
---------------------------------	--

XULOSA.....	
--------------------	--

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	
---	--

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek tili lug‘aviy boyligining tarkibiy qismlaridan birini atoqli otlar tashkil etadi. Shu sababli atoqli otlarning qimmatli materiallarini to‘plash va tadqiq qilishga alohida e‘tibor berib kelinmoqda. O‘zbek onomastikasi hozirda ancha rivoj topgan soha bo‘lib, o‘zbek antroponimlari, toponimlari, gidronimlari, etnonimlari, qisman zoonimlarini monografik tarzda o‘rganish bo‘yicha anchagina ishlar amalga oshirilgan. Chunki kishi ismlari ham xalqimizning qadimiy nomlarining bir turi hisoblanadi. “Qadimiy nomlarda otabobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z askini topgan”¹. Shuning uchun antroponimlar milliy qadriyatlarimiz bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu borada olib borilgan tadqiqotlar bevosita milliy o‘zligimizni anglashga, turli yot g‘oyalar, ommaviy madaniyatning ta’sirlariga berilmaslikka zamin yaratadi.

O‘zbek antroponimlarining lisoniy tadqiqiga oid yirik ishlar E.Begmatov, G‘.Sattorov, S.Rahimovlar², tomonidan amalga oshirilgan. Ma’lumki, atoqli otlar o‘z genezisiga ko‘ra tilning eng qadimiy, yashovchan hamda turg‘un qatlamlaridan biridir. Ismlar o‘tmishda ko‘p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida etib kelgan ulkan madaniy va ma’naviy

¹ Каримов И.А. “Юксак маънавият – енгилмас куч” – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б.92.

² Бегматов Э. “Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. Наук”. – Ташкент, 1965. – 28 б.; Сатторов Г. Ўзбек исмлирининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.

qimmatga molik bo'lgan lug'aviy qatlamdir. Ismlarning yaratilishida o'zbek xalqi o'tmishining tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, rasm-u odatlari, e'tiqod va ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda ismlar tilning boshqa bir qator qatlamlari kabi o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatining tarkibiy qismidir. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz"³. O'zbek antroponimlarining motivativ ma'nolarini tadqiq qilish, uning natijalarini ilmiy umumlashtirish mana shu ma'naviy sarchashmalarni anglashga yo'l ochadi. Bu esa mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: O'zbek tilshunosligida atoqli otlar tizimini tadqiq qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o'zbek antroponimlarining materiallarini to'plash, ismlarning lug'aviy-ma'naviy xususiyatlarini, lisoniy tuzilishi, etnografik-motivativ ma'nolarini tadqiq qilish, o'zbek mintaqaviy antroponimiyasining o'ziga xos tomonlarini kuzatish ishiga, ismlarning imloviy, izohli lug'atlarini tuzish sohasiga E.Begmatov, N.Husanov, G'.Sattorov, S.Rahimov, I.Xudoynazarov, R.Xudoyberganov,⁴ va boshqalar munosib hissa qo'shganlar. O'zbek ismlarining imloviy va izohli lug'atlari tuzilgan⁵. Shunga qaramasdan, o'zbek antroponimlarining paydo bo'lishi, rivoji, ismlarning nominatsion xususiyatlari, ism berishning motivativ asoslari, bunda lingvistik va nolingvistik tamoyillarning tutgan o'rni, antroponimiyani

³ Каримов И.А. "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиётқафолатлари" – Тошкент, 1997. – Б. 137.

⁴ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28с.; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Сатторов Ф. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Сатторов Ф. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.; Худойберганоў Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

⁵ Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. –Тошкент: ЎЗМЭ, 1998. – Б. 604.

sotsiolingvistik nuqtai nazardan ilmiy tadqiq qilish kabi muammolar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Ismlar tizimini sotsiolingvistik aspektda o'rganmasdan turib antroponimlarning paydo bo'lishi, antroponimlar tizimining rivojlanishi, boyishi va o'zgarishi xususiyatlarini ilmiy asoslash mumkin bo'lmaydi.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi: Tadqiqot Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining "Hozirgi o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" va "O'zbek tili leksik sathining sistema sifatidagi tadqiqi" mavzusidagi istiqbolli rejasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Dissertatsiyaning asosiy maqsadi o'zbek antroponimlarining yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan mavjud motivlarni aniqlash, ularning ismlar ma'no strukturasi shakllanishida tutgan o'rni va rolini hamda uning uslubiy semantik jihatdan tadqiq qilishdir.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun dissertatsiya oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- o'zbek antroponimiyasi uchun xos bo'lgan ismlarning materiallarini to'plash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;
- antroponimlar semantikasining denotativ, nominativ hamda motivativ ma'no tushunchalariga munosabatini belgilash;
- motiv ma'no tushunchasi va ikkilamchi motivatsiya mohiyatini o'zbek ismlari misolida kuzatish hamda ushbu ma'nolarni muayyan semantik hamda etnolingvistik tiplarga ko'ra tasniflash;
- antroponimlarlar motivativ ma'nosini yuzaga keltiruvchi nominativ, funksional hamda etnografik omillarni tadqiq qilish;
- antroponimlarning motivativ ma'nolarini antroponimlarning izohli lug'atlarida talqin qilish xususiyatlarini kuzatish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti: Tadqiqotning ob'ektini hozirgi o'zbek tili antroponimiyasi tizimi tashkil qiladi. Ishda o'zbek antroponimiyasi materiallari, shuningdek, o'zbek antroponimiyasining imloviy, izohli lug'atlarida, o'zbek yozuvchilarning asarlari, matbuot sahifalarida uchraydigan ismlar ham tadqiqot predmeti etib belgilandi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotning metodologik asosini til va tafakkur, ob'ektiv borliq va lisoniy belgi, narsa va uning nomi orasidagi munosabatga oid dialektik materializm qarashlari tashkil qiladi. Antroponimlarning semantik strukturasini o'rganishda, ayniqsa, atoqli otlar ma'nosini to'g'ri talqin qilishga erishishda o'zbek tilshunosligi, turkiyshunoslik, chet el tilshunosligi, jumladan, rus tilshunosligida mavjud ilmiy-nazariy xulosalarga tayanildi. Dissertatsiyaning tadqiq usullarini tavsifiy usul, qiyosiy-tarixiy usul, struktural, tipologik-tasnifiy talqin hamda sinxron tahlil usullari tashkil qiladi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Atoqli otlar tizimini, jumladan, o'zbek antroponimlarini sotsio-lingvistik va psixolingvistik aspektda tadqiq qilish ushbu lisoniy hodisaning ham lingvistik, ham nolisoniy asoslarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

2. Antroponimlar til lug'aviy tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishi va boyib borishi jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, xalqning qadimiy e'tiqodlari, etnografik, madaniy-ma'naviy qarashlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikni tadqiq qilmasdan turib, ismlar fondining tarkibini, ismlarning turli tiplarini, bolani nomlash, bunda tayanch bo'luvchi motivativ asoslarni, umuman, ismlar anglatuvchi ma'nolarni belgilash mumkin emas.

3. Antroponimlarning yuzaga kelishida ikkilamchi nominatsiya, ismni tanlashning motivativ asoslari etakchi omil bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, motivlanmagan ism bo'lmaydi. Ismning motivativ asoslarida xalqning tarixi, milliy-etnografik an'ana va udumlari, falsafiy, diniy e'tiqodlari o'z ifodasini topadi.

4. Ismlarning shakli, talaffuz xususiyatlari, ism anglatuvchi ma'nolarda o'zbek milliy tilining fonetik, orfoepik, tilning ixchamlik va qisqalikka intilish xususiyatlari ham ifodalanadi. Bu hol ismlarga qo'shiladigan erkalash-kichraytish shakllarida, ismlarning qismlarida, ularni shaklan qisqartirib talaffuz qilishda hamda mintaqaviy-lahjaviy variantlarida aniq namoyon bo'ladi.

5. Antroponimlarni sotsiolingvistik yoʻnalishda oʻrganish nomlarning izohli lugʻatlarini tuzish, har bir ismning paydo boʻlish asosini belgilash va anglashga, antroponimlarni etnomadaniyat nuqtai nazaridan baholashga imkon beradi.

6. Antroponimlarning shakllanishida diniy eʼtiqodlar, xalqning yashash muhiti taʼsiri etakchilik qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- oʻzbek antroponimlari boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar ilmiy-tanqidiy asosda oʻrganildi hamda mavjud nazariy xulosalar umumlashtirildi;

- oʻzbek antroponimlarining xususiyatlari monografik planda nazariy aspektda oʻrganildi;

- antroponimlarning semantik tuzilishi, tashkil qiluvchi motivativ maʼno tiplari belgilandi;

- ismlar maʼnosi turdosh otlarga qiyoslanganda ular, asosan, ensiklopedik maʼno ifodalashi tahlillar asosida isbotlandi;

- oʻzbek antroponimlari anglatuvchi motivativ va nolingvistik maʼnolar, ularning tiplari belgilandi hamda ular nominatsiya tamoyillariga koʻra tasniflandi;

- ismlar maʼnosini tushunish va leksikografik talqin qilishning usullari yuzasidan baʼzi mulohazalar bildirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Dissertatsiyaning nazariy xulosalari, ilmiy talqinlari antroponimlarning nominativ va funksional mohiyatini anglashga, atoqli otlar semantikasining oʻziga xos xususiyatlarini toʻgʻri talqin qilishga koʻmaklashadi. Tadqiqotda ismlarning motivativ maʼnosi yuzasidan bildirilgan nazariy xulosalardan, ilmiy tahlillardan oʻzbek tili semasiologiyasi va leksikologiyasiga oid izlanishlarda, oʻzbek onomastikasiga oid darslik va qoʻllanmalar yaratishda hamda etnografik va etnolingvistik tadqiqotlarda keng foydalanish mumkin.

Ishning amaliy qiymati shundaki, ismlarning motivativ maʼnosiga oid talqinlar oʻzbek ismlarining izohli va uslubiy lugʻatlarini tuzishda, onomastikaga oid ilmiy-ommabop qoʻllanmalar yaratishda, shuningdek, oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlarida, kollejlarda oʻzbek nomshunosligidan ixtisoslik kurslari va

tanlov fanlar o'tishda, seminar va amaliy mashg'ulotlar o'qitishda, bitiruv-malakaviy ishlari yozishda, kurs ishlari va mustaqil ishlar bajarishda, suhbatlar olib borishda qo'l keladi.

1. EPONIM VA ANTROPONIMLAR LINGVISTIK TADQIQOT OB'EKTI SIFATIDA

1.1. Eponim va antroponimlarning semantik struktur tadqiqi

Mustaqillik xalqimizga milliy-madaniy, diniy qadriyatlarni tiklash, asriy an'analariga qayta hayot bag'ishlash imkoniyatini berish bilan birga, birinchi navbatda, boshqa sohalar qatori tilshunoslik fanining rivojlanishi uchun ham keng yo'l ochib berdi. Har bir xalq mustaqilligi uning o'z ona tilisiga nisbatan bo'lgan hurmat-e'tibor bilan belgilanadi. Shunday ekan, mustaqillik tufayli jamiyatimizda ma'naviy-mafkuraviy muhit tubdan o'zgardi. Odamlarda yangicha dunyoqarash shakllandi, milliy g'urur, or-nomus, qadr-qimmat tuyg'ulari kuchaydi, hayot va mehnatga munosabat o'zgardi.

Tarixdan bizga yaxshi ma'lumki, xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o'zligi, tarixi, madaniyatidan judo qilishga intilgan. Mustamlakachilik davrida chor Rossiyasi amaldorlari mahalliy xalqni tarixidan, buyuk madaniyatidan mahrum qilish uchun qimmatbaho tarixiy qo'lyozmalarni tashib ketdilar, o'zlari esa mahalliy aholi uchun xat-savod o'rgatish maktablarini ochishdan nariga o'tmadilar. Bu siyosat sovet hokimiyati davrida davom etdi: vatanparvarlik, insonparvarlik, sabr, kechirimlilik, yaxshilik kabi yuksak g'oyalarni targ'ib qilgan buyuk olimlarni yo'qqa chiqardilar, islom dinini ta'qib qildilar. Insoniy g'oyalarni kuylagan adiblarni qoralab, kamsitdilar. Ular yaratgan adabiy asarlarda shariatga

taalluqli buyuk g'oyalarni e'lon qilish mumkin bo'lmay qoldi. Bunday g'oyalarni o'z asarlarida tarannum etgan adabiyot esa klerikal, saroy adabiyoti deb qoralandi, o'rniga kommunistik g'oya singdirildi.⁶ “Ahvol shu darajaga etib borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qolgandik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o'qir edik. “SSSR tarixi” deb atalgan darsliklarda, O'zbekistonday mamlakatga bor-yo'g'i 3-4 sahifa o'rin berilib, tarixiy voqea va shaxslar haqida noxolis fikrlar aytilar yoki umuman lom-mim deyilmasdi. Fandagi bunday soxtalik, ko'zbo'yamachilikni bugun eng olis qishloqda yashayotgan oddiy fuqaro ham, maktab o'quvchisi ham yaxshi biladi”⁷.

Mustaqillik tufayli eski tuzum va mafkura o'rnida yangi ijtimoiy munosabatlarni, xalqimizning orzu-umidi va maqsad-muddaosini o'zida mujassamlashtirgan holda O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'ziga xos istiqbollari belgilab olindi. Bular o'zida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimiz ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik tuyg'ularini mujassamlashtirgan bo'lib, shu asosda xalqimiz o'z tarixini o'rganish, kelgusi avlodlarning ma'naviy mulkiga aylantirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xullas, O'zbekistonda istiqlolning mutlaqo yangi, milliy an'analar zamirida shakllangan antroponimik siyosati yuzaga keldi.

Respublika hukumatining “Davlat tili haqida” gi qonuni nafaqat ona tilimiz nufuzini oshirishga xizmat qildi, balki joy nomlarini keng ko'lamda tadqiq etish, atroponimlarning izohli, etimologik va imlo lug'atlarini tuzish, ilmiy mezonlarini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan til siyosatining tarix, geografiya, etnografiya, psixologiya, demografiya kabi bir qator fanlar bilan mushtarak holda kechayotgani quvonarli holdir. Bu jarayon atroponimika sohasida ham faol davom etmoqda. Xalqimiz tarixi, turmush tarzining o'ziga xos qomusi hisoblangan antroponim va joy nomlari ajdodlarimiz tafakkurining bebaho yodgorligi, o'zbek

⁶ Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 3.

⁷ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент : Шарқ, 1998. – 32 б.

madaniyati, ma'naviyati xazinasini asrlar davomida boyitib kelgan muhtasham qadriyatlardan biri sanaladi. Shu bois, antroponimlarni milliy madaniyatimizning ko'lamini belgilovchi vositalardan biri sifatida mukammal tadqiq va targ'ib etishimiz lozim.

Xalqimiz orasida o'zini shu elning ziyolisi, madaniyatli farzandi deb hisoblagan har bir inson avval yashab o'tgan etti otasi, avlod-ajdodlari shajarasi, urf-odati va udumlarini bilishi shart sanaladi. Buning uchun ma'lum xalq, qabila hamda ular negizida shakllangan antroponim va etnotoponimlardan xabardor bo'lish talab etiladi. "Tarixni yaxshi bilmasdan turib, – deb yozadi I.A.Karimov, – yuksak ma'naviyatga erishish mumkinmi? Albatta, mumkin emas! Ma'naviyatni tiklash, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak"⁸. Tarixiy xotirani tiklash faqat tarix bilan bog'liq fanlarning vazifasiga kirmaydi, balki bu borada unga eng yaqin yordam beradigan fan bu – tilshunoslik sanaladi. Zero, V.Gumboldt aytganidek: "Til tarixi-xalq tarixi" demakdir⁹. Xalqning tarixi, milliy urf-odatlar, an'analari, bir so'z bilan aytganda, xalqning o'zligi onomastika va uning bir tarmog'i bo'lgan antroponimlarda o'z aksini topadi. Bu esa bevosita antroponimlarning shakllanish motivlarini o'rganish orqali ochib beriladi.

Onomastika va uning bir tarmog'i bo'lgan antroponimlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda motivatsiyaning mazmun mohiyatiga, antroponim so'zining mazmuniy tuzilishiga, antroponimlarning etimologiyasiga, atoqli otlarning strukturasiga, ismlarning yuzaga kelishidagi sabab, ehtiyoj, istak-orzu va boshqa xususiyatlariga, ismlar semantik va kontekstual mazmunining munosib yoki nomunosib holatlariga (badiiy asarlar tarkibida), ismlarning davr bilan bog'liqligiga, antroponimlarning badiiy asarlarga tanlash bilan bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, o'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va unda an'anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya

⁸ Каримов И.А. Инсон бахт учун туғилади. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 78.

⁹ Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984. – 214 с.

sohalaridan o'z maqsad va vazifalariga ko'ra farqlanuvchi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Mana shu davrda paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan birini o'zbek onomastikasi tashkil qiladi.

O'tmishda ham atoqli otlarga qiziqish bo'lgan. Kishi ismlari, joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi, ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar bayon qilingan. Ammo atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to'plash, ularni ilmiy asoslarda keng ko'lamda tahlil qilish o'zbek filologiyasida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov, T.Nafasov, E.Begmatov va boshqalarning¹⁰ tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda o'zbek nomshunosligi, ayniqsa, uning toponimika, antroponimika, etnonimika sohalari jadal rivojlandi. Endilikda o'zbek antroponimlarining materiallari qoniqarli ravishda to'plangani va tadqiq qilingani monografik tarzda o'rganilganini qayd etish mumkin. Olib borilgan tadqiqotlarda asosan yodnomalaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi.

Onomastik tadqiqotlar ko'lamining kengaya borishi bu sohaning rivoji, shakllanishi va ravnaq topishiga olib keldi. O'tgan davr davomida o'zbek ismlari va toponimlarini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab monografiya, to'plam va risolalar, ko'pgina maqolalar e'lon qilindi. Bularning barchasi o'zbek onomastikasi hozirda tilshunoslikning rivoj topgan o'ziga xos ilmiy yo'nalishi ekanidan dalolat beradi. Biroq olib borilgan tadqiqotlar sobiq ittifoqning mafkuraviy g'oyalari tayziqi ostida amalga oshirilganligi sababli milliy, diniy, hududiy qarashlar bilan bog'liq

¹⁰ Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28с.; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 66 б.; Сатторов Ф. Ўзбек исмларининг туркий катлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Сатторов Ф. Ўзбек исмларининг туркий катлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990. – 21 б.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.; Худойбергганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

antroponimlar va ularning motivatsiyasi davr tayziqi ostida tadqiqot markazidan chetga surib qo'yildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, antroponimlar, toponimlar va etnonimlarga munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda bu nomlar nafaqat lisoniy material, balki xalq tarixi, madaniyati va ma'naviyatining nodir merosi sifatida ham e'zozlanadigan va o'rganiladigan bo'ldi. Natijada o'zbek onomastikasining tadqiq yo'nalishlari yanada kengaydi va nufuzi oshdi.

O'zbek nomshunosligining paydo bo'lishi va zamonaviy ilmiy soha sifatida shakllanishi bu sohaning o'ziga xos ilmiy terminologiyasining yaratilishi hamda rivojlanishiga zamin yaratdi. Natijada, O'zbek onomastikasi olimlar tomonidan quydagi tarmoqlarga bo'lib o'rganildi:

Antroponimika - nomshunoslikning kishi ismlarini o'rganuvchi bo'limi, Toponimika - nomshunoslikning joy nomlarini o'rganuvchi (Oronim (tog', qir, tepa, cho'qqi, davon v.b. atoqli otlari), gidronim (okeanlar, daryolar, ko'llar, dengizlar, kanallar, soylar v.b. atoqli otlari), xoronim (cho'lliklar, qumliklar, tabiiy o'rinlar atoqli otlari), oykonim (shahar, qishloq, mahalla v.b. atoqli otlari), ekklezonim (machit, cherkov, manostir v.b.), dromonim (er osti, er usti, suv osti va suv usti yo'llarining atoqli otlari), nekronim (mozor, qabriston va shu tip muqaddas qadamjoylar atoqli oti) soha, Kosmonimika - nomshunoslikning kosmik fazoda joylashgan samoviy ob'ektlarini o'rganuvchi soha, Zoonimika - nomshunoslikning hayvonlarga qo'yilgan atoqli otlarini o'rganuvchi soha, Etnonimika - har qanday etnos (urug', qabila, elat, xalq, millat va b.)ning nomini o'rganuvchi soha. Etnonimika – nomshunoslikning, shuningdek, tarix, etnografiya fanlarining etnonimlarini tadqiq qiluvchi soha kabi.

Atoqli otlarning paydo bo'lishi, rivoji ko'plab lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liq. Shuning uchun atoqli otlar tadqiqotchisi nomlarni tahlil qilishda tilshunoslikdan tashqari boshqa fanlarning ilmiy usullaridan, ular erishgan yutuqlardan foydalanishi talab etiladi. Bu esa onomastika sohasining boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan munosabatini yuzaga keltiradi. Bu munosabatni quyidagilarda aks etganini ko'rish mumkin: antroponimika va leksikologiya, antroponimika va etimologiya, antroponimika va dialektologiya, antroponimika va

geografiya, antroponimika va lugʻatshunoslik, antroponimika va leksikografiya, antroponimika va tarix, antroponimika va kartografiya, antroponimika va toponimika, onomastik statistika kabi.

Atoqli otlarni oʻrganish bilan bogʻliq tahlil usullarini esa uch guruhga boʻlish mumkin:

1. Onomastik nazariyalarga daxldor terminlar tahlil: ilmiy toponimika, onomastik yoʻnalish, onomastik tekshirishlar, tarixiy nomlarni tiklash prinsipi, tarixiy-etimologik yoʻnalish, onomastika metodologiyasi, onomastik qonuniyatlar, xususiy onomastika, umumiy onomastika kabi.

2. Atoqli otlarni oʻrganishning ilmiy yoʻnalishlari: ismlar etnografiyasi, antroponimlarni turli motivlari, antroponimlarning semantikasi, antroponimlarni davr nuqtai nazardan tahlili, antroponimlarni jitmioiy kelib chiqishi, antroponimlarni muhit bilan bogʻliqligi, kartografik toponimika, onomastik leksikografiya, toponimik atlas, toponimik leksikografiya, toponimlarni kompleks oʻrganish, toponimlarning tarixiy-etimologik tadqiqi, toponimlarning ensiklopedik lugʻati, toponimlarning etimologik lugʻati, toponimlarning etimologik tadqiqi va b.

3. Ilmiy tadqiq usullari: onomastik tasnif, antroponimik tasnif, antroponimik qatlamni belgilash, xronologik tasnif, ekstralingvistik klassifikatsiya, estetik tasnif va b.

Nomlash stixiyali hodisa boʻlmay, oʻziga xos murakkab lisoniy va nolisoniy qonuniyatlarga, ehtiyoj va talablarga javob berishi lozim boʻlgan jarayondir. Ushbu jarayonning xususiyatlari onomastik tadqiqotlarda muayyan terminlar bilan yuritiladi:

1. Nomlash (nominatsiya) tushunchasini umumiy tarzda ifoda etuvchi terminlar: atash, nomlash, atash sistemasi, atash funksiyasi, ism berish, nominatsiya, onimizatsiya, onomastik nominatsiya, nominatsion sistema, nomlash madaniyati, nomlash sanʼati va b.

2. Nomlash usuli bilan bogʻliq tushunchalar: toʻrt nasabgacha atash, olti nasabgacha atash, urugʻ nomiga nisbat berish, laqab bilan atash, obʼektlarni yakka

tarzda nomlash, ota tomonidan atash, rasmiy nomlash, atashning arabcha usuli, ikki nom bilan atash, kishilar sharafiga nomlash, ko'pnomlilik, qo'shnomlilik va b.

3. Nomlanish jarayoni va qonuniyatlari: toponimizatsiya – turdosh so'z (appelyativ)ning o'z vazifasini o'zgartirib atoqli ot tizimiga o'tishi, joy nomiga aylanishi.

4. Fitonimizatsiya – appelyativ o'simlikning atoqli otga o'tish jarayoni (Lola, Rayhona)

Ma'lumki, antroponimlar xalq tarixi, diniy qarashlari, tili va turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Bunda urug', qabila, millat, xalq va joy nomlari asosida yaratilgan atroponimlar alohida o'rin tutadi. Bunday antroponimlar uzoq tarixiy davr yodgorligi bo'lib, o'zbek xalqi tarixi, etnik tarkibini o'rganishda muhim manbaa hisoblanadi. Etnonimlar va ular asosida yuzaga kelgan atoqli otlar va joy nomlari azaldan tarixchilar, etnograflar, arxeolog va geograflarni qiziqtirib kelgan. Ular tilning bu xarakterli boy lug'aviy qatlamidan elat, urug', qabila va xalqning yuzaga kelishi, etnogenezi, madaniyati, aholi turar joylari migratsiyasi muammolarini tadqiq etish uchun material, dalil sifatida foydalanib kelgan. Tarixchilarning asarlarida etnonimlar tarixiga oid ba'zi mulohazalar mavjud bo'lsa-da, ular bu nomlarni to'la ma'noda filologik aspektda o'rganishni maqsad qilib olmagan, shu sababli antroponimlarni til hodisasi sifatida o'rganish tilshunoslikning dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bu borada bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, yuqorida ko'rib o'tilgandan tashqari Ernest Begmatovning "Antroponimiyani tadqiq qilishning sotsiolingvistik aspekti" mavzusidagi maqolasida quyidagi masalalarga e'tibor qaratgan: avvalo, sotsiologiyani o'rganishi va u qanday fan, sotsiologiyani tilshunoslik faniga, jumladan, onomastikaga ta'siri, bog'liqlik tomonlarini ochib bergan. Shuningdek maqolada til bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat, til taraqqiyotiga jamiyatning, sotsial omillarning ta'siri yoritilgan. Asosan, sotsiologik tadqiq usuling onomastik tizimga, jumladan, antroponimiya tizimiga tadbqiq masalalariga to'xtalgan. Buni shartli ravishda onomasialogiya deb atagan. Til va jamiyat o'rtasidagi aloqa va ijtimoiy munosabatlar antroponimiya taraqqiyotida

sotsial olimlarning o‘rni va roli, ayniqsa, antroponimlarning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy-komunikativ va nominativ vazifalarida, ijtimoiy tarmoqlanishidagi ko‘rinishi tadqiq etilgan¹¹.

V.A. Nikonov antroponimlarni lisoniy yo‘sinda o‘rganishning tilshunoslik o‘rganishi kerak bo‘lgan o‘n beshdan ortiq muammolari haqida gapirar ekan ularni qoniqarli hal qilish quyidagi masalalarni tadqiq etish bilan mustahkam bog‘liqligini ta’kidlagan: 1) ismning o‘z egasiga aloqadorligi; 2) xalqning nom tanlash va bolaga berish an‘anasi bilan bog‘liq ismlar; 3) rasmiy va norasmiy qo‘llanishdagi ismlar; 4) shaxs ismining ma’lum muddatdan o‘tgach shaxsning yoshiga moslab o‘zgartirilishi; 5) kishilar o‘rtasidagi sotsial munosabat tiplari va ularning bolani nomlash usullari va shakliga ta’siri; 6) ismlarda tabu va evfemizm ko‘rinishlari”¹².

F.Musaeva E.Begmatovning “Antroponimika jins kategoriyasiga befarq qaray olmaydi. Bu jihatdan u turdosh va atoqli otlarning boshqa tiplaridan ajratib turadi” degan fikriga e’tiborini qaratadi. Darhaqiqat, juda ko‘plab kishi ismlaridan uning qaysi jins vakili ekanligi bilinib turadi. Bunday farqlanish ba’zan ham shaklan, ham mazmunan to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, ba’zan mazmunning o‘zida ham bilinib turadi. F.Musaeva ismlar qaysi jins vakilini nomlayotganiga qarab ularni yirik ikkita guruhga ajratadi: 1) erkaklar ismi; 2) ayollar ismi¹³.

E.Begmatovning “Antroponimlar-antropotsentrik tadqiq ob’ekti” mavzusi bilan yozilgan maqolasida quydagicha fikrlarni bildiradi. “Til bu insonning butun borlig‘i-moddiy turmushi, madaniy, ma’naviy hayoti, etnik va ruhiy holati, aqlu-tafakkuri, estetik olami, o‘tmishi, bugungi va istiqbolini gavdalantiradigan musaffo oynadir”¹⁴.

Yuqoridagi kabi farqlarni tadqiqotchi S.Kenjaeva quydagicha bayon qiladi: “Erkaklar va ayollarga beriladigan ismlarda bir xil motivli (Tursin, O‘lmas) nomlar

¹¹ Бегматов Э. “Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти”. Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. 4 сон. 43 б

¹² Бегматов Э. “Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти”. Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. 4 сон. 44 б

¹³ Мусаева Ф. Антропонимларда жинс тушунчасининг ифодаланиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2012.3 сон. 79б

¹⁴ Бегматов Е. Антропонимлар-антропоцентриқ тадқиқ объекти. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. 3 сон. 35 б

mavjud. Ammo ushbu motivni ifoda etayotgan ismning appelyativ asosida ma'lum farqlanishlar mavjud. Mana shu farq ba'zi erkaklar ismining ayollarga berilmasligida, aksincha, ayollarga beriladigan ba'zi ismlarning erkaklarga qo'yilmasligida ko'rinadi"¹⁵. Demak, o'zbek tilida jins ma'nosi leksik-semantik usulda ifodalanishi mumkin.

Tilning asosiy kommunikativ vazifasini inkor qilmagan holda shuni ta'kidlash kerakki, uning boshqa ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy, didaktik va ta'limiy, etikaviy, estetik, regional- hududiy, ruhiy, badiiy va ilmiy, emotsional-estetik tomonlar bilan bog'liq ijtimoiy-lisoniy qirralari mavjud. Antropotsentrik paradigma haqida N. Mahmudovning quyidagi fikrlarini keltiramiz: "Antropotsentrik paradigma tadqiqotchi diqqatining bilish ob'ektidan sub'ektivda ko'chishidir, ya'ni bunda inson tilning ichida va til inson tarkibida o'rganiladi"¹⁶.

Antroponimiyada ism tanlashda nominatorlarning roli, toponimiyada joylarni nomlash, motivlarni belgilashda kishilar amal qilgan tamoyillar, o'zbek tilidagi etnografik, evfimik, emotsional-ekspressiv leksikaga oid ishlar badiiy adabiyotda so'z tanlash, matn tuzishda adiblarning o'rni va mahorati, badiiy san'atlar, badiiy ko'chimlar okkazonal so'zlarga bag'ishlangan tadqiqotlar va boshqalarning barchasida inson va uning faoliyati, ongi va shuuri yotadi. Ya'ni "Antroposentrik paradigma"deb hisoblasa bo'ladi.

Antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material bera oladigan xususiyatlar juda ko'plab uchraydi. Ko'plab olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlaridan shuni bilish mumkinki, deyarli barcha ismlarning yaratilish motivida insonning, ya'ni bolaga ism qo'yuvchilarning istak- umid va orzulari o'z ifodasini topgan.

Dildora Nizomiddinovaning "Farg'ona vodiysi antropotoponimlarini o'rganishga doir" nomli maqolasida antroponimlarning toponimlar hosil bo'lishidagi o'rni va vazifasi haqidagi fikrlari o'z ifodasini topgan. Toponimlar tizmida kishi otlari bilan yuritiladigan joy nomlarida antropotoponimlar muhim va

¹⁵Кенжаева С. Ўзбек антропонимларининг семантик ва социолінгвистик тадқиқи. – Т.: 2011. 20 б

¹⁶ Бегматов Е. Антропонимлар-антропоцентриқ тадқиқ объекти. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. 3 сон. 35 б.

asosiy o‘rinlardan birini egallashini ta’kidlaydi. Bunda toponimlar hosil bo‘lishida antroponim va ularning munosabati muhim vosita bo‘lgan. Antroponimlarning ko‘pchiligi shaxs otlarining aholi maskanlariga, suv havzalariga, mozorlarga tepa va g‘orlarga, ekin maydonlariga nom bo‘lib o‘tishi bilan yuzaga kelgan¹⁷.

D.Nizomiddinova antropotoponimlarni quydagicha shaxs nomlari qanday ob’ektni atab kelishiga ko‘ra: 1) atropooykonimlar, 2) antropogidronimlar; 3) antroponekronimlar; 4) antropooronimlar; 5) antropoagronimlar sifatida tasnif etib o‘rganish mumkinligini ko‘rsatib o‘tadi¹⁸. Demak bu maqoladagi fikrlardan ko‘rindiki, Farg‘ona vodiysi joy nomlari tizimida antropotoponimlarning o‘rni qay darajada muhim ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Shamsiddin Kamoliddin “Qadimgi ismlarda yasalgan joy nomlari” mavzudagi maqolasida antroponimlar, ya’ni shaxs nomlari, tarixiy geografiyada keng tarqalganligini O‘rta Osiyo tarixida antroponimlarning joy nomiga (toponimiyaga) ko‘chishi yo ob’ektning qurilishida sababchi bo‘lgan bo‘lsa va boshqa hollarda kishi nomlari joy nomlari vazifasiga ko‘chish mumkinligini ochib beradi.

¹⁷ Ohunov N. Antropotoponimlar va ularning yasalishi. Til va adabiyot ta’limi, 2005.1-son 92-bet

¹⁸ Низомиддинова Д. Фарғона водийси антропонимларини ўрганишга доир. Ўзбек тили ва адабиёти. 2011/2 сон

1.2. Eponim va antroponimlarda motivatsiya hodisasi talqini

Eponim atamasi o'zida shaxs otlari(antroponim, toponim, mifonim)ni ifodalab, ayni paytda ilmiy tushunchalarni ifodalovchi rentgen, sherloksolms, tarzan kabi turdosh otlarni ham ifodalaydi.

Eponimlar bir so'zdan, bir necha so'zdan, bir o'zakdan yoki o'zak qo'shimchadan iborat bo'lishi mumkin.

Eponim qo'shimchasiz atoqli otlardan (antroponim, toponim, mifonim) metonimiya yo'li bilan yasalgan bo'lishi mumkin.

Masalan Amper Volt kabi.

Baykot eponimi siyosiy atama hisoblanib, uning etimologiyasi bevosita ingliz boshqaruvchisi Charlz Baykot (1832-1897) nomi bilan bog'lanadi. 1880 yili islandiyalik arendatorlar unga o'zlarining iqtisodiy-siyosiy e'tirozlarini (protest) bildirib muomalani to'xtatganlar.

Eponimizatsiya hodisasi, aniqrog'i, eponim tushunchaning mazmuni haqida hech qanday ma'lumot bera olmaydi.

Masalan, ingliz vrachi T.Addisson tomonidan birinchi bo'lib buyrak usti faoliyatining buzilishi kasalligini yoritildi va bu kasallik Addison kasalligi deb nomlandi.

Rus vrachi S.P.Botkin tomonidan 1883 yil jigar, buyrak, o'tni ishdan chiqaruvchi yuqumli kasallik haqida ma'lumot berildi va bu kasallik Botkin kasalligi deb nomlandi. 1887 yili ingliz vrachi J.Parkinson qaltiroq sholi, qo'l qaltirog'i, oyoq qaltirog'i natijada yurish, qadam bosishni buzilishi, nutqiy faoliyatning buzilishi haqida ma'lumot berdi va bu kasallik Parkinson kasalligi deb nomlandi.

Terminshunos N.V.Podolskaya ta’biri bilan aytganda, eponim biror narsa (vosita) bilan mashhur bo’lgan shaxs nomi bo’lib, u har qanday boshqa onimning yuzaga kelishiga sabab bo’ladi.

Botanikada-vateriya, dyubuasiya, lonitsera, vedeliya, pauliniya, dalbergiya, rauvolfiya.

Ximiyada – bakelit, mendeleviy, fermiy.

Fizikada – om, rentgen, lambert, vatt.

Geografiyada – Sank-Peterburg, Tolyatti, Yaroslavl, Pushkin, Kirov.

Meditzinada – sindrom, kojevnikov, simptom, sedan.

Erisixton sindromi – qadimgi grek mifologiyasining qahramoni nomi bilan bog’liq. U muqaddas Demetra maydonidan uy qurish uyaun daraxtlarni kesgani uchun bog’dorchilik va dehqonchilik ma’budi uni mangu ochlik bilan jazolaydi va u o’zining ichki a’zolarinin yeb o’ladi.

Antropo... (yun. anthropos – odam) – odamga aloqador ekanlikni bildiruvchi yasama so’z tarkibiy qismidir.¹⁹ Antroponim (“anthropos — odam+onyoma—nom). Kishining atoqli oti,ism. Antroponimika leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini) o’rganuvchi bo’limi²⁰ hisoblanadi. Antroponimika (yun. anthropos - odam va yun. opuma - nom) — onomastikaning bo’limi. Odamlar ismini, ularning tarqalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo’llanishini va antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o’rganadi. Atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikning turli usullari ham antroponimikani tadqiqot manbai hisoblanadi. Masalan, Sohibqiron Amir Temur Tarag’ay Bahodir Ko’ragoniy. Bunda faqat Temur shaxsning xos ismi, Amir – hukmdorlik darajasini anglatadi, Sohibqiron – Temurga zamondoshlari tomonidan berilgan sifat (asr, davr sohibi degan ma’noni bildiradi), Tarag’ay – otasining ismi (familiya hisoblanadi), Bahodir – otasining laqabi, Ko’ragon – xonga kuyovlik nisbasidir.

¹⁹ O’zbekistan milliy ensiklopediyasi, –T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. I tom 371 bet

²⁰ Хожиев А. Лингвистик терминлар луғати –Т.: Фан, 1987, 17 б

Dunyodagi turli xalqlarda turlicha antroponimik tizim mavjud bo'lgan. Masalan, Qadimgi Rimda har bir erkakka xos ismi oldindan keladigan nomga – avloddan avlodga o'tadigan urug' nomiga ega bo'lgan, bu urug'ning shajarasini tavsiflagan. Hozirda Ispaniya va Portugaliyada bir kishi bir necha xos (katolik cherkovi ro'yxatidan olinadigan) ismga, otasi va onasining familiyasiga ega bo'lishi mumkin. Islandiyada har bir kishi, bir necha xos ismga (cheklangan ro'yxatdan olingan) va familiya o'rnida otasining ismidan hosil bo'lgan nomga ega bo'ladi. Xitoy, Koreya, Vetnamda kishi nomi bir bo'g'inli familiyadan (turli davrda ular 100 dan 400 gacha bo'lgan) va xos (odatda ikkita bir bo'g'inli morfemadan tashkil topgan) ismga ega bo'ladi, xos ismlar miqdori cheklanmaydi. Antroponimika tizimida kipokoristika (erkalatib, kichraytirib atash – masalan, Laziz(jon), Dilobar(xon), Homid(cha), Ahmad(cha) va h.k.) alohida o'rin tutadi. Antroponimikaning ma'lumotlari tilshunoslikning boshqa sohalari uchun, jamiyatshunoslikda, xalqlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.²¹

Motiv lot. moveo - harakatlantiraman so'zidan olingan bo'lib, (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil, vaj nazarda tutiladi. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va b. motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi sub'ektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo'lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Ba'zan “motiv” tushunchasini “emotsiya”, “maqsad”, “ustanovka” atamalari bilan almashtirish hollari uchraydi. Goho turtki, qo'zg'ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi²².

²¹ “O'zbekistan millim entsiklopediyasi”. –T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2003. I tom 372 bet

²² “O'zbekistan millim entsiklopediyasi”. –T.: Davlat ilmiy nashriyoti. 2003. 6 tom 97 bet

Izohli lugʻatlarda motiv– (ruscha-fransuzcha). Syujetning tarkibiy elementi, asarning asosiy mazmuni, mavzusi (Dostonning motivi)²³ sifatida ham talqin etiladi. Adabiyotshunoslikda esa motiv – (fr mjtif(v) – ohang, kuy, maqom soʻzidan) – muzika asarining sasi elementi. Adabiy asarda motiv asarning asosiy temasidan farqli ravishda uning qoʻshimcha, ikkinchi darajali temalari boʻlib, u asosiy tema bilan birgalikda badiiy jihatdan tugal tarkib topgan bir butun narsa sifatida yuzaga keladi²⁴ deb izoh beriladi.

H.Homidiy, Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimovalar motivni (fransuzcha motif – kuy, ohang, maqom soʻzidan) muzika asarining asosiy elementi. Adabiy asarda motiv asarning asosiy temasidan farqli ravishda uning qoʻshimcha, ikkinchi darajali temalari boʻlib, u asosiy tema bilan birgalikda badiiy jihatdan tugal tarkib topgan bir butun narsa sifatida yuzaga keladi²⁵ deb izohlaydilar.

D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralievalarning “Adabiyotshunoslik lugʻati”da motiv (lot. Moveo - harakatlantiraman) – musiqashunoslikdan oʻzlashtirilgan termin ekanligi taʼkidlangan holda badiiy asar poetikasi bilan bogʻliq holda talqin etiladi. Ularning fikricha, motiv musiqada asarning eng kichik shakl birligi sanalib, asar uning aynan takrorlanishi (shuningdek, oʻzgartirilishi yoki zid motivlar kiritish) asosida rivojlanadi. Adabiyotshunoslikda motiv termini turlicha maʼnolarda qoʻllanadi. Jumladan, voqeaband asarlarda motiv sujet sxemasi (masalan, “Alpomish” dostonida Hakimbek bandi etiladi; unga pirlar yordam beradi; “Kuntugʻmish” dostonida kimsasiz yetimlikdan yuksak martabaga yetadi (Mohiboy, Gurkiboy); qahramon otasini tanimaydi, favqulodda vaziyatga duch keladi va bosh.) yoki biron-bir narsa (masalan, koʻzgu, tumor), holat (masalan, tush koʻrish, arvoh bilan suhbat, oʻzini tanitmay yurish), obraz (dono vazir, vafodor doʻst, raqib) kabi qator koʻrinishlarda voqea boʻladi. Motivlarga xos muhim jihatlardan biri muayyan turgʻunlikka egalikdir. Yaʼni motivlar yarim tayyor holda yozuvchining badiiy fantaziya imkoniyati va ijodiy niyatidan kelib

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1981. I том. 372 б

²⁴ Адабиётшунослик термилари луғати Н.М.Маллаев. 118-бет

²⁵ Ҳомидий Ҳ. Абдуллаев Ш. Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: “Ўқитувчи”. 1967 йил

chiqib turli variantlarda talqin etiladi. Masalan, “Alpomish”dagi Qorajon, “Farhod va Shirin”dagi Shopur, “O’tkan kunlar”dagi usta Olim – bularning hammasi do‘st motivining turli variantlari bo‘lib, ular asar syujetidagi funksiyalari, badiiy konsepsiyani ifodalashda tutgan o‘rni jihatidan farqlanadi. Lirikada ham motivlar keng o‘rin tutadi. Xususan, an’anaviy tarzda ishlatiluvchi “oshiq – yor – ag‘yor”, “Kutayotgan oshiq – kelmagan yor”, “borlig‘ini tutgan oshiq – beparvo yor” singari qator lirik syujet motivlari turli variantlarda qo‘llanib, lirik qahramonning turfa o‘y-hislarini lo‘nda va tasirli ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, bir shoir ijodi yoki bir davrda yashagan shoirlar ijodi doirasida takrorlanuvchi poetik obrazlar motiv obrazlar sanaladi. Masalan, Cho‘lpon she’riyatida “yo‘lchi”, “yo‘l”, “yulduz” poetik obrazlari juda ko‘p qo‘llangan bo‘lib, ular Elbek, Botu, Oybek, U.Nosir asarlarida ham tez-tez uchraydi. Shu o‘rinda motivlarning tagma’noga ishora qilish funksiyasini ta’kidlash joiz. Jumladan, “yo‘lchi”, “yo‘l”, “yulduz” motivlari ijtimoiy mazmunga (“yo‘l – kurash, “yo‘lchi – kurashchi”, “yulduz – maqsad”) ishora qiladi. Poetik motivlar mazmun jihatidan muayyan “uya” ni tashkil qiladi, “uya” dagi motivlar matnda aksar hollarda birga qo‘llanadi yoki nazarda tutiladi (masalan, “qush” motivi hamisha “parvoz”ni nazarda tutdi). Tildagi so‘zlar kabi motivlar ma’no jihatidan kengayib yoki torayishi, ba’zan esa tamomila o‘zgarib borishi mumkin. Masalan, mumtoz she’riyatda “yor” – Haq, “oshiq” – Haq yo‘lidagi so‘fiy, “visol” – Haqqa yetish ma’nolarini bergan bo‘lsa, Cho‘lpon she’riyatida ular ijtimoiy mazmun kasb etadi: “yor” – erk, istiqlool, “oshiq” – erk va istiqlool yo‘lidagi kurashchi, “visol” – maqsadga erishish²⁶ kabi.

Xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq holda folklorshunoslikda motiv – (fransuzcha motif – kuy, ohang) syujet tarkibidagi halqalardan biri sifatida talqin qilinadi. Shu ma’noda motiv atamasi xalq og‘zaki ijodida, xususan, doston, ertak kabi katta epoc janrlarni o‘rganishda ishlatiladi. Masalan, qahramonning g‘ayri tabiiy tug‘ilishi motivi, personajni safardan qaytganda sevgilisini to‘yi ustidan chiqishi, turli xil kuch va mahorat sinovlari motivi va hokazolar. O‘zbek folklorshunoslari H.Zarifov, M.Afzalov kabilar o‘z tadqiqotlarida og‘zaki ijod

²⁶ Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: “Akademnashr” 2013

namunalarida motiv hodisasi tabiatini o'rganishga muhim masala sifatida yondashadilar²⁷.

Tilshunoslikda motiv tushunchasi so'z yasalishi bilan bog'liq holda tadqiq qilinadi. Motivlangan so'z yasama asosga ega bo'lgan, ma'nosi yasash asosi va yasovchi affiks orqali ifodalanib turadigan so'z hisoblanadi. Masalan, ishsiz-lik, ishchan-lik so'zlari. Yasash asosi bo'lib kelgan so'z motivlovchi so'z deb yuritiladi. Masalan, ishchi, ishla so'zlaridagi ish qismi²⁸. Bir o'zak morfemaga bo'lgan, o'zaro birin-ketin motivlanuvchi holatdagi so'zlar qatori so'z yasalish zanjiri deb yuritiladi: ter-terim, terimchi-terimchilik kabi²⁹.

Ayni bir yasovchi vositasida hosil qilingan (motivlangan) so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'no so'z yasalish ma'nosi, yasovchi asos bilan yasama orasidagi motivatsiya so'z yasalishi motivatsiyasi deb yuritiladi.

Motivatsiya bilan bog'liq holda so'z yasalish tipi tahlil etilar ekan, so'z yasalishining uch umumiy belgisi nazarda tutiladi:

- 1) yasovchi asos (motivlovchi so'z) bir turkumga oid bo'lgan;
- 2) ayni yasovchi affiks bilan yasalgan;
- 3) so'z yasash ma'nosi bir xil bo'lgan turi. Masalan, otlardan -li affiksi yordamida yaslib, asosdan anglashilgan narsaga egalikni ifodalovchi kuchli, sirli, yog'li kabi sifatlar so'z yasalishining bir tipi hisoblanadi³⁰.

A.Nurmonov har qanday belgida o'zaro ma'lum munosabatda bo'lgan ikki ob'ekt mavjud bo'ladi. Ob'ektlar o'rtasidagi munosabat ikki xil: sabab-natijali va shartli munosabat. Sabab-natijali munosabatda ob'ektlar o'zaro motivlangan, shartli munosabatda esa motivlanmagan bo'ladi³¹ deb talqin etadi. Uning fikricha, har qanday so'z yasalishi motivlovchi baza (yasalish asosi) va motivlanuvchi so'zlarning muayyan motivatsiya vositasi (formant) orqali motivatsiya munosabatiga kirishuvi natijasidir. Demak, har qanday so'z yasalishi uch

²⁷ Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. –T.: Yangi asr avlodi – 2010-yil. 138b

²⁸ Хожиев А. Кўрсатилган асар, 58-bet

²⁹ Хожиев А. Кўрсатилган асар, 84-bet

³⁰ Хожиев А. Кўрсатилган асар, 85-bet

³¹ Nurmonov A. "Tanlangan asarlar" II jild, T., "Akademnashr", 2012-yil, 99-100-bet

elementining munosabatidan tashkil topadi; yasalish asosi+yasovchi vosita=yasalma. Bu yerda birinchi va uchinchi elementlar ma'lum bir tilning muayyan (sinxron) davrida mustaqil lug'aviy birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ayni chog'da, bu lug'viy birliklar o'zaro motivatsiya munosabatida bo'ladi. Agar so'z yasash formanti birdan ortiq bo'lsa, u vaqtda so'z yasash zanjirini hosil qiladi. Bunday so'z yasash zanjirida motivatsiya darajasi namoyon bo'ladi. So'z yasash zanjiri uzoqlashgan (cho'zilgan) sari, motivlanuvchi baza bilan motivatsiya munosabati kuchsizlana boradi. Motivatsiya darajasiga ega bo'lgan so'zlarda bevosita va bilvosita motivatsiya munosabatini farqlash mumkin. Albatta, yasovchi formant motivatsiya bazasidan qanchalik uzoqlashsa, shunchalik yuqori darajadagi motivatsiya ro'y beradi. Ikki elementning faqat bir formant orqali motivatsiya munosabatida bo'lishi bevosita, formantlar yig'indisi orqali shunday munosabatda bo'lishi esa bilvosita motivatsion munosabat sanaladi. Shubhasiz, motivlanuvchi baza (yasalish asosi) ham, motivlanuvchi (yasalma) ham o'zlarining alohida-alohida, bir-biridan farq qiladigan, ammo biri ikkinchisi bilan bog'liq ob'ektiv reallikdagi denotantlariga va ongdagi signifikatlariga ega bo'ladi. Masalan, temirchi so'zi (eksponenti) ning denotanti metal bilan shug'ullanuvchi shaxs, signifikati shunday shaxslar haqidagi tushuncha bo'lib, bu so'z –chi motivatsiya vositasi orqali ob'ektiv reallikdagi qattiq jism – metallning bir turi (denotant) va u haqidagi tushuncha (signifikat)ni ifoda etuvchi temir (eksponent) motivlovchi bazasidan hosil bo'lgan. Ana shuning uchun so'z yasalishi muayyan tilning lug'at tarkibida mavjud bo'lgan ma'lum bir so'zdan ma'lum vosita (yoki usul) orqali yangi so'zning hosil qilinishi, ya'ni ikki so'z munosabatidir. Demak, o'zaro motivatsiya munosabatida bo'lgan har qanday element (yasalish asosi ham, yaslma ham) so'z uchun xos bo'lgan har uchala element (denotant, signifikat, eksponent) ni o'zida aks ettirishi va bu uch element har ikki so'zda boshqaboshqa, alohida ifodalanish shart³².

Demak, antroponim onomastikaning tarmoqlaridan biri bo'lib, uning tarkibiga shaxsning ismi, familyasi, otasining ismi, taxallusi, laqabi, aytilganda

³² Nurmonov A. Tanlangan asarlar, III jild, –T.: Akademnashr, 2012-yil, 165-bet

ma'lum shaxsni tushuniladigan so'z, umuman olganda, shaxsga atab qo'yilgan nomlarning barchasini kiritish mumkin. Motivatsiya esa tilshunslilikda ikki hil tarzda talqin qilingan bo'lib, birinchisida nom qo'yish uchun asos bo'lgan ekstralingvistik vositalar– niyat, xohish, istak, orzu, ishonch, e'tiqot kabilar tushuniladi. Bunday talqinlar zahirida adabiyotshunoslik, mantiq, yuridik fanlardagi motiv atamasi bilan aloqadorlik yotsa, ikkinchisida har qanday so'z yasalishi motivlovchi baza (yasalish asosi) va motivlanuvchi so'zlarning muayyan motivatsiya vositasi (formant) orqali motivatsiya munosabatiga kirishuvi natijasi tushuniladi.³³ Shuningdek, Ayni bir yasovchi vositasida hosil qilingan (motivlangan) so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'no so'z yasalish ma'nosi, yasovchi asos bilan yasama orasidagi motivatsiya so'z yasalishi motivatsiyasi deb yuritiladi.

a) Eponim va antroponimlarda magik va diniy qarashlar bilan bog'liq motivatsiya

Eponim va antroponimlar har bir xalqning milliy urf-odatlarini, an'analarini, falsafiy, diniy, dunyoviy qarashlarini o'zida mujassam etadi. O'zbeklarda ham bolaga ism qo'yishda xalqning ming asrlik qarashlari o'z ifodasini topadi. Har bir ism halqimizning falsafiy, ilmiy, dunyoviy va diniy tafakkuri mevasi hisoblanadi. Shuning uchun antroponimlardagi motivatsiya tarxii, diniy, magik qarashlar va orzu-istak, tabu va efemizm bilan bog'liq bo'ladi.

Har qanday biologik jonzotda bo'lgani kabi insonda ham o'z naslini asrash instinkti mavjud bo'lib, bu instinkt boshqa jonzotlarda farqli ravishda o'z naslini faqat turli jismoniy tahdidlardan emas, balki turli ruhiy tahdidlardan ham asrash instinkti mavjud bo'ladi. Bu hol ism qo'yishda ham namoyon bo'ladi. Bu esa tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashishiga olib keladi. Shu sababli bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik, animistik tasavvurlar, ko'hna diniy aqidalar, sig'inishlarning boshqa xil ko'rinishlari, udumlar, keyinchalik esa

³³ Nurmonov A. "Tanlangan asarlar" III jild, T., "Akademnashr", 2012-yil, 165-bet

islom dini ta'limoti bilan aloqador bo'lgan diniy, falsafiy qarashlar, e'tiqod va ishonchlar asosiy rol o'ynaydi. Bunday ismlarning yuzaga kelishi, ma'nosi o'sha nomni tanlagan yoki ijod qilgan kishilar doirasi uchungina ma'lum bo'ladi. Odatda bunday nomlar ota-onalarning ma'lum individual xohish-istaklarini ifodalaydi yoki favqulodda yaratiladi. Bu kabi ismlar keyinchalik keng udum bo'lishi, kengroq tarqalishi tufayli umumilliy yoki mintaqaviy ma'lum nomlar qatoriga o'tishi mumkin.

Antroponimlarning tarixda va hozirgi kunda ham magik qarashlar bilan bog'liq motivatsion xususiyatlari mavjud. Bu ayniqsa folklor(xalq og'zaki ijod)da o'zining yorqin aksini topadi. Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodining yorqin namunasi hisoblangan "Go'ro'g'li" eposida ham buning yetuk darajasini ko'rishimiz mumkin. Chunki "Go'ro'g'li" dostonidagi antroponimlarning aksariyati magik va diniy qarashlar bilan bog'liq.

Qadimdan "G'oro'g'li" dostoning turli variantlari bo'lib, ularda mifologik qarashlar yetakchilik qiladi. Chunki qahramonning onasi homilasi olti oyligida halok bo'lib, go'rga qo'yiladi. Homila yer osti (o'zga olam)da "o'lik tana"da uch oy rivoj topib, ko'klam kelishi bilan tug'ilib, yer yuziga chiqadi, u yorug' olamda ulg'ayib, kamolga yetib, keksayib, yana o'zga makon (go'r)iga qaytib ketadi. Lekin qahramon (dostonning qolgan variantlarida ham) yorug' olamga bir yilda bir marotaba qaytadi. Bu tartib ayni fabulaning tabiiy ravishda o'lib tiriluvchi tabiat bilan bog'liq mif va marosimlarga aloqadorligi ko'rsatiladi.

Demak, Go'ro'g'li obrazi tarixan ko'klamni keltiruvchi, butun tabiatni tiriltirib, unib-o'stiruvchi Oy bilan Quyoshning farzandi. U o'lib tiriluvchi tabiat qutblarining biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayondagi Go'ro'g'lining taqdir yo'lini ixchamlashtirib bayon etsak, u quyidagi tarzda o'z ifodasini topadi. Ya'ni, qahramon uch oy yer tagida yetilib, ko'klam bilan birga tug'ilib, uch oy (ko'klam fasli)davomida tetapoya bo'lib, uch oy (yoz) barobarida voyaga yetib, ulg'ayib (qayta homila topib), navbatdagi uch oy (kuz)da kamolga etishib, qartayib, homilasi olti oylik bo'lib, qayta o'zga makon – g'or (qish qo'yni)ga kirib, uyquga ketadi va yana bahorda uyg'onadi(tiriladi).

Shunday qilib, o't-olov quyosh makoni muqaddas tog' haqidagi tasavvurlarga bog'liq, yoz (ko'klam)ni olib keluvchi, butun tabiatni, hayotni jonlantirib, ularga tiriklik beruvchi bosh ezgu teran - Xizr/Xidir – quyosh mabudi bilan oila, uy o'chog'i, doyalik, hosildorlik, tug'ilish-u ko'klam erlarni - Hilol/Aqanoy/Al-Oy mabudasining yerda tug'ilgan farzandi – Go'ro'g'lidir³⁴. Yuqoridagi ma'lumotlardan G'o'ro'g'li o'lib tirilishida yil fasllari almashinuvidagi bir qutbning taqdiri o'z ifodasini topgan.

Demak, Go'ro'g'li obrazining Xizr va Hilol kabi ilohlar bilan bog'liqligi, bu antroponimlarning diniy qarashlar bilan bog'liq motivlanishidir. Uning o'lib tirilishi esa bu antroponimlarning magik qarashlar bilan bog'liq motivlanishidir.

Adabiyotimiz va dinimiz asosida magik xususiyatga ega bo'lgan antroponimlar ko'plab uchraydi. Masalan, Kuntug'di, Oyto'ldi, O'zg'urmish, O'gdulmish (Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"), Ahrima, Ahuramazda, Zarostr, Zardusht (Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"), Bahrom va boshqa shu kabilar.

Bahrom yodgorliklarda ko'p uchraydigan an'anaviy ismlardan biridir. Bizningcha, bu ismning keng tarqalishiga hamda xukmdorlarga xoslanganligiga nomning tarixiy ma'nosiga asos bo'lgan: qadimiy eroniy xalqlar urush va qahramonlik xudosini Veretragna (Varaxran) nomi bilan atashgan'. "Avesto"da esa Veretra shaytonning nomi ekanligi qayd etilgan. Yovuz shaytondan xalos bo'lish, uni quvish maksadida uning ismigagina (rus tilidagi tat) ko'shilib, Veretragna ("yovuz shayton Veretrani quvuchi") ismi yuzaga kelgan. Keyinchalik bu ism fonetik o'zgarishga uchrab Baxromga aylangan: Veretrasha – Varaxna – Varaxran – Vaxran – Baxrom. Demak, Baxromning lug'aviy ma'nosi "yovuz iblis Veretraning ruxini quvuchi" dir, ammo u eroniy xukmdorlar ismiga aylangach "g'olib", "qo'rqmas" ma'nosini ifodalagan. Bu ma'lumotlar esa antroponimni magik qarashlar bilan bog'liq motivlanganligini ko'rsatadi.

³⁴ Турдиматов Ш. "Гўрўғли" эпосида Райхон араб образи. О'zbek tili va adabiyoti 2011. 2-son 17-bet

Xalq og‘zaki ijodidagi “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi “Malikai ayyor” dostonida magik antroponimlarning bir nechasi mavjud. Masalan; Baymoqdev, Qizildev, Oqdev va boshqalar.

“Devlar osmonga ko‘tarilib, uchib ketdi. Devlarning ko‘tarilib ketganini Shoqalandar bilib, chiqib qarasa, devlardan hechkim qolmapti, bolani ham olib ketibdi”³⁵

Yuqoridagi misoldan ko‘rinadiki, unda tasvirlanayotgan holat insonga xos emas. Asarda bu holat, ya‘ni magik antroponimlar vositasi yordamida qahramonning ojizligi tasvirlangan. Chunki yuqorida ko‘rib o‘tganimiz, normal insonning imkoniyat darajasidan yiroqdir.

Bundan tashqari asarda Shozargar antroponimi ham uchraydi. Shozargar antroponimini magik motivatsiyasi asarda juda aniq berilgan bir o‘rin mavjud. Avazjon va Shoqalandar Malikani olib qochayotganlarida Shozargar Malikaning uzugi qiyofasiga kirib, otning iziga kirib oladi. Buni ko‘rgan Oqdevshoh uzuk (Shozargar)ni o‘zi bilan olib ketadi. Oqdevshoh qizi Tillaqiz uzukni berib ketgandan so‘ng “uzuk”ning asli kimligi ma‘lum bo‘ladi.

Maloyik suratli, gulyuzli dilbar

Yuzuk bo‘lib senga kelgan Shozargar

Ko‘rinadiki, bu o‘rinda Shozargar antroponimining magik motivatsiyasi mavjud va keyingi holatlar bu fikrni to‘ldiradi. Ya‘ni ushbu voqeaning davomida Tillaqiz to‘qson usta devga quti yasatib, uzukni eng kichik qutiga solib: “To‘qsonta qutini ichkima-ichki qilib, bir-biriga kiydiradi, o‘rab-chirmab, mahkamlab qo‘ydi. Shunda Shozargar bir tilsimot bilan bir sichqon bo‘lib, to‘qson qutini teshib, qulog‘i qamishday bo‘lib chiqdi. Kanizlar buni ko‘rib: “Bu sehgarmi, jodugarmi?” deb o‘rtaga olib qoldi. Sichqon yana bir ag‘anab, uzuk bo‘lib qoldi”.

Har biri bir xislatga ega bo‘lgan kanizlarni, devning qizi bo‘lgan Tillaqizni ham ajablantira olgan Shozargar antroponimining magik motivatsiyasi yuqori darajada tasvirlangan. Chunki devning qizi bo‘lganligi uchun Tillaqiz antroponimining o‘zi ham magik xususiyatga ega antroponimdir. Shozargar

³⁵Qosimov B. To‘xliyev B. Yo‘ldashev Q. 10-sinf adabiyot T.; O‘qituvchi. 2004. 55-bet

antroponimining magik-motivatsion xususiyati shu darajada yuqoriki, dastlab uzukka, so'ng sichqonga va yana uzukka aylana olgan. Har ikki holatga o'zgarganda ham Shozargar antroponimi shaxslar bilan bimalol suhbatlasha oladi. Aynan shuning o'zi ham antroponimlar o'rtasidagi magik motivatsiyani yuzaga keltirgan.

Rustam antroponimi ham magik qarashlar bilan yo'g'rilgandir. Chunki ushbu antroponim "Rustamxon" dostoni qahramoni sifatida, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida ham insonga xos bo'lmagan, insonlarning qo'lidan kelmaydigan juda ko'p ishlarni qila oladigan qahramon sifatida tasvirlangan. E.Begmatov "O'zbek ismlari" nomli kitobida Rustam antroponimini quydagicha izohlaydi. "Rustam (pahl.) – "Avesto"dagi Raodastan so'zidan yasalgan bo'lib, ulkan gavdali, qudratli dovyurak, bahodir. Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostonidagi Zol o'g'lining ismi"³⁶. Bunday xususiyatlar va tariflar ismning magik qarashlar bilan bog'lik ekanligini isbotlaydi.

Mashrab antroponimi ham xalq tilida aytilganidek, onasining qornidaligida yig'lashidir. "Qissai Mashrab" asarida keltirilishicha esa Boborahim Mashrab ham shunday tug'ilgan. Bundan tashqari, Mashrab suv ostiga sho'ng'iydi. Bu holatdan onasi xabar topib, ko'l yoniga keladi. Suv ostida turgan Mashrab bilan uning onasi bir-biriga g'azal aytadi. Shuncha payt davomida Mashrab suv ostida bo'ladi, bu xususiyat esa Mashrab antroponimini magik qarashlar bilan bog'liq motivlanishidir.

Bundan tashqari, antroponimlar faqatgina kontekstda bajargan vazifasiga qarab, asta-sekinlik bilan xuddi shu tipdagi antroponimlar safiga qo'shilib boradi. Bunday antroponimlar, avvalo, badiiy asarda keltirilib, keyinchalik xalq tiliga ham o'sha ma'noda ko'chib o'tadi. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridagi Hoshimjon obrazini ham shaklini o'zi istagan ko'rinishiga o'zgartira olish xususiyatlari antroponimning magik qarashlar bilan bog'liq motivalanishidir. Masalan: asar qahramoni Hoshimjon qalpoqni topib olgandan keyin undan o'zi hohlagan barcha ishlarda foydalanadi. Qalpoqni kiyib olgandan

³⁶Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2010. 354-бет.

keyin, ko'zga ko'rinmas bo'lib olish va buning natijasida dastlab oilasini, maktab jamoasini, internatdagi unga hujum qilgan o'quvchilarni chuv tushiradi. Bundan tashqari u o'ziga kerak bo'lganda bo'yini ham o'zgartira oladi. Bu asarda muallif Hoshimjon antroponimini magik xususiyatini tasvirlashda obraz darajasidagi qalpoq detalidan samarali foydalangan. Adabiyotshunoslikda bunday mazmundagi asarlar sarguzasht yoki fantastik asarlar deb yuritiladi.

Til jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida jamiyat tarixi bilan uzviy aloqada bo'lib, jamiyatda ro'y bergan har bir o'zgarish uning tilida muayyan iz qoldiradi. Shuning uchun ham jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga keladi. Ayni paytda ma'lum lingvistik faktorlarni tarixiy materiallarga suyanmasdan turib izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu esa jamiyat tarixi bilan shu jamiyat tili va ularni o'rganuvchi tarix, adabiyot fani bilan tilshunoslik fanining naqadar aloqador ekanligini ko'rsatadi³⁷. Shuning uchun nomlar, xususan, joy nomlari, urug'-qabila nomlari, atoqli otlar bilan bog'liq ma'lumotlarni chuqur o'rganish, ularni umumlashtirish, taksonomiyaga solish va kerakli xulosalar chiqarish masalasi bilan olimlar qadim zamonlardan buyon qiziqib kelganlar.

Turkiy urug' va qabilalar, shuningdek, O'rta Osiyo hududida o'tmishda yashagan boshqa etnoslarning hamda shu urug' va qabilalarning kishi nomlariga oid manbalar asosida O'zbekistonda mavjud ayrim joy nomlari va antroponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish, yozilishiga e'tibor qaratish, etnonimlarni etimologik tahlil qilish ishlari Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk", Abulg'ozil Bahodirxonning "Shajarai turk", Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarida, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida, shuningdek, fors tilida bitilgan "Abulxayrnoma", "Abdullanoma", "Tarixi Muqumxon", "Tarixi Salotin mang'itta", "Tarixi Abulfayzxon" nomli tarixiy manbalarda, qolaversa, Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklari devonida bitilgan rasmiy hujjatlarda saqlanib qolgan.

³⁷ Нурмонов. А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 72.

Bu asarlar o'zbek millati va qabilalari nomi hamda ular asosida yasalgan antroponilarini o'rganishda muhim manbaa hisoblanadi. Chunki ushbu allomalar o'z zamonasidagi joy nomlari, antroponilarning izohi va tarixini, lug'aviy manosini to'g'ri tahlil qilish va yozilishiga katta e'tibor berganlar. Bunday ma'lumotlar Beruniy tomonidan yozilgan "Kitob as-saydana fi-t-tibb",³⁸ nomli kitob, Alisher Navoiyning "Xamsa" va boshqa asarlarida keng izohlangan.

O'zbek antroponimlari tarixan o'rganish xx asr ikkinchi yarmidan yanada rivojlana boshladi. E.Begmatovning "Antroponimiyadagi qadimiy turkiy elementlar" maqolasidan so'ng muallifining qadimiy turkiy yodnomalaridagi antroponimlarga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilindi. Shuningdek, taniqli Navoiyshunos olimlar Alibek Rustamov va Bahrom Vafoevlar ham o'z ishlarida ba'zi ismlarining ma'no xususiyatlariga to'xtalib o'tdilar. Sh.Yoqubovning "Navoiy asarlari onomastikasi" nomli tadqiqotida ham bir qator ismlar diaxronik planda tahlil qilindi.

Antroponimlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri "Tarixiy antroponimlar" tushunchasini aniqlashtirish va tarixiy nomlar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasidir. Bunday nomlar tilda paydo bo'lish davri va xolatiga ko'ra tarixiy bo'lsa-da, qo'llanishi, hayotiylikiga ko'ra zamonaviy hamdir. Demak, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi Ulug'bek, Tangriberdi, O'lmas, Temur, Chingiz kabi ismlar qadimiy va tarixiy, shuningdek, zamonaviy hamdir. Tarixiy antroponimlar ma'lum tarixiy yozma manbalarda yoki folklor asarida uchrashi bilan xarakterlanadi. Yodnomalarda qayd etilgan antroponimlarning hozirda ishlatilmasligi ularni unutilgan, "o'lik" ismlar qatoriga kiritadi. Antroponimlar turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbek antroponimlarini tarixiy yodnomalardagi xususiyatlariga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

³⁸ Абу Райхон Беруний. Фармакогенези в медицине (Китаб ас-сайдана фи-т-тибб) / Исследование, перевод и указатели У.И.Каримова. Избранные произведения. Т.IV. – Ташкент, 1973.

1. Umumturkiy davrga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (6-14 asrlar)
2. Eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (15 asr va keyingi davrlar)

Antroponimlarni tahlil qilishda bag'ishlov ismlar ham alohida o'rin tutadi. Chunki bag'ishlov ismlarning yuzaga kelishi qadimiy tarix bilan bog'liq bo'lib, u ma'lum bir xalqning e'tiqodi va ishonchi, magik qarashlariga borib taqaladi. Bu borada tadqiqot olib borgan Sabohat Kenjaeva bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida yozilgan maqolasida o'zbek antroponimiyasining o'ziga xos guruhlari mavjud bo'lib, ularning quyidagilaridan keng foydalaniladi deb yozar ekan ularni uchga bo'ladi:

- 1) ism bag'ishlovlar (memorativlar);
- 2) tasviriy ismlar (deskriptivlar);
- 3) ism-istaklar (dezirativlar)³⁹. Kabi.

Uning fikricha ism bag'ishlovlarning yaratilishi o'zbek onomastikasining qadimgi usullaridan biri hisoblanadi. Chunki o'zbek xalqi, balki butun dunyo xalqlari ham, qadim tarixdan to bugungi kungacha turli xil dinlarga, xudolarga, totemistik, fetishizm va ko'plab urf-odatlariga amal qilgan. Bunday diniy manbalarga ishonish, ularga bo'lgan hurmat o'zbek antroponimiyasida hozirgacha saqlanib qolgan. Tarixdan farzandli bo'lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ehsoni deb tushunish natijasida chaqaloqqa o'zlari ishongan iloh, e'tiqod etgan narsalar nomi bilan bog'liq tushunchalar ism qilib berilishi natijasida bag'ishlov ismlari paydo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham ism berilishida bunday ishonch va e'tiqodlar muhim o'rin egallaydi. Farzand ota-ona uchun Xudo tomonidan in'om etilgan buyuk ne'mat deb qaraladi.

Farzandga ism qo'yilishida nominatorlar tomonidan farzandni tug'ilguncha bo'lgan niyatlari, istaklari, ijtimoiy muhitni, etnik kelib chiqishni, farzand dunyoga kelgandagi ijtimoiy-jismoniy holatlarni va boshqalarni inobatga olgan holda turli lug'aviy ma'nodagi ismlar qo'yiladi. Masalan, farzand Xudoning bergan ne'mati

³⁹ Kenjaeva S. Baғiшлов ismlarining bir guruhi haqida. O'zbek tili va adabiyoti. 2011. 2-son. 91-bet

deb bilgan nominatorlar Xudoberdi, Olloberdi, Tangriqul, Xudoyor kabi ismlar qo'yadi. Bundan tashqari, bag'ishlov ismlar nominatorning bola tug'ilishiga munosabat motivi asosida ham bir nechta turlarga bo'lingan. Bolaga ism ba'zi hollarda uning kelib chiqishi, etnonimi, urug' va qabila nomlariga nisbatan berish orqali berilgan. Bunday nom berishda xalqimizning "bola yetti avlodini (shajarasini) bilishi" muhimligi haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Bunday etnonimlardan yasalgan ismlar etnoantropnimlar deb yuritiladi⁴⁰. Ism bag'ishlovlarning bir guruhi esa sulola, tabaqa, mansab va unvonlar nomiga nisbat berish orqali ham yasalgan. Bundan ko'rinadiki, bolaning tug'ilishiga turlicha munosabatlarning ifodasi sifatida yaralgan ismlarga xos motivlar o'zbek xalqining milliy va umumbashariy qadiryatlari bilan bog'liq. Etnik mansublik o'tmish ajdodlarining e'zozlash bilan bog'liq motivli ismlar o'zbek antropnimlarining ibtidoiy davrga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan.

Ilmiy tafakkur tarzi insoniyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Har qanday taraqqiyot unga suyanadi va uning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Biroq, rivojlanish bosqichlarida, insoniyat ilmiy tafakkur tarziga yetib kelgunga qadar mifologik, diniy, falsafiy tafakkur tarzini bosib o'tgan. Rivojlanish bosqichlaridagi har bir qadam (mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash) insoniyatning tafakkur tarzida o'z izini qoldirgan. Bu jarayonni har bir sohada bo'lgani kabi antropnimlarda ham kuzatish mumkin. Hatto, antropnimlarda tafakkur tarzidagi bu uzoq taraqqiyot yo'li boshqa sohalarga qaraganda chuqurroq o'z izini qoldirgan. Antropnimlardagi mifologik dunyoqarash izlari magik qarashlar bilan bog'liq motivlarda o'z aksini topgan. Diniy dunyoqarash bilan bog'liq tafakkur tarzi esa antropnimlarda diniy motivatsiya bilan bog'liq holda aks etgan.

O'zbek antropnimlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ismlar, barcha turkiy xalqlarda bo'lgani kabi, dastlab tabiat hodisalari bilan bog'liq holda magik motivlar (mifologik dunyoqarash) asosida tanlangan. Keyinchalik diniy dunyoqarashning yuzaga kelishi esa diniy motivatsiya bilan bog'liq ismlar

⁴⁰ Бегматов Э. Улуков Н. Ўзбек ономастикаси (библиографик кўрсаткич). 2008. 134-145-бетлар

tanlanishiga olib kelgan. Bu xalqning e'tiqodi bilan bog'liq holda rivojlangan. Islom dini va Qur'oni Karim ta'sirida yaratilgan adabiy yodgorliklar esa bu jarayonning kengayishiga kuchli turtki bergan.

O'zbek xalqi tarixda zardushtiylik, buddaviylik va islom dinlariga e'tiqod qilgan. Bu esa xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzida o'z izini qoldirgan. Bu o'z navbatida antroponimlarda aks etgan. Xalq e'tiqodida eng so'nggi din sifatida islom dini alohida o'rin tutadi. Shuning uchun antroponimlarda islom dini bilan bog'liq motivatsiya keng o'rin tutadi.

Ma'lumki, islomda har bir ish Olloh nomi bilan boshlanadi. Adabiy yodgorliklarda Olloh so'zi hamda 99 ismdan iborat "Asmai xusna" (go'zal ismlar) ko'p va takror qo'llanilgan. Ammo Ollohning sifatlarini aks ettiruvchi "Asmoi xusna" bo'yicha ma'lum ishlar qilinganligi hamda ular nomshunoslikning teonimlar guruhiga mansubdir. Tadqiqotda diniy antroponimlar o'z navbatida quyidagicha guruhlariga ajratilgan holda tahlil kilindi:

1. Allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar;
2. payg'ambarlarning ismlari, Muhammad (sav) ning ajdod-avlodlari, xalifalar va boshqa diniy tushuncha bilan aloqador antroponimlar.

Bu paradigma ham o'z navbatida ichki bo'linishlarga ega:

a) Allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar: Abdurahmon (ar. – o'ta mehribon va mehrlini quli, ya'ni Xudoning quli), Abdusalom (ar. – Balo- ofatlardan salomatning, yoki balo- ofatlardan salomat saqlovchining, ya'ni Ollohning quli), Abdusattor (ar. – kechiruvchining va himoya qiluvchining, ya'ni Ollohning quli), Hamidulla (ar. – Allohning madhu sanosi; maqtovi; shonu-shavkati yoki Allohning maqtoviga loyiq bandasi), ar-Rahmon (O'ta mehribon), al-Malik (Podishoh), al-Xoliq (Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi), al-Basir (Hamma mahfiy va oshkora narsalarni ko'ruvchi), al-Karim (Karamli, sahovatli, kechirimli), al-Jalil (barcha sifatleri mukammal, ulug' zot), al-Bois (payg'ambarlar yuboruvchi, o'lgandan keyin qayta

tiriltiruvchi), ar-Rashid (barcha ish va tadbirlari to‘g‘ri chiquvchi) va b⁴¹ (bundan keyin faqat muallifning nomi va kitob sahifasi ko‘rsatiladi).

Yuqoridagi antroponimlar hozirgi kunda ma’lum o‘zgarishlar bilan o‘zbek antroponimlarini boyitadi. Bunda Ollohning nomlariga Abdu-, -bek, -jon, -berdi va boshqa antroponimlarning xosil qilishda ishtirok etuvchi morfemalarni qo‘shish orqali yangi ismlar (antroponimlar) hosil qilinadi. Ya’ni hozirda qo‘yilayotgan Abdurashid, Abdumalik, Jalilbek, Karimberdi va boshqa antroponimlar uchun Ollohning nomlari, nominatorning diniy qarashlari motiv vazifasini bajaradi. Dastlab bunday antroponimlarning bolaga qo‘yilishida ota-onaning diniy qarashlari yetakchi motiv bo‘lgan bo‘lsa, davrlar o‘tishi bilan bu antroponimlarning alloxning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar asl ma’nosidan uzoqlashib, bunday ism qo‘yish milliy an’ana tusini olgan.

b) Payg‘ambarlarning nomlari va sifatlarini bildiruvchi so‘zlardan yasalgan ismlar: Muhammad(s.a.v), Idris (qad.yah. – aynan: “o‘quvchi, o‘rganuvchi”, tirishqoq, bilimdon. Idris payg‘ambar o‘qishda tirishqoqligi tufayli mana shunday nom (laqab) olgan) (O‘sha asar, 161-bet), Ibrohim (qad.yah. – “Bibliya”dagi Abraam ismining arabcha shakli bo‘lib, “xalqlar otasi” ma’nosini anglatadi. Rivoyatlarga ko‘ra, Ibrohimning Is’hoq va Ismoil degan o‘g‘illari bo‘lgan. Is’hoqdan yahudiylar, Ismoildan esa arablar tarqalgan) (O‘sha asar, 160-bet), Iso (qad. Yah. – Allohning tuhfası, ehsoni; lutf-u karami; Allohning ko‘magi yoki Allohning yaqini. Iso – qad.yah. Jexogua, Isus (Xristos) nomining arabcha shaklidir) (O‘sha asar, 172-bet), Ya‘qub (yah. – o‘kcha, tovon, izidan boruvchi, ergashuvchi. Bibliyadagi afsonaga ko‘ra, egizak bola tug‘ilgan bo‘lib, ikkinchisi birinchi tug‘ilgan akasidan qolib ketmaslik uchun uning tovonidan ushlab yurgan emish. Bu nom payg‘ambarlardan biri ismi (Yakov)ning arabcha shaklidir) (O‘sha asar, 527-bet), Muso, Yunus; Ahmad (ar. – Allohga ko‘p hamdu-sanolar aytuvchi kishi yoki maqtovga, olqishga sazovor. Bu nom Muhammad(s.a.v)ning sifatlaridan biridir) (O‘sha asar, 41-bet), Xamid, Maxmud, Rasul, Nabi (y), Komil, Xabibulla,

⁴¹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 8-11-бет.

Xabib, Najibulla, Bashir (ar. – xushxabar keltiruvchi; baxt-saodat elchisi. Bashir – Muhammad(s.a.v)ning sifatlaridan biridir) (O‘sha asar, 50-bet), Mubojir va b.

Payg‘ambar leksemasi fors-tojik tilida yasama so‘z xisoblanadi. Uning birinchi qismi “p a y g ‘ a m” (ft.) – “x a b a r” ma’nosini, ikkinchi komponenti - “bar” (eltmoq fe’lining hozirgi zamon asosi) dan iboratdir. Diniy adabiyotlarda, xususan, Qur’oni Karim va hadislarda “payg‘ambar” ma’nosida nabi va rasul so‘zlari ishlatilgan. Har ikkala so‘z ham arabcha bo‘lib, nabi - “ilohiy xabar keltiruvchi, xabarchi”; “rasul” - “elchi, Ollohning elchisi” ma’nolarini bildiradi. Ba’zi tarixiy lug‘atlarda “rasul” ilohiy kitob sohiblariga nisbatan ham ishlatilgan. Hozirda bu leksemaga -qul (motivlovchi⁴²) morfemasini qo‘shish orqali yangi Payg‘ambarqul antroponimini yasaladi. Bu antroponim semantikasi quydagicha izohlanadi: Payg‘ambarqul (ft.) – xabar beruvchining, ogoh qiluvchining quli, kishilarni din yo‘liga soluvchining quli. (O‘sha asar, 336-bet)

Diniy va ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha Odam Ato yer yuziga yuborilgan birinchi payg‘ambardir. Odam atamasi qadimiy suryoniycha Adam (qizil tuproq) so‘zidan olingan. “Odam” so‘zining turli adabiyotlar va tarixiy lug‘atlardagi izohlaridan ma’lum bo‘lishicha, u yodgorliklarda quyidagi ma’nolarni ifodlagan:

- 1) Odam Ato;
- 2) inson, odam;
- 3) qora loydan yaratilgan birinchi odam;
- 4) tuproqdan yaratilgan inson;
- 5) qizil tuproq; bug‘doy rang;
- 7) yerning ustki kismi, po‘sti - (aadim)⁴³.

Manbalarda Nuh nomi ko‘p uchraydi. Nosiriddin Rabg‘uziy bu payg‘ambarni Idris avlodidan kelib chiqqan deb ko‘rsatadi: “Nuh ibn Malik Manusalh ibn Idris. Onasi oti Shamxo binni Anursh erdi. Nuhdin Odamga tegi un ota erdilar,

⁴² Nurmonov A. “Tanlangan asarlar” III jild, T., “Akademnashr”, 2012-yil, 165-bet.

⁴³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 306-бет

qamuglari musulmon erdilar. Oti Yashkir erdi, navxa birla yig‘lamish uchun Nuh atandi” (Rabg‘uzny, 139). “Navxa bilan yiglash” un tovush chiqarib yig‘lash yoki mungli yig‘lash demakdir. Ba’zi lug‘at, va ilmiy adabiyotlarda Nuhning qadimiy yaxudiycha Noy so‘zidan kelib chiqqanligi ko‘rsatilgan. Tavrotning birinchi kitobi “Ibtido”da Nuhning ismi hakida shunday deyiladi: “Lamak bir yuz sakson ikki yoshida bir o‘g‘il ko‘rdi. Lamak: “Xudovand la‘nat etgan yerni ishlaganda qullarimiz chekadigan mashaqqatlarga shu yupanchiq bo‘lsin”, - deb o‘g‘lining ismini Nuh . (ya’ni Yupanchiq) qo‘ydi” Bizningcha, Nuh (Noy) “yupatuvchi” ma’nosini anglatishi haqiqatga to‘g‘ri keladi, Chunki Nuh (Noy) manbalarda yaxudiy payg‘ambar sifatida talqin etiladi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Nuh ismini qo‘yishda, albatta payg‘ambardek uzoq umr ko‘rishini istaydi.

Yusuf Ya‘qub payg‘ambarning o‘n birinchi o‘g‘li bo‘lib, eng ko‘p uchraydigan ism hisoblanadi. Diniy adabiyotlardagi Yusuf haqidagi qissa “Tavrot” orqali G‘arb, Qur‘oni Karim orqali Sharq, adabiyotlariga yoyiladi”⁴⁴. Durbek va boshqa shoirlarning “Yusuf va Zulayxo” ismli dostonlar, qissalar yaratishlariga asos bo‘ldi. Diniy va badiiy asarlarda Yusufning chiroyi, sabr-toqati, kamtarinligi va Ollohga sadokati keng aks ettiriladi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Yusuf ismini qo‘yishda, albatta, ana shu payg‘ambardek chiroyli, Ollohga sadoqatli bo‘lishini orzu qiladi.

Manbalarda Ayyub ibodat va sabr kiluvchi payg‘ambar sifatida talqin qilinadi. Shu xususiyati uchun Ayyub “sabr” laqabiga sazovor bo‘ladi (O‘sha asar, 389-bet). Bu so‘z keyinchalik kishi ismiga aylanadi (Sabr-Sobir). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi.

⁴⁴ Карсмагов Х- Куръон ва узбек адабиёти. Тошкент: Фан, 1993, 64-бет. Пиотровский М Б Кораничесюч: сказание-Москва: Наука. 1991. -С 126.

Biroq Sobir ismini qo'yishda, so'zning lug'aviy ma'nosi ko'proq motiv bo'lib qoladi.

Muso yahudiylar payg'ambari nomi diniy adabiyotlarda, xususan, Qur'oni Karimda tasvirlanishicha, munajjimlar Fir'avnga: "Sening mulku Davlating Bani Isroil qavmidan tug'iladigan bir bola qo'lida harob bo'ladi", – deyishgach, u o'sha qavmdan dunyoga kelgan har bir o'g'il bolani qatl qilishga buyruq beradi. Muso tug'ilgach, onasiga g'oyibdan farmon keladi va u chaqalog'ini avaylab sandiqqa solib, Nil daryosiga qo'yib yuboradi. Daryo sohilida o'tirgan Fir'avnning xotini sandiqni ko'rib qoladi va odamlariga uni daryodan olib chiqishni buyuradi. Sandiqdagi chaqaloqni Fir'avniing xotini o'ziga farzand qilib oladi va unga "Moshe" deb ism qo'yadi. A Navoiy "Tarixi anbiyo xukamo" da bu voqeani tasvirlab yozadi: Osiya anga Muso ot qo'ydiki, ibriy tili bilan ma'nisi sarv daraxtdur . Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg'ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Muso ismini qo'yishda, albatta ana shu payg'ambardek yaashovchan, sarv daraxtiday tik qomatli bo'lishini va Muso payg'ambari o'z panohida asrashini istab qo'yiladi.

Ilyos kishilarni "xavf-xatardan asrovchi" payg'ambar sifatida ko'rsatilgan. Lug'atlarda Ilyos qadimiy ibriycha "Iliya" so'zidan olinganligi hamda "mening tangrim" "tangrining qudrati, kuchi" kabi ma'nolarni anglatishi qayd etilgan. Ilyos (qad.yah.) – Allohning kuchi, qudrati yoki xalqlarning sevimlisi, kishilar qadrllovchi, e'zozlovchi odam. Obihayot ichib Xizr kabi mangu tirik deb faraz qilinadigan payg'ambarning nomi. Quruqda Xizr bo'lsa, suvlikda Ilyos kishilarning madadkori, hamrohi deb hisoblandi (O'sha asar, 163-bet). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi fikrlar va bu antroponim payg'ambarning ismi ekanligi, motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Ilyos ismini qo'yishda, albatta ana shu payg'ambardek sevimli, insonlarga yordam beruvchi bo'lishini va Ilyos payg'ambari o'z panohida asrashini istab qo'yishadi.

Yahyo payg‘ambarning nomi. Bu ism qadimiy ibriy tilida “hammadan buyuk” ma’nosini anglatadi. Yahyo (yah.) – o‘ta sahiy, muruvvatli, ochiq qo‘l; yashovchi, barhayot, hayotiy yoki xushxulq, insonga do‘st (O‘sha asar, 527-bet). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida nominatorlar uchun yuqoridagi shu nomning ma’nolari va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Yahyo ismini qo‘yishda, albatta ana shu payg‘ambardek sahiy, yashovchan, insonlarga do‘st bo‘lishini va Yahyo payg‘ambari o‘z panohida asrashini istab qo‘yishadi.

Iso diniy va ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra u qadimiy yahudiycha bo‘lib, “Xudoning marhamati”, “qutqaruvchi xudovand” ma’nolarini anglatadi. Iso (qad.yah.) – Allohning tuhfası, ehsoni; lutfu karami; Allohning ko‘magi yoki Allohning yaqini (O‘sha asar, 172-bet) kabi ma’nolari mavjud. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo‘yilishida antroponimni shakllantruvchi morfemalar qo‘shish orqali o‘zgarishlarga uchragan, lekin nominatorlar uchun shu nomning ma’nolari, morfemalar anglatgan ma’nolari va bu antroponim payg‘ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o‘taydi. Chunki nominatorlar Iso, Isoberdi, Isomiddin ismlarini qo‘yishda, albatta ana shu payg‘ambardek sahiy, yashovchan, insonlarga do‘st, Isodek dinni suyanchi bo‘lishini va Iso payg‘ambari o‘z panohida asrashini istab qo‘yishadi.

Muhammad(sav) payg‘abarining nomi. Bu antroponim bilan birga Ahmad, Mahmud, Hamid ismlari ham qo‘llaniladi. Bu to‘rtala ism ham “rahmat aytmoq” “maqtamoq” ma’nolaridagi arabcha “hamada” so‘zidan kelib chiqqan. O‘zakdoshlik asosida yasalgan bu ismlar ma’no jihatdan qisman farqlansa ham, lekin keyingi uchta ism Muhammad(sav)ning sifatlari ekanligini qayd etish lozim: Muhammad(sav) (ar.) – maqtovga, olqishga sazovor (O‘sha asar, 266-bet); Mahmud (ar.) – maqtalgan, maqtovga sazovor, dongdor, atoqli, Muhammad(sav)ning sifatlaridan biri (O‘sha asar, 336-bet); Ahmad (ar.) – Allohga ko‘p hamd-u sanolar aytuvchi kishi yoki maqtovga, olqishga sazovor (O‘sha asar, 41-bet); Hamid (ar.) – maqtovchi, madh qiluvchi, Allohga hamd-u sano aytuvchi, shukur qiluvchi yoki hamd – issiq, qaynoq (O‘sha asar, 570-bet).

Bu antroponimlarni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma'nolari va bu antroponim payg'ambarning ismi ekanligi motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Muhammad(sav), Ahmad, Mahmud, Hamid ismlarini qo'yishda, albatta ana shu payg'ambardek sahiy, insonlarga do'st, Muhammad(sav)dek dinni suyanchi bo'lishini va Muhammad(sav) payg'ambari o'z panohida asrashini istab qo'yishadi.

g) Muhammad(sav)ning qarindosh-urug'lari ismi motiv qilib olingan antroponimlar. Muhammad (sav) ning hayoti va faoliyati bilan bog'liq nomlar diniy, badiiy, tarixiy adabiyotlarda ko'p uchraydi. Muhammad(sav)ning qarindosh-urug'lari ismlarning asosiy qismi hozir ham faol ishlatilayotganligi sababli, ularning lug'aviy manolarini ko'rsatib o'tish alohida ahamiyatga ega: Abdulloh (Muhammad(sav) ning otasi) - "tangrining quli" ma'nosini ifodalaydi; Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav) ning otasi va bu antroponim Ollohning quli ekanligi motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Abdulloh ismini qo'yishda Ollohga sidqidildan hizmat qilishi va Ollohning o'z panohida asrashini istab qo'yishadi.

Amina/Omina (Muhammad(sav)ning onasi) (ar.) – himoya qilingan, havf-hatardan holi, omonlikda saqlanuvchi (O'sha asar, 322-bet). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav) ning onasi ekanligi motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Omina ismini qo'yishda Muhammad (sav) ning onasi kabi inson bo'lishini istab qo'yishadi.

Halima (Muhammad(sav)ni emizgan ayol) (ar.) – muloyim, mehribon, rahimdil, mehrlil, shafqatli (O'sha asar, 569-bet). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav) ning onasi qatori ekanligi va yuqoridagi ma'nolari motiv vazifasini o'taydi.

Abbos (Muhammad (sav) ning tog'asi) (ar.) – dovyuurak, jangavar (O'sha asar, 336-bet) kabi ma'nolarni bildiradi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun Muhammad(sav) ning tog'asi va bu antroponim yuqoridagi ma'nolari motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Abbas ismini qo'yishda farzandini dovyurak, jangavar bo'lishini istab qo'yishadi.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad (sav) ning 4 qizi va 4 o'g'li bo'lganligi qayd etilgan. Fotima Muhammad (sav) ning kenja qizi bo'lib, avlodlari u orqali tarqalgan. Fotima ismi arabcha: “ona ko'krigidan ajratilgan” (O'sha asar, 458-bet) degan ma'noni bildiradi. Fotima Aliga turmushga chiqqach, Zaxro (tangrining nuri) unvoniga sazovor bo'ladi. Keyinchalik bu unvon Fotimai Zaxroga aylanadi va Zahro, Zuhra ismlarining yuzaga kelishiga sabab buladi. Zuhra (ar.) – nur, yorqin, ravshan, Cho'lpon yuulduzi, Fotimani sifatidir (O'sha asar, 159-bet). Bu antroponimlarni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun Muhammad (sav) ning qizi, Hazrat Alining rafiqasiligidan tashqari, farzandalari egizak tug'ilganda qo'yiladi va bu xususiyatlar motiv vazifasini o'taydi.

d)Xalifalar, sahobalar, aziz-avliyolarning nomlari motiv qilib olingan nomlar. Bular Muhammad(sav)dan so'ng davlatni boshqarganlarning ismlari bo'lib, ular Muhammad(sav) payg'ambarning diniy va dunyoviy o'rinbosarlari hisoblangan. Muhammad(sav) payg'ambardan keyingi to'rt xalifa – o'rinbosar (choryor), ummaviy “xalifalar” - “podshox,” “abbosiy” xalifalar “imom” deb atalgan.

Abu Bakr Muhammad(sav) vafotidan keyin hokimiyatni boshqargan birinchi xalifa. Bu ism ma'nosi adabiyotlarda turlicha izoxlanadi: “yosh tuyay, butaloq” (G'afurov, 131); A.Irisov fikricha, “Abu Bakr aslida payg'ambarimiz bilan ilk suhbat qurganlardan biri bo'lib, tonggi namozni doimo u kishi bilan birga bajo keltirgani uchun Abu Bakr (Tong otasi) deb ataladi. Bizningcha, ism arabcha bakrdan kelib chikkan: bakr - butaloq (ARS.540). Tilshunos olim E.Begmatov esa quydagicha fikr bildiradi: Abubakr/Abubakir (ar.) – aynan: “bo'taloqning otasi” yoki ayibsiz, gunohsizning, rostgo'yning otasi. Ba'zilar Abubakr ismi “Tong otasi” deb izohlaydi. Muhammad(sav)(sav) bilan birga namoz o'qigani uchun Bakr ushbu laqabni olgan (O'sha asar, 20-bet). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma'nolari va bu antroponim payg'ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv vazifasini o'taydi.

Chunki nominatorlar Bakir ismini qo'yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo'yishadi.

Umar - xalifalik taxtiga o'tirgan ikkinchi choryor. Bu ism arabcha "amr" "yashovchi" (ARS,540) so'zdan olingan. Umar yaxshini yomondan, haqni nohaqdan ajratish qobilyatiga ega bo'lgani uchun ham Farq ya'ni farq qiluvchi, ayiruvchi degan nomga sazovor bo'lgan. Ba'zi manbalarda "ziyoratchi, hoji" deb talqin qilinadi (O'sha asar, 445-bet). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma'nolari va bu antroponim payg'ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Umar ismini qo'yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo'yishadi.

Usmon – ummaviylar guruhiga mansub uchinchi xalifa. Usmon ham arabcha bo'lib, "siniqchi" (suyaklarni bitkazuvchi) degan ma'noni anglatadi. Rukaya va Ummu Kulsumga uylangani uchun "Zunnurayn" (Rabg'uziy, 2, 133) deb atashgan. Zunnurayn "ikki nur sohibi" degan ma'noni anglatadi. Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma'nolari va bu antroponim payg'ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Usmon ismini qo'yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo'yishadi.

Ali – to'rtinchi xalifa "oliy, buyuk" ma'nolarini anglatadi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ismni Ali bo'lsin deb payg'ambarimiz tanlagan ekanlar" (Choryor, 48). Bu antroponimni hozirgi kunda shaxsga qo'yilishida nominatorlar uchun shu nomning ma'nolari va bu antroponim payg'ambarning sahobalaridan biri ekanligi motiv vazifasini o'taydi. Chunki nominatorlar Ali ismini qo'yishda, albatta, ana shunday baxtga erishishini istab qo'yishadi.

b) Eponim va antroponimlarda tarixiylik bilan bog'liq motivatsiya

Til jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida jamiyat tarixi bilan uzviy aloqada bo'lib, jamiyatda ro'y bergan har bir o'zgarish uning tilida muayyan iz qoldiradi. Shuning uchun ham jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda

tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga keladi. Ayni paytda ma'lum lingvistik faktorlarni tarixiy materiallarga suyanmasdan turib izohlash yetarli bo'lmaydi. Bu esa jamiyat tarixi bilan shu jamiyat tili va ularni o'rganuvchi tarix, adabiyot fani bilan tilshunoslik fanining naqadar aloqador ekanligini ko'rsatadi⁴⁵. Shuning uchun nomlar, xususan, joy nomlari, urug'-qabila nomlari, atoqli otlar bilan bog'liq ma'lumotlarni chuqur o'rganish, ularni umumlashtirish, taksonomiyaga solish va kerakli xulosalar chiqarish masalasi bilan olimlar qadim zamonlardan buyon qiziqib kelganlar.

O'zbek antroponimlari tarixan o'rganish xx asrning ikkinchi yarmidan yanada rivojlana boshladi. E.Begmatovning "Antroponimiyadagi qadimiy turkiy elementlar" maqolasidan so'ng muallifining qadimiy turkiy yodnomalaridagi antroponomlarga bag'ishlangan maqolalari e'lon qilindi. Shuningdek, taniqli Navoishunos olimlar Alibek Rustamov va Bahrom Vafoevlar ham o'z ishlarida ba'zi ismlarining ma'no xususiyatlariga to'xtalib o'tdilar. Sh.Yoqubovning "Navoiy asarlari onomastikasi" nomli tadqiqotida ham bir qator ismlar diaxronik planda tahlil qilindi.

Antroponimlar tarixini o'rganish bilan bog'liq masalalardan biri "Tarixiy antroponimlar" tushunchasini aniqlashtirish va tarixiy nomlar majmuini zamonaviy ismlar fondidan farqlash, chegaralash masalasidir. Bunday nomlar tilda paydo bo'lish davri va xolatiga ko'ra tarixiy bo'lsa-da, qo'llanishi, hayotiylikiga ko'ra zamonaviy hamdir. Demak, bunday nomlar ham tarixiylik, ham zamonaviylik xususiyatiga ega. Hozirgi o'zbek tilidagi Ulug'bek, Tangriberdi, O'lmas, Temur, Chingiz kabi ismlar qadimiy va tarixiy, shuningdek, zamonaviy hamdir.

Tarixiy antroponimlar ma'lum tarixiy yozma manbalarda yoki folklor asarida uchrashi bilan xarakterlanadi. Yodnomalarda qayd etilgan antroponimlarning hozirda ishlatilmasligi ularni unutilgan, "o'lik" ismlar qatoriga kiritadi. Antroponomlar turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qilish

⁴⁵ Нурмонов. А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 72.

muhim ahamiyatga ega. O'zbek antroponimlarini tarixiy yodnomalardagi xususiyatlariga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Umumturkiy davrga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (6-14 asrlar)
2. Eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan yodnomalardagi antroponimlar (15 asr va keyingi davrlar)

Antroponimlarni tahlil qilishda bag'ishlov ismlar ham alohida o'rin tutadi. Chunki bag'ishlov ismlarning yuzaga kelishi qadimiy tarix bilan bog'liq bo'lib, u ma'lum bir xalqning e'tiqodi va ishonchi, magig qarashlariga borib taqaladi. Bu borada tadqiqot olib borgan Sabohat Kenjaeva bag'ishlov ismlarining bir guruhi haqida yozilgan maqolasida o'zbek antroponimiyasining o'ziga xos guruhlari mavjud bo'lib, ularning quyidagilaridan keng foydalaniladi deb yozar ekan ularni uchga bo'ladi:

- 1) Ism bag'ishlovlar (memorativlar);
- 2) tasviriy ismlar (deskriptivlar);
- 3) ism-istaklar (dezirativlar)⁴⁶. kabi.

Uning fikricha ism bag'ishlovlarning yaratilishi o'zbek onomastikasining qadimgi usullaridan biri hisoblanadi. Chunki o'zbek xalqi, balki butun dunyo xalqlari ham, qadim tarixdan to bugungi kungacha turli xil dinlarga, xudolarga, totemistik, fetishizm va ko'plab urf-odatlariga amal qilgan. Bunday diniy manbalarga ishonish, ularga bo'lgan hurmat o'zbek antroponimiyasida hozirgacha saqlanib qolgan. Tarixdan farzandli bo'lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ehsoni deb tushunish natijasida chaqaloqqa o'zlari ishongan iloh, e'tiqod etgan narsalar nomi bilan bog'liq tushunchalar ism qilib berilishi natijasida bag'ishlov ismlari paydo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham ism berilishida bunday ishonch va e'tiqodlar muhim o'rin egallaydi. Farzand ota-ona uchun Xudo tomonidan in'om etilgan buyuk ne'mat deb qaraladi.

⁴⁶ Кенжаева С. Бағишлов исmlарининг бир гуруҳи ҳақида. О'zbek tili va adabiyoti. 2011. 2-son. 91-bet

Farzandga ism qo'yilishida nominatorlar tomonidan farzandni tug'ulguncha bo'lgan niyatlari, istaklari, ijtimoiy muhitni, etnik kelib chiqishni, farzand dunyoga kelgandagi ijtimoiy-jismoniy holatlarni va boshqalarni inobatga olgan holda turli lug'aviy ma'nodagi ismlar qo'yiladi. Masalan, farzand Xudoning bergan ne'mati deb bilgan nominatorlar Xudoberdi, Olloberdi, Tangriqul, Xudoyor kabi ismlar qo'yadi. Bundan tashqari, bag'ishlov ismlar nominatorning bola tug'ilishiga munosabat motivi asosida ham bir nechta turlarga bo'lingan.

Antroponimlarning ba'zi turlari mavjudki, ularda tarixiylikdan, tarixan bildirgan ma'nosi bilan bog'langan motivlaridan tashqari ma'lum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari juda ko'plab uchraydi. Bunda ma'lum nomli tarixiy shaxslar o'z shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda yorqin, kerak bo'lsa ishonish, o'sha shaxsga nisbatan havasni, e'tiqodni uyg'ota oladi. Natijada shaxsning vafot etishi yoki uning tiriklik payitidan boshlab, shaxsning xususiyatlari uning ismiga ko'chib o'tadi va xalq bunday farzandlari ko'payishini xohlaydi. Asta sekinlik bilan bu nomlarni farzandlarga qo'yishda antroponimning oldingi manosiga qo'shimcha ravishda ma'lum shaxsning siymosi ham qo'shiladi. O'zbek antroponimlarining tarkibida bunday ismlarni juda ko'plab uchratish mumkin. Bunda ismlar sirasiga xalqni dushmanlardan ozod etgan, xalq g'amini tushunib, xalqning og'irini yengillashiga o'z hissasini qo'shgan, butun umr vatan ravnaqi uchun yashagan, ilm-u fanda butun dunyoga dong'i yoyilgan olim bo'lgan va faqat yaxshi fazilatlarini ko'rsata olgan shaxslargina bunday baxtga muyassar bo'lgan. Bunday shaxslar bilan bog'liq antroponimlar qatoriga quydagi antroponimlar kirgizish mumkin: Madaminbek (ar. – Muhammad(sav) sodiq, ishonchli, sadoqatlidir. Amin – Muhammad(sav)ning sifatlaridan biri (O'sha asar, 200-bet) deb belgilangan bo'lsa-da, lekin xalqimizning orasida xuddi shu ma'nolardan tashqari XX asr boshalaridagi o'zbek xalqining ozodligi uchun jonini fido qilib olishgan qo'rboshi Madaminbek antroponimiga motivlanish holatini kuzatamiz; Alisher (ar.-ft.) – sherdek jasur, dovyurak bo'lib o'ssin va Ali qo'llab yursin (O'sha asar, 29-bet) degan ma'noni ifodalagan bo'lsa-da, bundan tashqari, bu ismni hozirgi kunda ota-onalarimiz bola tug'ilganda adabiyotimizning yukasak

cho‘qqilarga olib chiqqan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga bog‘lab qo‘yish hollarini ham kuzatishimiz mumkin; Navoiy (ft.) – kuyga, qo‘shiqqa mansub, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiyga nisbat berilgan ism. Buyuk shoir Navoiyga o‘xshasin, Navoiydek shuhrat topsin deb orzu qilingan (O‘sha asar, 289-bet); Chingiz (mo‘g‘ – buyuk, qudratli. Mashhur jahongir Chingizxon(1227-yili vafot etgan) nomiga nisbat berilgan ism (O‘sha asar, 481-bet)). Shohruh (ft. – viqorli, kelishgan; chiroyli, zebo yoki shaxmatdagi shoh ruhi. Rivoyatga ko‘ra, Temur shahmat oynab o‘tirganida o‘g‘il tug‘ilganini eshitadi va unga Shahruh deb nom beradi) (O‘sha asar, 506-bet), Bobur/Bobir ((ar.) – arslon, yo‘lbars; ulug‘, ulkan, buyuk (O‘sha asar, 63-bet) kabi ma’nolari bilan birga, bu antroponimning Zahiriddin Muhammad Boburning ismiga bog‘liqligi ham motivlovchi vazifasida kelishi mumkin), Ulug‘bek, A.Temur, Jaloliddin, Mashrab, Yassaviy, Ibn Sino, Behzod, Mironshoh, Temur Malik kabi antroponimlarni ham ota-ona o‘z farzandiga qo‘yishda, albatta, ushbu ism bilan atalgan shaxslarning faoliyatiga e‘tibor qaratmasdan iloji yo‘q deb o‘ylaymiz. Shunday ekan, hozirgi kunda Temur/Temir, Temurbek/Temirbek ismlarini qo‘yishda nominatorlar bu antroponimning temirdek mustahkam, mahkam, ya’ni baloqazolarga bardoshli, umri uzoq bola (O‘sha asar, 409-bet) singari ma’nolaridan tashqari nominatorlar ism tanlashda Amir Temur timsolini hisobga olib, ana shu tarixiy shaxsga o‘xshash inson bo‘lsin deb Temir ismini qo‘yishadi.

Ba’zi ismlarning yaratilishi yoki tanlashi ko‘p hollarda o‘sha nomni tanlagan yoki ijod qilgan kishilar (nominator) uchungina ma’lum bo‘ladi. Bunday ismlarning kengroq doirada, umummilliy doirada ma’lum va tushunarli bo‘lishi ushbu nomning kengroq tarqalishi, umumudum darajasiga ko‘tarilishi bilan bog‘likdir. Lekin ba’zi ismlar bir oila doirasida va bir martagina ko‘llanilib keyinchalik qo‘llanilishdan chiqib ketishi ham mumkin.

d) Eponim va antroponimlarda orzu-istak, tabu va efemizm bilan bog‘liq motivatsiya

Inson hayot ekan maqsadsiz, orzu-umdsiz yashay olamaydi. Har soniya o'z oldiga yangidan yangi ulkan maqsadlarni, orzularni qo'yib yashaydi. Inson orzulari tug'ilishdan, balki undanda ilgariroq ham boshlanadi hamda rivoj topadi. Chunki farzand (chaqaloq, bola) tug'ilishidan oldin unga atab, ne-ne orzu-umidlar bilan ism tanlanadi, unga mos ism tanlashning o'zi ham insondan mahoratni talab qiladi. Farzand dunyoga kelar ekan har bir ota-ona o'z nuridiydasi uchun farzandi qanday bo'lishini istasa, o'sha xohishiga qarab, farzadini qaysi paytda, qaerda dunyoga kelishiga qarab ism qo'yishga harakat qiladi. Dunyodagi hech bir inson o'z jigargo'shasini yomon, yaramas, ish yoqmas, qo'rqq, xullas, umuman salbiy hislatlarga ega bo'lgan bola bo'lsin deb dunyoga keltirmaydi. Nominatorlarning istak-orzulari ularning yashash muhiti, farzandni kutish darajasi va boshqalarga ko'ra turli xil bo'ladi.

a) Nominatorlar farzadni ko'p yillar kutib erishishayotgan bo'lishsa, bolaga quydagicha ismlarni qo'yilishi ko'p uchraydi:

Orzu (Orzubek, Orzujon, Orzumand) – zoriqib, umid, armon qilib yurib topilgan o'g'il bola;

Orzu (Orzuxon, Orzubeka, Orzubibi, Orzuniso) – zoriqib, umid, armon qilib yurib topilgan qiz bola (O'sha asar, 325-bet);

Orzi (Orzibek, Orzijon, Orzimuhammad, Orzimurod, Orziqul, Orzilik) – umid qilib topilgan o'g'il bola;

Orzi (Orzibibi, Orzibonu, Orzigul, Orzininso, Orziyoy, Orziposhsha, Orzixol, Orziya, Orziqiz) – umid qilib topilganqiz bola (O'sha asar, 326-bet);

Moil/Moilkbek (ar./ar-o'z.) – orzu, armon qilib yurib erishilgan o'g'il bola;

Moila (ar.) – orzu, armon qilib yurib erishilgan qiz bola(O'sha asar, 248-bet);

Chunon (Chunonbek, Chunonboy, Chunontoy, Chunonqul)(ft.) – intiqib kutilgan bola(O'sha asar, 484-bet);

Umid (ar.) (Umidali, Umidulla, Umidxo'ja) – orzu, umid qilingan, kutilgan o'g'il bola; Umid (Umida, Umidaxon) – orzu, umid qilingan, kutilgan qiz bola(O'sha asar, 446-bet);

b) Nominatorlar bolani yashab qolishini istab quyidagicha ismlarni qo'yishadi:

O'lmas (o'z.) (O'lmasjon, Shlmasbek, O'lmastoy, O'lmasxo'ja) – o'lmaydi, umri uzoq bo'ladi deb umid qilingan o'g'il bola.

O'lmas (o'z.) (O'lmasoy, O'lmasxon, O'lmasbibi) – yao'aydigan, uzoq umrli qiz bola(O'sha asar, 528-bet). Bunday antroponimlar ko'pincha oilada bir nechta farzandlari tug'ilmasdan, tug'ilgan paytda nobut bo'laverganidan keyin, endi bu farzandimiz o'lmasi ilohim yashab ketsin deb umid bilan qo'yiladi.

Boyturdi (o'z.), Boytursin (o'z.), Boyto'xta (o'z.) – o'lmasin, turuvchi, to'xtasin, yaashasin, yaashaydigan davlatman bola(O'sha asar, 69-bet). Oldingi farzandlari turmasdan o'lsa, bola tug'ilganda sog'lig'i yaaxshi bo'lmasa, nimjon, o'rnidan ham turaolmayotgan bo'lsa, turib yaashab ketsin, boy bo'lsin kabi orzu-istaklar bilan nomlangan.

Yashar (o'z.) (Yaasharbek, Yasharboy, Yasharqul) – yashaydigan, barhayot bo'ladigan umri uzoq bola(O'sha asar, 526-bet).

Hayotxon (ar.-o'z.) (Hayot, Hayotbek, Hayotgul) – tiriklik, yashasin, barhayot bo'lsin(O'sha asar, 566-bet).

v) Nominatorlar bolani baxtli hayot kechirishini orzu qilib quydagicha ismlarni qo'yadilar:

Yashna/ Yashnar/ Yashnaroy/ Yashnasin/ Yashnaxon (o'z.), Yashnargul (o'z.-ft.) – umri yashnasin, barq ursin, farovon yashasin(O'sha asar, 527-bet).

Baxt (ar.) / Baxtjon (ar.ft.) / Baxti (ar.) / Baxtiazim (ar.) / Baxtibor (ar.-o'z.) / Baxtiyor (ar.-ft.) / Batimurod (ar.) – baxtli, saodatli, tolei baland, baxtiyor, omadli, iqboli baland, istiqbol egasi, shodon, quvnoq yashasin (O'sha asar, 49-bet). Nominatorlarning baxtli kunlarida tug'ilgan bolalarga ham shunday ism qo'yilishi mumkin.

g) Nominatorlar bolani boy-badavlat hayot kechirishini istab quydagicha ismlarni qo'yishadi:

Boyalı (o'z.-ar.) – boy, badavlat bo'lsin, Ali qo'llab yursin.

Boybek (o‘z.) – Beklar avlodidan bo‘lga badavlat bola. Boybola (o‘z.) – rizq-ro‘zli, badavlat bola

Boybo‘lsin (o‘z.) – ulg‘ayib badavlat odam bo‘lsin.

Boydavlat (o‘z.-ar.) – sog‘ ulg‘ayib molu dunyosi mo‘ldavlatli bo‘lsin (O‘sha asar, 66-67-bet).

Boyqobil (o‘z.-ar.) – aqlli-odobli, mo‘min-qobil bo‘lib o‘ssin va ulg‘ayib badavlat bo‘lsin (O‘sha asar, 70-bet).

Boyparda (o‘z.-ar.) – pardali bo‘lib tug‘ilgan bola ulg‘ayib badavlat bo‘lsin (O‘sha asar, 68-bet).

Davlat (ar.) (Davlatali, Davlatmurod, Davlatbek, Davlatboy, Davlatjon, Davlatxon) – boy, badavlat, baxtli, saodatli bo‘lsin (O‘sha asar, 105-bet).

e) Joy-makon va etnik kelib chiqish bilan bog‘liq motivatsiya

Bolaga ism ba‘zi hollarda uning kelib chiqishi, etnonimi, urug‘ va qabila nomlariga, qaerda joylashganligiga, qaerda tug‘ilganligiga nisbatan berish orqali berilgan. Bunday nom berishda xalqimizning “bola yetti avlodini (shajarasini) bilishi” muhimligi haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. Bunday etnonimlardan yasalgan ismlar etnoantroponimlar deb yuritiladi⁴⁷. Ism bag‘ishlovlarning bir gurihi esa sulola, tabaqa, mansab va unvonlar nomiga nisbat berish orqali ham yasalgan. Bundan ko‘rinadiki, bolaning tug‘ilishiga turlicha munosabatlarning ifodasi sifatida yaralgan ismlarga xos motivlar o‘zbek xalqining milliy va umumbashariy qadiryatlari bilan bog‘liq. Etnik mansublik o‘tmish ajdodlarini, yashash joyini e‘zozlash bilan bog‘liq motivli ismlar o‘zbek antroponimlarining ibtidoiy davrga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan.

Turkiy urug‘ va qabilalar, shuningdek, O‘rta Osiyo hududida o‘tmishda yashagan boshqa etnoslarning hamda shu urug‘ va qabilalarning kishi nomlariga oid manbalar asosida O‘zbekistonda mavjud ayrim joy nomlari va antroponimlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, yozilishiga e‘tibor qaratish, etnonimlarni etimologik tahlil qilish ishlari Abu Rayhon Beruniyning tarixiy asarlari, Mahmud Qoshg‘ariyning

⁴⁷ Begmatov.E, Uluqov. N. O‘zbek onomastikasi (bibliografik ko‘rsatkich). 2008. 134-145-betlar

“Devonu lug‘otit-turk”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk”, Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarida, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida, shuningdek, fors tilida bitilgan “Abulxayrnoma”, “Abdullanoma”, “Tarixi Muqumxon”, “Tarixi Salotin mang‘itta”, “Tarixi Abulfayzxon” nomli tarixiy manbalarda, qolaversa, Xiva, Buxoro, Qo‘qon xonliklari devonida bitilgan rasmiy hujjatlarda saqlanib qolgan. Bu asarlar o‘zbek millati va qabilalari nomi hamda ular asosida yasalgan antroponilarini o‘rganishda muhim manbaa hisoblanadi. Chunki ushbu allomalar o‘z zamonasidagi joy nomlari, antroponimlarning izohi va tarixini, lug‘aviy ma‘nosini to‘g‘ri tahlil qilish va yozilishiga katta e‘tibor berganlar. Bunday ma‘lumotlar Beruniy tomonidan yozilgan “Kitob as-saydana fi-t-tibb”⁴⁸ nomli kitob, Alisher Navoiyning “Xamsa” va boshqa asarlarida keng izohlangan.

Mitanboy (o‘z.) – o‘zbeklarning mitan urug‘iga mansub bola (O‘sha asar, 247-bet);

Qaromon (o‘z.-ft.) – qaromon urug‘iga mansub bola (O‘sha asar, 547-bet);

Quvamurod (o‘z.-ar.) – Quva shahrida erishilgan orzu, armon, ya‘ni Quvada tug‘ilgan bola yoki quva urug‘ining murod maqsadli farzandi (O‘sha asar, 548-bet).

Pamir (ft.) – pomir tog‘i nomiga nisbat berilgan ism (O‘sha asar, 337-bet).

Parcha (ft.) – parchaqora (parchachavdir, parchayuz, parchaburgut, loqayparcha) singari urug‘lardan biriga mansub bola. Shakllari: Parchabibi, Parchabeka, Parchabika, Parchagul, Parchamomo (O‘sha asar, 338-bet).

Lochin (o‘z.) – lochindek ziyrak, dovyurak bola yoki Lochin urig‘iga mansub bola (O‘sha asar, 197-bet).

Mang‘it (o‘z.) – aynan: ming, mang‘it urug‘iga mansub bola yoki uyga mang‘it urug‘iga mansub bo‘lgan mehmon kelganda yoxud chaqaloq kindigini kesgan doya xotin mang‘it ayol bo‘lganida berilgan ism (O‘sha asar, 210-bet).

⁴⁸ Абу Райхон Беруний. Фармакогенези в медицине (Китаб ас-сайдана фи-т-тибб) / Исследование, переводы и указатели У.И.Каримова. Избранные произведения. Т.IV. – Ташкент, 1973.

Chinoz (ft.-o'z.) – Chinozda yoki Chinozni ziyorat qilgach tug'ilgan bola yoxud chinoz urug'iga mansub bola (O'sha asar, 482-bet).

Jaloyir (o'z.) – jaloir qabilasiga mansub bola, jaloir farzandi (O'sha asar, 132-bet).

Oybek (o'z) – beklar naslidan bo'lgan omadli, baxtli bola yoki oybek urug'i (o'zbek urug'laridan biri)ga mansub bola (O'sha asar, 309-bet).

Bahrin (ft.) – bahrin (turklashgan mo'g'il qabilasi) qabilasiga mansub qiz (O'sha asar, 52-bet).

Barlos (o'z.) – mard, botir; sarkarda. Barlos – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabila nomi (O'sha asar, 47-bet).

Olchin (o'z.-mug'.) – olchin urug'iga mansub bola yoki lochindek dovyurak, jasur bola (O'sha asar, 322-bet).

f) Eponim va antroponimlarda osmon jismlari bilan bog'liq motivatsiya

Bolaga ism qo'yishda ba'zi hollarda kosmonimlarining (Kosmonimika – nomshunoslikning kosmik fazoda joylashgan samoviy ob'ektlarini o'rganuvchi soha) nomlariga nisbat berish orqali yasaladi. Bunday nom berishda xalqimizning qadimiy diniy e'tiqodlarining ta'siri, osmon jisimlarining insonlarga keltirayotgan foydasi, ulug'vorligi, ularni inson hayotida qanchalik darajada muhimligi haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Bunday kosmonimlardan yasalgan ismlar qatoriga asosan quyosh, oy, yulduzlar va sayyoralarga atab qo'yilgan nomlar salmoqli o'rin egallaydi. Bundan ko'rinadiki, bolaning tug'ilishiga turlicha munosabatlarning ifodasi sifatida yaralgan ismlarga xos motivlar o'zbek xalqining milliy va umumbashariy qadiryatlari bilan bog'liq. Bunda nominatorlarning manaviy-madaniy dunyosi, yashash hududini tabiiy va ijtimoiy sharoiti bilan bog'liq motivli ismlar o'zbek antroponimlarining ibtidoiy davrga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan.

Turkiy urug' va qabilalar, shuningdek, O'rta Osiyo hududida o'tmishda yashagan boshqa etnoslarning hamda shu urug' va qabilalarning kishi nomlariga oid manbalar asosida O'zbekistonda mavjud ayrim kosmonim nomlari va

antroponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish, yozilishiga e'tibor qaratish, badiiy asarlarda kosmonimlar nomini antroponim sifatida qo'llanishini tahlil qilish ishlari Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarida, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida va boshqa mumtoz asarlarimizda ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Mirzo Ulug'bekning "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarida ham kosmonimlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bu asarlar osmon jismlari nomi hamda ular asosida yasalgan antroponilarini o'rganishda muhim manbaa hisoblanadi. Chunki ushbu olimlar o'z zamonasidagi kosmonimlar nomlari, antroponimlarning izohi va tarixini, lug'aviy ma'nosini to'g'ri tahlil qilish va yozilishiga katta e'tibor berganlar. Bunday ma'lumotlar Alisher Navoiyning "Xamsa" va boshqa asarlarida ham keng izohlangan.

Yulduz (o'z.) – tolei Yuulduzdek yuksak va porloq bo'lsin. Shakillari Yuulduzxon, Yulduzoy (O'sha asar, 523-bet).

Quyosh (o'z.) – tolei quyoshdek porloq bo'lsin; Quyosh farzandi yoki go'zal, zebo (O'sha asar, 549-bet).

Sayyora (ar.) – tez harakat qiluvchi yuulduz; Sayyora plpnetasi yoki tolei baland (O'sha asar, 346-bet).

Mohi (ft.) – oydek, oymonand, go'zallik, nafosatga mansub (O'sha asar, 250-bet).

Mushtariy (ar.) – yupiter sayyorasining nomi yoki sotib oluvchi haridor (O'sha asar, 264-bet).

Parvin (ft.) – hulkar yulduzdek oliy martabali, tolei baland bo'lsin (O'sha asar, 337-bet).

Cho'lpon (o'z.) – tong yulduzi, yorug' yulduz (Venera), ya'ni tolei baland, saodatli bola (O'sha asar, 484-bet).

Zuhro (ar.) – aynan: nur, yorqin, ravshan. Cho'lpon yulduzi. Zuhrodek nurli, ko'rkam; baxt-saodat sohibi. Zuhro Muhammad (sav) ning qizi Fotimaning sifati (laqabi) bo'lgan (O'sha asar, 159-bet).

g) Eponim va antroponimlarda shaxsning jismoniy holati bilan bog'liq motivatsiya

Shaxsga ism tanlashda doimo, eng avvalo, uning jismoniy holati bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratiladi. Tug'ilgan farzandning biron tana a'zosi ortiqchaligi yoki kamchiligi, badanining biron qismida xol yoxud norlari mavjudligi, qosh, ko'z, soch va tanasining rangi o'zgachaligi, bola tish bilan tug'ilganligini hisobga olgan holda bolaga ism qo'yish urf bo'lgan. Chunki bolaning tanasida bunday xususiyati bo'lgan bolalarga, shu xususiyat motiv qilib olingan antroponimlarni ism isfatida qo'yilmas ekan, ularning hyotida yoki tanasida biron salbiy o'zgarish bo'ladi deb ishonishgan.

a) Tug'ilgan bola tanasidagi nor bilan bog'liq ismlar:

Anora (ft.) – qizil xolli, norli qiz (O'sha asar, 33-bet).

Norgo'zal (ft.-o'z.) – badanida chiroyli qizil xoli bor qiz yoki qizil xolli (tamg'ali) zebo qiz (O'sha asar, 295-bet).

Anartou (ft.-o'z.) – qizil xolli, erkatoy bola (O'sha asar, 33-bet).

Anorxol (ft.) – qizil xolli, norli qiz.

Nortoy (ft.-o'z.) – qizil xolli aziz, erkatoy (toyloq) bola yoki nor tuyaning bo'tadog'idek quvnab o'ssin (O'sha asar, 297-bet).

Norqiz (ft.-o'z.) – qizil xolli qiz (O'sha asar, 298-bet).

b) Tug'ilgan farzandning xoli bilan bog'liq ismlar:

Momatoj (o'z.-ft.) – marhum buvisining o'rniga kelgan xolli qiz (O'sha asar, 249-bet).

Xoldor (ft.) – badanida xol bilan tug'ilgan bola, xolli bola.

Moshxol (ft.) – moshdek xol bilan tug'ilgan qiz.

Xolbuvi (ft.-o'z.) – xol bilan tug'ilgan qiz.

Xolboy (ft.-o'z.) – xolli bola ulg'ayib boy, balavlat bo'lsin (O'sha asar, 464-bet).

Oqxol (o'z.-ft.) – badanida oq xol bilan tug'ilgan qiz yoki oq xolli qiz baxtli bo'lsin yoxud oqqol – orzuimiz, armonimiz bo'lgan qiz (O'sha asar, 334-bet).

v) Tug'ilgan bola tanasidagi biron ortiq bilan bog'liq ismlar:

Sadaf (ar.) – tishli tug‘ilgan bola; sadafdek tish bilan tug‘ilgan yoki sadafdek bebaho, qimmatli qiz (O‘sha asar, 359-bet).

Bo‘ri (o‘z.) – qadimiy odatga ko‘ra sog‘ bo‘lsin, mahkam bo‘lsin deb bo‘rining jag‘idan (terisidan) o‘tkazib olingan bola yoki tish bilan tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 82-bet).

Ortiq (o‘z.) – badanida biror ortiqcha belgi bilan tug‘ilgan bola.

Ortiqali (o‘z.-ar.) – badanida biror ortiq belgi bilan tug‘ilgan bolani Ali o‘z panohida asrasin.

Ortiqbibi (o‘z.-hind.) – badanida biror ortiqcha belgi bilan tug‘ilgan qiz.

Ortiqtoj (o‘z.-ft.) – badnida ortiq belgi – toji bor bola(O‘sha asar, 327-bet).

Oltiboy (o‘z. – olti barmoqli bola yoki oilada oltinchi farzand (O‘sha asar, 249-bet).

Tug‘ilgan bola sochining rangi bilan bog‘liq ismlar:

Oltinsoch (o‘z.) – sariq sochli qiz (O‘sha asar, 321-bet).

Qorasoch (o‘z.) – sochlari timqora, qo‘ng‘iroq sochli bola (O‘sha asar, 546-bet).

Sariq (o‘z.) – sariq sochli bola; tanlab olinga a‘lo bola yoxud sarix bola.

Sarisoch (o‘z.) – sariq soch bilan tug‘ilgan bola.

Sarixon (o‘z.) – sariq soch (rang)li bola baland martabalarining sohibi bo‘lsin.

Sarijon (o‘z.-ft.) – sariq sochli va jondan azaiz, suyukli bola.

Sarigul (o‘z.-ft.) – sariq sochli guldek ko‘rkam qiz (O‘sha asar, 377-bet).

Malla (o‘z.) – mala, bug‘doyrang bola; sariq sochli bola (O‘sha asar, 205-bet). Mallagul, Mallatoy, Mallaqiz;

Qorabosh (o‘z.) – qul, cho‘ri yoki burgut yoxud timqora sochli bola (O‘sha asar, 546-bet).

g) tug‘ilgan bolani ko‘zining rangi bilan bog‘liq ismlar:

Moviy (ar.) – ko‘k, moviy ko‘zli.

Moviya (ar.) – ko‘k, moviy ko‘zli qiz (O‘sha asar, 247-bet).

Ko‘kko‘z (o‘z.) – ko‘k ko‘zli bola.

Ko'kixon (o'z.) – ko'k, samo farzandi yoki ko'k ko'zli bola.

Ko'ki/Ko'kiboy (o'z.) – ko'k farzandi yoki avlodning davomchisi, ildizi bo'lgan bola. Ko'k ko'zli bola (O'sha asar, 192-bet).

Qorako'z (o'z.) – ko'zlari qora bola; ko'rkam, go'zal bola (O'sha asar, 546-bet);

h) Eponim va antroponimlarda o'simlik va daraxtlar bilan bog'liq motivatsiya

Qadimdan badiiy asarlarda, xalq ertaklarida ba'zi qahramonlarni tasvirlashda majoziy obrazlardan keng miqiyosda foydalanilgan, bunday qahramonlarning ismini turli xil o'simlik, daraxt, xayvon va qushlarning nomlari bilan atalgan, keyinchalik bunday antroponimlar shaxslarning o'ziga ham ko'chib o'tgan. Bundan tashqari, yuqoridagi kabi nomlarni insonlarga atab qo'yilishida xalqimizning qadimiy diniy e'tiqodlarining ta'siri, ulug'vorligi, ularni inson hayotida qanchalik darajada muhimligi haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Bunday ob'ektlardan yasalgan ismlar qatoriga asosan uzoq umr ko'ruvchi, doimo yashnab turuvchi, tanasi baquvat, turli xil tabiiy hodisalarga chidamli, tanasining tuzilishini tikligi, insonlarga foydaliligi, go'zalligi, tabiiy ofatlardan saqlashi kabi xususiyatlari inobatga olingan. Bundan ko'rinadiki, bolaning tug'ilishiga turlicha munosabatlarning ifodasi sifatida yaralgan ismlarga xos motivlar o'zbek xalqining milliy va umumbashariy qadiryatlari bilan bog'liq. Bunda nominatorlarning manaviy-madaniy dunyosi, yashash hududini tabiiy sharoiti bilan bog'liq motivli ismlar o'zbek antroponimlarining ibtidoiy davrga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan.

Miska (o'z.) – miska (muskat) uzumdek yoqimtoy, shirin qiz (O'sha asar, 247-bet).

Ispan (ft.) – Ismad/ Isfand – isiriq, hazratispand. Xalq bu o‘simlik, uning hidi kishini balo-qazodan, ko‘z tegishidan asraydi deb hisoblaydi. Shu tufayli-chaqaloqlarga ism sifatida qo‘yiladi (O‘sha asar, 172-bet).

Asfandiyor (ft.) – “Muqaddasning, ya’ni Ollohning tuhfası, ehsonı, muqaddas tuhfa”. Yoki Ispand – dorivor o‘simlik (sadaf) nomidan olingan (O‘sha asar, 37-bet).

Pechakgul (ft.) – pechak guldek go‘zal qiz yoki pechak guldek jirmashib yopishib olsin, ya’ni yashasin, o‘lmasin (O‘sha asar, 339-bet).

Savsan (ft.) – savsan (lilya) gulidek zebo qiz (O‘sha asar, 358-bet).

Layli (ar.) – savsan gul, oqshom gulidek barno qiz yoki tun go‘zali, tungi yog‘du (O‘sha asar, 195-bet).

Rayhon (ar.) – nozbo‘y, rayhon yoki majoziy ma’noda: farzandlar, bolalar (O‘sha asar, 346-bet).

Nargiz (ft.-yun.) – nargis (bo‘tagul)dek nozik, zebo qiz (O‘sha asar, 284-bet)

Nasrin (ar.) – oqgul; oqguldek go‘zal qiz (O‘sha asar, 286-bet).

Chinor (ft.) – chinordek basavlat va umri uzoq bo‘lsin yoki suyanchiq, ko‘makchi bola (O‘sha asar, 482-bet).

Nilufar (hind.) – nilufar o‘simlidek chiroyli, zebo qiz (O‘sha asar, 290-bet).
Chinterak (o‘z) – to‘g‘ri o‘sgan terak (O‘sha asar, 482-bet)

i) Eponim va antroponimlarda hayvon va qushlar

bilan bog‘liq motivatsiya

Qadimdan badiiy asarlarda, xalq ertaklarida ba’zi qahramonlarni tasvirlashda majoziy obrzlardan keng miqiyosda foydalanilgan, bunday qahramonlarning ismini turli xil hayvon, qush, o‘simlik va daraxtlarning nomlari bilan atalgan, keyinchalik bunday antroponimlar shaxslarning o‘ziga ham ko‘chib o‘tgan. Bundan tashqari, yuqoridagi kabi nomalarni insonlarga atab qo‘yilishida xalqimizning qadimiy diniy e’tiqodlarining ta’siri, ularni inson hayotida qanchalik darajada muhimligi haqidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan. Bunday ob’ektlardan yasalgan ismlar qatoriga asosan uzoq umr ko‘ruvchi, doimo yashnab turuvchi, tanasi baquvat, turli

xil tabiiy hodisalarga chidamli, tanasining tuzilishini tikligi, insonlarga foydaliligi, go‘zalligi, tabiiy ofatlardan saqlashi kabi xususiyatlari inobatga olingan. Bundan ko‘rinadiki, bolaning tug‘ilishiga turlicha munosabatlarning ifodasi sifatida yaralgan ismlarga xos motivlar o‘zbek xalqining milliy va umumbashariy qadiryatlari bilan bog‘liq. Bunda nominatorlarning manaviy-madaniy dunyosi, yashash hududini tabiiy sharoyiti bilan bog‘liq motivli ismlar o‘zbek antroponimlarining ibtidoiy davrga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etdi.

Bunday antroponimlarning xosil bo‘lishida ana shu ob’ektlarning xususiyatlari, jismoniy kuch-qudrati va boshqalar asos vazifasini o‘taydi.

Lochin (o‘z.) – lochindek ziyrak, dovyurak bola yoki Lochin urig‘iga mansub bola (O‘sha asar, 197-bet).

Bo‘ri (o‘z.) – qadimiy odatga ko‘ra sog‘ bo‘lsin, mahkam bo‘lsin deb bo‘rining jag‘idan (terisidan) o‘tkazib olingan bola yoki tish bilan tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 82-bet).

Arslon (o‘z.) – sher, yo‘lbars; kuchli, qudratli, dovyurak (O‘sha asar, 35-bet).

Kabutar (ft.) – kaptardek parvoz qilsin, umri uzoq bo‘lsin (O‘sha asar, 177-bet).

Yo‘lbars (o‘z.) – yo‘lbars (arslon) dek kuchli, qudratli (O‘sha asar, 76-bet).

Kaklik (o‘z.) – kaklik, cho‘l qushidek erkin va chiroyli qiz (O‘sha asar, 179-bet).

Shahboz (ft.) – shunqor (lochin) dek chaqqon, jasur bo‘lsin yoki umri lochin parvozidek yuksak bo‘lsin (O‘sha asar, 504-bet).

Qo‘chqor (o‘z.) – peshonasi do‘ng yoki moyagi kattaroq bo‘li tug‘ilgan bola yoxud sog‘ ulg‘ayib qo‘chqordek kuchli yigit bo‘lsin (O‘sha asar, 558-bet).

Qumri (ar.) – qumri (qush) dek yovvosh, beozor bola (O‘sha asar, 552-bet).

Qoplon (o‘z.) – qoplondek dovyurak, jasur, bo‘lib o‘ssin yoki asad oyi (iyul)da tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 544-bet).

Qulunboy (o‘z.) – qulun (bir yillik toy)dek go‘zal bola yoki qulundek o‘ynoqilab, yayrab o‘ssin (O‘sha asar, 551-bet).

j) Eponim va antroponimlarda shaxsning tug‘ilish payti bilan bog‘liq motivatsiya

Maynazar (rus.-ar.) – may oyida tavvalud topgan va Ollohning iltifoti, muruvati bo‘lgan bola (O‘sha asar, 248-bet).

Mirhayit (ar.) – hayit (bayram) kuni tug‘ilgan baland martabali bola (O‘sha asar, 246-bet).

Murodqurbon (ar.) – qurbon oyida erishilgan orzu (bola) yoki qurbon oyida tug‘ilgan murod, maqsadli bola (O‘sha asar, 259-bet).

Nazarqurbon (ar.) – Qurbon oyida qilingan iltifot, marhamat, ya’ni Olloh qurbon oyida ato qilingan bola (O‘sha asar, 282-bet).

Qurbon (ar.) – qurbon oyida (qamariya yil hisobining 12-oyi zulxijja oyi), qurbon hayiti kunlari tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 552-bet).

Asad (ar.) – asad oyida (shamsiya yil hisobi bilan beshinchi oyning nomi, iyun-avgust oylariga to‘g‘ri keladi) tug‘ilgan bola yoki asad – sher, arslon, ya’ni qo‘rqmas, dovyurak, qudratli (O‘sha asar, 35-bet).

Bahor (ft.) – ko‘klamda tug‘ilgan bola yoki hayoti bag‘rodek gullagan, yashnoqi bo‘lsin (O‘sha asar, 51-bet).

Hayit (ar.) – hayit, diniy bayram kunlari tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 567-bet).

Askar (ar.) – otasi yoki qarindoshlaridan biri armiyaga ketgan paytda tug‘ilgan bola yoki jangchi, kurashchi (O‘sha asar, 36-bet).

Payshanba (ft.) – payshanba kuni tug‘ilgan bola, bu kun xosiyatli kun hisoblanadi (O‘sha asar, 336-bet).

Odina (ft.) – juma kuni, ya’ni xosiyatli, qutli kunda tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 307-bet)

Bozor (ft.) – bozor kuni tug‘ilgan bola yoki uyimiz bozor kabi bolalarga to‘lsin (O‘sha asar, 66-bet).

Jumagul (ar.-ft.) – juma kuni tug‘ilgan guldek zebo qiz (O‘sha asar, 140-bet).

Paxtaoy (ft.-o‘z.) – paxta ochilganda tug‘ilgan qiz yoki paxtaday muloyim yuumshoq tabiatli qiz (O‘sha asar, 339-bet).

Navro‘z (ar.) – navro‘z – yangi yil kuni (oyi) da tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 279-bet).

Molaxon (ft.) – mola bosilayotgan paytda tug‘ilgan yoki moladay chidamli (O‘sha asar, 248-bet).

Chinoz (ft.-o‘z.) – chinozda yoki chinozni ziyorat qilgach tug‘ilgan bola yoxud chinoz urug‘iga mansub bola (O‘sha asar, 482-bet).

BOB YUZASIDAN QISQA XULOSALAR

1. Antroponimika leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini) o‘rganuvchi bo‘limi hisoblanadi. U odamlar ismini, ularning tarqalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo‘llanishini va antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o‘rganadi. Atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikning turli usullari ham *antroponimikani* tadqiqot obyekti hisoblanadi.

2. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo‘luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va b. motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi subyektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi.

3. Adabiyotshunoslikda esa motiv asarning asosiy temasidan farqli ravishda uning qo‘shimcha, ikkinchi darajali temalari bo‘lib, u asosiy tema bilan birgalikda badiiy jihatdan tugal tarkib topgan bir butun narsa sifatida yuzaga keladi deb izoh beriladi

4. Xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq holda folklorshunoslikda sujet tarkibidagi halqalardan biri sifatida talqin qilinadi.

5. Motivatsiya esa tilshunoslikda ikki xil tarzda talqin qilingan bo‘lib, birinchisida nom qo‘yish uchun asos bo‘lgan ekstralingvistik vositalar – niyat,

xohish, istak, orzu, ishonch, e'tiqot kabilar tushuniladi. Bu o'rinda motiv atamasi psixologiyadagi motiv atamasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Ikkinchi ma'noda motiv atamasi so'z yasalishi bilan bog'liq holda izohlanadi. Motivlangan so'z yasama asosga ega bo'lgan, ma'nosi yasash asosi va yasovchi affiks orqali ifodalanib turadigan so'z hisoblanadi. Yasash asosi bo'lib kelgan so'z motivlovchi so'z deb yuritiladi.

6. Har qanday biologik jonzotda bo'lgani kabi insonda ham o'z naslini asrash instinkti mavjud bo'lib, bu instinkt boshqa jonzotlardan farqli ravishda o'z naslini faqat turli jismoniy tahdidlardan emas, balki turli ruhiy tahdidlardan ham asrash instinkti mavjud bo'ladi. Bu hol ism qo'yishda ham o'z ifodasini topadi. Bu esa tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashishiga olib keladi. Shu sababli bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik, animistik tasavvurlar, ko'hna diniy aqidalar, sig'inishlarning boshqa xil ko'rinishlari, udumlar, ishonchlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa magik motivatsiya bilan bog'liq bo'lib, ism qo'yishda bag'ishlov, joy-makon va etnik kelib chiqish, osmon jismlari, individning jismoniy holati, o'simlik va daraxtlar, hayvon va qushlar bilan bog'liq motivatsiyani yuzaga keltiradi. Magik qarashlar bog'liq motivatsiya shaxsning tug'ilish payti bilan bog'liq holda ism qo'yishda ham kuzatiladi. Chunki bunday ism tanlashda diniy qarashlar, tarixiylik, orzu istak kabi motivatsiya kuzatilmaydi. Shaxsning tug'ilish (kun, hafta, oy, fasl, yil) payti qaysi muddatga to'g'ri kelishi, asosan, mifologik dunyoqarash bilan bog'liq bo'lib, buning ibtidosi insoniyatning rivojlanishini dastlabki payitlariga borib taqaladi.

7. Antroponimlardagi mifologik dunyoqarash izlari magik qarashlar bilan bog'liq motivlarda ifodalangan, diniy dunyoqarash bilan bog'liq tafakkur tarzi esa antroponimlarda diniy motivatsiya bilan bog'liq holda aks etgan.

8. O'zbek xalqi tarixda zardushtiylik, buddaviylik va islom dinlariga e'tiqod qilgan. Bu esa xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzida o'z izini qoldirgan va o'z navbatida antroponimlarda aks etgan. Xalq e'tiqodida eng so'nggi din

sifatida islom dini alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun antroponimlarda islom dini bilan bog‘liq motivlar katta o‘rin egallaydi.

9. Islom dini bilan bog‘liq motivlarga allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar; payg‘ambarlarning nomlari va sifatlarini bildiruvchi so‘zlardan yasalgan ismlar; Muhammad(SAV)ning qarindosh-urug‘lari ismi motiv qilib olingan ismlar; xalifalar, sahobalar, aziz-avliyolarning nomlari motiv qilib olingan nomlar kiradi.

10. Antroponimlarning ba’zi turlari mavjudki, ularda ma’lum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari juda ko‘plab uchraydi. Bunda ma’lum nomli tarixiy shaxslar o‘z shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda yorqin kerak bo‘lsa ishonish, o‘sha shaxsga nisbatan havasni, e’tiqodni uyg‘ota oladi. Natijada shaxsning vafot etishi yoki uning tiriklik payitidan boshlab, shaxsning xususiyatlari uning ismiga ko‘chib o‘tadi va xalq bunday farzandlari ko‘payishini xohlaydi. Asta sekinlik bilan bu nomlarni farzandlarga qo‘yishda antroponimning oldingi manosiga qo‘shimcha ravishda ma’lum shaxsning siymosi ham qo‘shiladi. Bunda ismlar sirasiga xalqni dushmanlardan ozod etgan, xalq g‘amini tushunib, xalqning og‘irini yengillashiga o‘z hissasini qo‘shgan, butun umr vatan ravnaqi uchun yashagan, ilm-u fanda butun dunyoga dong‘i yoyilgan olim bo‘lgan va faqat yaxshi fazilatlarini ko‘rsata olgan shaxslargina bunday baxtga muyassar bo‘lgan. Bunday shaxslar bilan bog‘liq antroponimlarning tanlanishida tarixiylik bilan bog‘liq motivatsiya alohida rol o‘ynaydi.

11. Orzu-istak bilan bog‘liq motivatsiya bevosita insonlarning orzu-istaklarining ro‘yobini istashi bilan bog‘liq bo‘ladi.

2. ANTROPONIMLARNING ShAKLLANISH USULLARI

2.1. Tub va sodda so‘zlardan hosil bo‘lgan antroponimlar (bir o‘zakli)

Ismlar boyligi turli tillarda miqdoran turli darajadadir. O‘zbek tili ismlar majmuasining nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Ismlarning miqdoran ko‘pligi bu tilda shaxslarning o‘zaro farqlash, ajratib olish imkoniyatining yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ismlar, laqablar, taxalluslar va kishining nomlanishining boshqa turlari ona tilining qimmatli, bebaho boyligidir.

O‘tmish ajdodlarimiz ismlar boyligiga, bolani nomlash, yangi betakror ismlar ijod qilishga intilish odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan, uni asrash va ko‘paytirishga doimo intilgan.

a) turdosh otlardan xosil bo‘lgan ismlar va taxalluslar.

Bunda antroponimlarning ham turdosh ot sifatidagi ma’nolarini, ham ism ma’nolarini izohlashga harakat qildik. Ba’zi ismlarning faqat bir ma’nosini berdik. Chunki ko‘rsatilgan ma’nosidan ham ismning turdosh otlar bilan bog‘liqligi borligi bilinib turadi.

Lola ism sifatida (ft.) – loladek yashnagan go‘zal qiz yoki lolalar ochilgan qiz (O‘sha asar, 197-bet).

Lola turdosh ot sifatidagi ma'nosi (ft.) – loladoshlar oilasiga mansub, yirik, chiroyli gulli ko'p yillik o'simlikning nomi⁴⁹.

Temir ism sifatidagi ma'nosi (o'z.) – temirdek mustahkam ya'ni baol-qazolarga bardoshli, umri uzoq bola (O'sha asar, 409-bet).

Temir turdosh ot sifatidagi ma'nosi (o'z) – Mendeleev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element, bolg'alanganda yassilanadigan, istalgan shaklga kiradigan, uglerod bilan qo'shilganda, po'lat va cho'yan hosil qiladigan qoramtir kumush rangli og'ir metal⁵⁰.

Po'lat (ft.) – po'latdek mustahkam, yashaydigan umri uzoq bola (O'sha asar, 343-bet).

Po'lat (ft.) – temirning ma'lum miqdordagi uglerod bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan, kulrang, cho'kichlanuvchi qattiq metal⁵¹.

Rayhon (ar.) – nozbo'y, rayhon yoki majoziy ma'noda farzandlar, bolalar (O'sha asar, 346-bet).

Barchin (o'z.) – shoyi mato, ipak mato, parchin yoki balchin/barchin, go'zal zebo qiz (O'sha asar, 48-bet).

Baxt (ar.) – baxtli saodatli, tolei baland bola (O'sha asar, 49-bet).

Baxt turdosh ot sifatida (ft.) – Kishining o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, mayyan maqsadgaetgani, orzu-umidning ushalishi sifatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-ahloqiy tushunchaning nomi. Hayotdan to'la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut⁵². Ism sifatida esa

Binafsha (o'z.) – binafsha gulidek ko'rkam, nafis qiz (O'sha asar, 62-bet).

Binafsha turdosh ot sifatida (ft.) – Binafshadoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'tsimon o'simlik va uning bahorda ochiladigan to'q safsarrang xushbo'y gulining nomi⁵³.

⁴⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 2-жилд 507-бет

⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 4-жилд 61-бет

⁵¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 3-жилд 328-бет

⁵² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 178-бет

⁵³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 264-бет

Nilufar (hind.) – nilufar (savsan) o‘simligidek chiroyli, zebo qiz (O‘sha asar, 290-bet).

Qaldirg‘och (o‘z.) – qaldirg‘och uchib kelganda tug‘ilgan qiz yoki qoshlari qaldirg‘och qanotidek ingichka, nozik qiz (O‘sha asar, 538-bet).

Bobir (o‘z.) – manosi nomalum. Ba‘zi manbalarda: 1) yo‘lbars, arslon; 2) ulug‘, ulkan, buyuk; 3) tez gapiradigan ma‘nolarida talqin qilingan.

Bobil (ar.) – qaldirg‘och yoki qadimgi davrlarda Iroq mamlakatlarida mashg‘ur bo‘lgan shahar nomi (O‘sha asar, 63-bet).

Bodom (ft.) – bodom gullaganda tug‘ilgan bola yoki bodom kabi mustahkam bola (O‘sha asar, 65-bet).

Turdosh ot sifatida esa Bodom (ft.) – atirgullilar oilasiga mansub, sermoy mag‘zi iste‘mol qilinadigan daraxtning nomi⁵⁴

Olma (o‘z.) – olma gullaganda yoki pishganda tug‘ilgan qiz yoki “olmmagin”, ya‘ni o‘lmasin, yaashasin ma‘nosida (O‘sha asar, 320-bet).

Olcha (ft.) – olcha gullaganda yoki pishganda tug‘ilgan qiz (O‘sha asar, 322-bet).

Gilos (ft.) – shirin, yoqimtoy, dilkash yoki gilos gullaganda tug‘ilgan qiz (O‘sha asar, 91-bet).

Gilos turdosh ot sifatida (ft.) – atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik mevali daraxt va uning mevasi⁵⁵.

To‘r (o‘z.) – jasur, pahlavon (O‘sha asar, 436-bet).

Muhabbat (ar.) –do‘stlik, yaqinlik, suyuqli, mehribon qiz (O‘sha asar, 266-bet).

Muhabbat turdosh ot sifatida (ar.) – sevgi, ishq; shaxsning shaxsga nisbatan qalbdan berilish hissi, sevgi, ishq⁵⁶.

Asal (ar.) – bol, shirin, ya‘ni yoqimtoy qiz (O‘sha asar, 35-bet).

⁵⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 295-бет

⁵⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 295-бет

⁵⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 2-жилд 501-бет

Asal turdosh ot sifatida (ar.) – o‘simliklar gulidagi shiraning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo‘ladigan shirin suyuq oziq maxsulot⁵⁷

Arslon (o‘z.) – sher, yo‘lbars; kuchli, qudratli, dovyurak (O‘sha asar, 35-bet).

Arslon turdosh ot sifatida (–) mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher⁵⁸.

Ra‘no (ar.) – qizil guldek go‘zal, chiroyli, latofatli (O‘sha asar, 348-bet).

Anor (ft.) – badanida qizil xol, tamg‘a bilan tug‘ilgan qiz (O‘sha asar, 33-bet).

Anor turdosh ot sifatida (ft.) – anordoshlar oilasiga mansub kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o‘simlik; shu daraxtning mevasi⁵⁹

Bog‘bon (ft.) – sog‘-salomat ulg‘ayib, bog‘bon bo‘lsin (O‘sha asar, 75-bet).

Bog‘bon turdosh ot sifatida bog‘ni asrovchi, qo‘riqlovchi; bog‘dorchilik mutaxassisi⁶⁰.

Gul (ft.) – guldek chiroyli, go‘zal yoki umri yashnoq bo‘lsin (O‘sha asar, 91-bet).

Gul turdosh ot sifatida (ft.) – yopiq urug‘li o‘simliklarning urchish uchun xizmat qiladigan, gulband, kosachabarglar, tojbarglar, changchidan va urug‘chidan iborat qismi⁶¹.

Buloq (o‘z.) – hayoti chashmadek tiniq va davomiy bo‘lsin (O‘sha asar, 79-bet).

Buloq turdosh ot sifatida (o‘z) – yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunda suv chiqib turadigan joy, chashma⁶².

Bo‘ston (ft.) – umri bo‘ston (gulistondek) ko‘rkam va obod bo‘lsin, bo‘stondek yashnab o‘ssin yoki bo‘ston urug‘iga mansub bola (O‘sha asar, 83-bet).

Bo‘ston turdosh ot sifatida (ft.) – bog‘, tomorqa, poliz; gul bilan qoplangan, gul ekilgan maydon, gullab-yashnagan bog‘⁶³.

⁵⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 104-бет

⁵⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 100-бет

⁵⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 87-бет

⁶⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 350-бет

⁶¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 516-бет

⁶² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 370-бет

Bo‘ron (o‘z.) – bo‘ron payti tug‘ilgan ug‘il yoki bo‘ronboy urug‘iga mansub bola (O‘sha asar, 83-bet).

Bo‘ron turdosh ot sifatida (o‘z.) – to‘zon yoki qor-yomg‘ir aralash esadigan shiddatli shamol⁶⁴.

Bulbul (ft.) – shirin tili, so‘zga chechan, notiq bola (O‘sha asar, 79-bet).

Bulbul turdosh ot sifatida (ft.) – chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush⁶⁵.

Chinor (ft.) – chinordek basavlat va umri uzoq bo‘lsin yoki suyanchiq, ko‘makchi bola (O‘sha asar, 482-bet).

Tilla (ft.) – oltindek qimmatli, qadirli bola yoki boy-badavlat bo‘lsin (O‘sha asar, 411-bet).

Oltin (o‘z.) – tilladek qimmatli, aziz (O‘sha asar, 321-bet).

Kumush (o‘z.) – Mendellev davriy sistemasining 1-guruhiga mansub kimyoviy element, oq-ko‘kish rangli yaltiroq, asl metal⁶⁶.

Ism sifatida esa Kumush (o‘z.) – kumushdek qimmatli, qadirli qiz yoki oq yuzli, oq badan qiz (O‘sha asar, 189-bet).

Olmos (ft.) – olmosdek mustahkam va qimmatli bola (O‘sha asar, 320-bet).

Marjon (ft.) – suv ostidagi qoyalarga buta shaklida to‘da-to‘ad bo‘lib yopishib olib, qo‘zg‘almay yashovchi dengiz jonivori⁶⁷.

Marjon ism sifatida esa (ft.) – dur, inju, marvaridlar tizmi, qizil rangli yirik munchoq, marjondek qimmatbaho, suluv qiz (O‘sha asar, 211-bet).

Gavhar (ft.) – dur, marvariddek bebaho qiz yoki asl, aslzoda. Qadimda kishilar chaqaloqni balo-qazodan asraydi deb ishonishgan (O‘sha asar, 89-bet).

Gavhar turdosh ot sifatida (ft.) – qimmatbaho tosh; marvarid. Tarashlab sayqal berilgan olmos; umuman qimmatbaho toshlarning umumiy nomi⁶⁸.

⁶³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 420-бет

⁶⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 417-бет

⁶⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 369-бет

⁶⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 2-жилд 427-бет

⁶⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 2-жилд 544-бет

⁶⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 473-бет

Marvarid turdosh ot sifatida (ft.) – dur, inju; ba’zi molyuskalarning chig’anog’idan olinadigan oq, sarg’ish, qizg’ish, ba’zan qora qimmat baho donacha⁶⁹.

Marvarid ism sifatida esa (ft.) – dur, inju; qimmatli, bebaho qiz (O’sha asar, 210-bet).

Navoiy (ft.) – kuyga, qo’shiqqa mansub; buyuk o’zbek shoiri Alisher Navoiyga nisbat berilgan ism. Buyuk shoir Navoiyga o’xshasin, Navoiydek shuhrat topsin deb orzu qilingan (O’sha asar, 289-bet).

b) atoqli otlardan xosil bo’lgan ism, taxallus va laqablar.

Biz bilamizki tarixdan juda ko’plab olim va shoirlar o’z ismlaridan tashqari, o’zlariga taxallus tanlagan. Taxallusni biron bir motiv asosida tanlangan, ba’zan shoir yoki olimning qaerda tug’ilgani yoxud qaerda ijod qilgani e’tiborga olingan. Masalan, Ahmad al-Farg’oniy (asl ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad Kasir al-Farg’oni – Al-Farg’oniy 797-yil Farg’onada tug’ilgan⁷⁰), Farobiy (asil ismi Abu Nasr Farobiy – 873-yil Aris suvining Sirdaryoga quyilishda joylashgan Farob shahrida tug’ilgan⁷¹), Al-Xorazmiy (Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy – Xorazmda tug’ilgan), Mahmud Koshg’ariy (Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad – otasi Qoshg’arga ko’chib kelgan va Mahmud shu yerda tug’ilgan. Shuning uchun Qoshg’ariy nisbasini (laqabini) olgan⁷²), bundan tashqari joyga atab qo’yilgan nomlardan ko’plab taxalluslar xosil qilingan: Termiziy, Yassaviy, Samarqandiy, Namangoniy, Chustiy, Sheroziy, Xo’jandiy.

O’zbek ismlari orasida turli xil atoqli otlardan xosil bo’lga ismlar ham mavjud. Masalan,

Amir (ar.) – hokim, hukumdor; boshliq. Tarixda Buhoroda va ba’zi musulmon mamlakatlarida: xonlik, podisholik unvoni hamda shu unvon egasi⁷³ ga atab qo’yilgan nom.

⁶⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 2-жилд 542-бет

⁷⁰ Гадоев К. Бердиева С. Жаҳонгашта сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон. 2012. 20-бет

⁷¹ Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи 7-синф. – Т.: “Шарқ”. 2013. 75-бет

⁷² Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи 7-синф. – Т.: “Шарқ”. 2013. 59-бет

⁷³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 78-бет

Amir ism sifatida esa (ar.) – hokim, hukumron, yo‘lboshchi yoki Amr – hayot, tiriklik (O‘sha asar, 30-bet).

Toshkent – aslida joyga atab qo‘yilgan atoqli ot hisoblansada hozirgi kunda bu toponim antroponim vazifasida ham qo‘llanyapti.

Toshkan/Toshkanboy (o‘z.-sug‘d) – toshkentda tug‘ilgan yoki otasi (biror qarindoshi) Toshkentga ketganda tug‘ilgan bola (O‘sha asar, 421-bet).

Chust – Namangan viloyatidagi shaharga atab qo‘yilgan nomdan kelib chiqqan.

Chust (ft.) – aynan: chaqqon, shay, mohir, zebo yoki mahkam yoxud munosib, sazavor. Chustda tug‘ilgan bola, Chust farzandi (O‘sha asar, 484-bet).

Pomir – tog‘larning biriga atab qo‘yilgan nomdan olingan.

Pamir (ft.) – pomir tog‘i nomiga nisbat berilgan ism (O‘sha asar, 337-bet).

Cho‘lpon (o‘z.) – tong yulduzi, yorug‘ yulduz (Venera), ya‘ni tolei baland, saodatli bola (O‘sha asar, 484-bet).

Zuhra atoqli ot sifatida (ar.) – Quyosh sistemasidagi katta planetalardan biri – Veneraning arabcha nomi⁷⁴.

Zuhra/Zuhro ism sifatida (ar.) – aynan: nur, yorqin, ravshan. Cho‘lpon yulduzi. Zuhrodek nurli, ko‘rkam; baxt-saodat sohibi. Zuhro Muhammad (sav) ning qizi Fotimaning sifati (laqabi) bo‘lgan (O‘sha asar, 159-bet).

Hulkar – yetti qaroqchi yuuldizlaridan biriging nomi.

Hulkar antroponim sifatida (o‘z.) – tolei surayyo yulduzidek (etti qaroqchi yuuldizida) porlq bo‘lsin (O‘sha asar, 579-bet).

Doston atoqli ot sifatida (ft.) – qissa, hikoya; nazm bilan yozilgan ulkan hikoya, qissa; poemaga atab qo‘yilgan nom; xalq qahramonlari haqida nazm va nasrda aytilgan epik asar nomi⁷⁵.

Doston atoqli ot (ism) sifatida (ft.) – dovrug‘li, taniqli, mashhur. Bu nom Rustamning otasi Zolning (Firdavsiyning “Shohnoma”si qahramoni) laqabi bo‘lgan (O‘sha asar, 117-bet).

⁷⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 2-жилд 166-бет

⁷⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 1-жилд 649-бет

2.2. Yaxlitlangan (soʻz yasaliş qolipidan uzoqlashgan) antroponimlar

Bu guruhga kiruvchi antroponimlar tarixan ikki qismdan iborat boʻlib, har ikki qism ham maʼno anglatgan. Hozirda esa bunday antroponimlar alohida-alohida qismlarga ajratilsa bir qismi maʼno anglatib ikkinchi qismi yoki har ikki qismi maʼno anglatmaydi. Masalan, abdu-, abdi- antroponimlari tarixan oʻzi alohida ism boʻlib qoʻllangan boʻlsa, hozirda bu soʻz qoʻshma antroponimlar tarkibidan alohida holda shaxsga atab qoʻyilmaydi. Bu antroponimlar oʻzi qoʻshilib kelgan ism bilan birga talaffuz qilinadi va maʼno anglatadi.

-bek leksemasi ham tarixan oʻzi alohida hukumdor, hokim, boshliq va oʻtmishdagi maxsus mansabning nomlaridan birini anglatgan boʻlsa, hozirda turli atoqli, turdosh otlar va boshqa leksemalar tarkibida qoʻllanib, ularda qoʻshimcha maʼno anglatadi. Oʻzi alohida maʼno anglatmaydi.

Abdumalik (ar.) – podshohning, yaʼni Allohning quli (Oʻsha asar, 15-bet).

Abdugʻaffor (ar.) – aybu nuqsonlarini fosh qilmay yopib turuvchi, kechiruvchining, yaʼni Allohning quli (Oʻsha asar, 19-bet).

Abdumulk (ar.) – hukumdorning, podshohning quli (Oʻsha asar, 15-bet).

Doniyor (ft.) – yaqinlar, do‘stlar yoki bilimli, dono yoki (qad.yah.) Allohning ehsoni, sovg‘asi, marhamati (O‘sha asar, 116-bet).

Durkunay (o‘z) – savlatli, salobatli (durkun) qiz bo‘lib o‘ssin (O‘sha asar, 119-bet).

Gulsano (ft.-ar.) – guldek go‘zal va maqtovgga sazovor qiz (O‘sha asar, 100-bet).

Gulafzo (ft.) – gul egasi, gullar oshig‘i⁷⁶.

Dilshod (ft.) – quvnoq, baxtiyor, shodon yoki ko‘nglimizning quvonchi bo‘lgan farzand⁷⁷.

Do‘ngboy (o‘z.) – do‘ng (tepa) dek baland martabali bo‘lsin yoki tepadek mustahkam tursin⁷⁸.

Do‘ltaboy (o‘z.) – afsonaviy mahluqdek (bo‘riga o‘xshash yirtqich) dovyurak va qudratli bo‘lsin⁷⁹.

Gulanbar (ft.-ar.) – nafis, yoqimli hamda guldek go‘zal qiz⁸⁰.

Gulandoz (ft.) – gul kabi bezangan, gulmonand, gulchehra.⁸¹

Gulandom (ft.) – gulbadan, gulqad, gulbichim, xushbechim, nozik badan, nozanin, go‘zal, latofatli⁸².

Gulxad (ft.) – gulsurat, yonog‘i guldek go‘zal, ya’ni jozibador, dilbar qiz.

Gulxiroj (ft.-ar.) –iltifot qilib qarzga berilgan guldek chiroyli qiz yoki ona yerning guldek farzandi⁸³.

Gulshoyon (ft.) – guldek ko‘hlik va maqbul, munosib qiz⁸⁴.

Davqora (o‘z.) – katta jasorat egasi, mard, jasur bola yoki to‘ng‘ich qora bola⁸⁵.

⁷⁶ Бегматов Э. Ўша асар. 92-бет.

⁷⁷ Бегматов Э. Ўша асар. 114-бет.

⁷⁸ Бегматов Э. Ўша асар. 120-бет.

⁷⁹ Бегматов Э. Ўша асар. 120-бет.

⁸⁰ Бегматов Э. Ўша асар. 92-бет.

⁸¹ Бегматов Э. Ўша асар. 92-бет.

⁸² Бегматов Э. Ўша асар. 92-бет.

⁸³ Бегматов Э. Ўша асар. 102-бет.

⁸⁴ Бегматов Э. Ўша асар. 104-бет.

⁸⁵ Бегматов Э. Ўша асар. 107-бет.

Zuljalol (ar.) – buyuk martaba, sharaf egasi⁸⁶.

Zuljamol (ar.) – ulugʻ, qadirli, eʻtiborli; nafosat sohibi⁸⁷.

Ibniali (ar.) – Alining oʻgʻli, farzandi⁸⁸.

Ibniumar (ar.) – Umarning oʻgʻli, farzandi⁸⁹.

Ibniyamin (ar.) – Yamingning oʻgʻli, farzandi⁹⁰.

Zoʻrali (ft.-ar.) – Zoʻr va Ali yoki kuchli, qudratli oʻgʻilni Ali qoʻllab yursin⁹¹

2.3. Qoʻshma antroponimlar

Oʻzbek antroponimlar xosil boʻlish turlaridan yana bir koʻrinishi ikki leksemaning qoʻshuluvidan xosil boʻlishi mumkin. Bunday yaasalishning ham qismlarning qanday soʻz turkumlaridan yasalishiga koʻra turlarga boʻlish maqsadga muvofiqdir. Biz ushbu ishimizda ot soʻz turkumidan yasalgan qoʻshma antroponimlarga eʻtibor qaratdik. Bunda biz qoʻshma antroponimlarning qismlari qanday otlardan yasalishini hisobga olib quydagi turlarga boʻldik:

- 1) har ikki qismi turdosh otdan yasalgan antroponimlar;
- 2) bir qismi turdosh, bir qismi atoqli otlardan yasalgan antroponimlar;
- 3) har ikki qismi atoqli otlardan yasalgan antroponimlar.

- 1) Har ikki qismi turdosh otlardan xosil boʻlgan antroponimlar.

Boʻrigul (oʻz.) – (boʻri+gul) boʻri nomining ayollar ismi shakli⁹².

Boʻritosh (oʻz.) – (boʻri+tosh) Boʻri jagʻidan oʻtkazilgan va toshdek mahkam qiz⁹³.

⁸⁶ Бегматов Э. Ўша асар. 157-бет.

⁸⁷ Бегматов Э. Ўша асар. 157-бет.

⁸⁸ Бегматов Э. Ўша асар. 160-бет.

⁸⁹ Бегматов Э. Ўша асар. 160-бет.

⁹⁰ Бегматов Э. Ўша асар. 160-бет.

⁹¹ Бегматов Э. Ўша асар. 159-бет.

⁹² Бегматов Э. Ўша асар. 82-бет.

⁹³ Бегматов Э. Ўша асар. 82-бет.

Bo'stongul (o'z.-ft.) – (bo'ston+gul) bo'stonga mansub gul; chiroyli, zeb qiz⁹⁴.

Bo'stonqul (ft.-o'z.) – (bo'ston+qul) – Allohning bo'stondek ko'rkam bandasi yoki bo'ston urig'iga mansub bola⁹⁵.

Gulbodom (ft.) – (gul+bodom) bodom gulidek dilbar, bodom qovoq qiz; bodom gullaganda tug'ilgan qiz⁹⁶.

Boshpo'lat (o'z.-ft.) – (bosh+po'lat) boshi po'latdek mustahkam bo'lib, uzoq yashasin⁹⁷.

Yo'ltemir (o'z) – (yo'l+temir) Alloh umrini berib, temirdek mahkam, mustahkam bo'lsin yoki yo'lda (safarda) tug'ilgan va temirdek chidamli, mahkam bola⁹⁸.

Gulbahmal, Gulbahor, Gulbarchin, Gulbog', Gulvafo, Gulbuvi, Guljayron, Dursadaf, Jonpo'lat, Kumushgul.

2) Bir qismi turdosh, bir qismi atoqli otdan xosil bo'lgan antroponimlar

Gulbahrom (ft.) – (gul+bahrom) “gul” – guldek chiroyli, go'zal yoki umri guldek yashnoq bo'lsin; “bahrom” – mirrix (mars) sayyorasining nomidan. U baxt-saodat timsoli hisoblanadi yoki bahrom (qadimgi eron shohlaridan biri)dek mard, jasur bo'lsin⁹⁹.

Dinmuhammad (ar.) – (din+Muhammad(sav)) musulmon, xudojo'y bola yoki Muhammad(sav) diniga mansub bola¹⁰⁰.

Doniislom (ar.) – (din+islom) islom dini farzandi, musulmon¹⁰¹.

Durmuhammad, Do'stmuhammad, Bog'muhammad, Buvamuhammad, Dadaahmad, Kumushali,

3) Har ikki qismi atoqli otlardan xosil bo'lgan antroponimlar

⁹⁴Бегматов Э. Ўша асар. 83-бет.

⁹⁵Бегматов Э. Ўша асар. 83-бет.

⁹⁶Бегматов Э. Ўша асар. 93-бет.

⁹⁷Бегматов Э. Ўша асар. 74-бет.

⁹⁸Бегматов Э. Ўша асар. 177-бет.

⁹⁹Бегматов Э. Ўша асар. 93-бет.

¹⁰⁰Бегматов Э. Ўша асар. 115-бет.

¹⁰¹Бегматов Э. Ўша асар. 115-бет.

Idimuhammad (ar.) – Hayit kuni tug‘ilgan o‘g‘ilni Muhammad(sav) o‘z panohiga olsin¹⁰².

Idrsali (qad.yah.-ar.) – Idris va Ali ismlarining qo‘shilmasidan xosil bo‘lgan¹⁰³.

Ikromali (ar.) – Ikrom va Ali ismlarining birikuvidan yasalgan.

BOB YUZASIDAN QISQA XULOSALAR

1. Antroponimlarning shakllanish usullari o‘ziga xos bo‘lib, ular ifodalanishiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Ya’ni turdosh otlardan hamda atoqli otlardan hosil bo‘ladi.

2. Antroponimlarni tuzilishiga sodda so‘zlardan hosil bo‘lgan antroponimlar, yaxlitlangan antroponimlar, qo‘shma antroponimlar kabi guruhlariga bo‘linadi.

3. Yaxlitlangan antroponimlar tarixan ikki qismdan iborat bo‘lib, har ikki qism ham ma’no anglatgan. Hozirda esa bunday antroponimlar alohida-alohida qismlarga ajratilsa, bir qismi ma’no anglatib ikkinchi qismi yoki har ikki qismi ma’no anglatmaydi. Masalan, abdu-, abdi- antroponimlari tarixan o‘zi alohida ism bo‘lib qo‘llangan bo‘lsa, hozirda bu so‘z qo‘shma antroponimlar tarkibidan alohida holda shaxsga atab qo‘yilmaydi. Bu antroponimlar o‘zi qo‘shilib kelgan ism bilan birga talaffuz qilinadi va ma’no anglatadi.

¹⁰² Бегматов Э. Ўша асар. 161-бет.

¹⁰³ Бегматов Э. Ўша асар. 161-бет.

4. O'zbek antroponimlar hosil bo'lish turlaridan yana bir ko'rinishi ikki leksemaning qo'shuluvidan hosil bo'lishi mumkin. Bunday yasashning ham qismlarning qanday so'z turkumlaridan yasashiga ko'ra turlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

5. Qo'shma antroponimlarning qismlari qanday otlardan yasashiga ko'ra olib quyidagi turlarga bo'linadi:

- har ikki qismi turdosh otdan yasalgan antroponimlar;
- bir qismi turdosh, bir qismi atoqli otlardan yasalgan antroponimlar;
- har ikki qismi atoqli otlardan yasalgan antroponimlar.

3. ANTROPONIMLARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI

3.1. Antroponimlarning shakllanishida morfemalarning semantik va uslubiy xususiyatlari

Keyingi yillarda tilshunoslikda sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bu tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, lingvistik faktlarga avtanom holda yondoshmay, har qaysi hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e'tibor beriladi. Tadqiqotchi diqqati ko'proq lingvistik hodisalar o'rtasidagi munosabatni yoritishga qaratiladi.

Struktur tilshunoslikning otasi hisoblangan F.de Sossyur tilshunoslar diqqatini lingvistik birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, munosabatning paradigmatic va syntagmatic turlari mavjudligini ko'rsatgandi¹⁰⁴.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda tildagi atoqli otlar anglatuvchi ob'ektlar moddiy, tabiiy va suniy, xayoliy, real va afsonaviy, dunyoviy yoki diniy bo'lishi, ular quruqlikda va suvlikda, er yuzasi yoxud er ostida, aksincha, fazo(samo)da joylashgan ob'ektlar bilan motivlangan bo'lishligini anglashimiz mumkin.

Mazkur ishimizda biz antroponimlarni semantikasi bilan birga, ularning motivatsiyasiga etibor qaratganmiz. Ishimizning uchinchi bobida antroponimlarning o'z navbatida "shaxs" arxisemali leksemalar ekanligiga, balki yuqoridagi singari mazmuniy guruhlariga ajratib, ularning yaratilishiga sabab bo'lgan motivlar, ularning umumiy va xususiy, birlashtiruvchi va farqlovchi tomonlarini tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Izohli lug'atlarda personal so'zining xodimlar, idora xodimlari, shaxslarga nisbatan qo'llanilishi etirof etiladi¹⁰⁵. Shunga ko'ra "shaxs" semasi bilan umumlashgan antroponimlari personallik maydoniga mansub bo'ladi. O'zbek tilida ushbu mikromaydonga mansub birliklar tilning turli sathlarida kuzatiladi.

¹⁰⁴ Абдулҳамид Нурмонов Танланган асарлар. Тошкент; "Академнашр" 2012 й. III том 60 бет.

¹⁰⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3 том, 2007. –Б.247; Русча-ўзбекча луғат. 2 том. Тошкент: 1984, - 53-бет.

Jumladan, morfemik sathda affiksal morfemalar yoki leksik morfemalar tarkibida ularning turlicha guruhlarini belgilash mumkin.

Personallik maydoniga mansub bo‘lgan morfemik birliklar sirasiga o‘zbek tilidagi shaxs nomlarini shakl hosil qiluvchi ayrim birliklarni kiritish mumkin. Jumladan, “shaxs” semali otlarni hosil qilishda ishtirok etuvchi -chi, -kor, -soz, -paz, -xon, -do‘z, -shunos singari morfemalar shaxs mikromaydon elementi sanalishi mumkin. O‘zbek tilshunosligida shaxs otlari yasovchi affikslar, ularning ayrim ma’no xususiyatlari borasida professor Yo.Tojievning fikrlari e’tiborga molik¹⁰⁶, shuningdek, R.Saloevning tadqiqoti ham yuqoridagi masalaga bag‘ishlangan¹⁰⁷.

Bundan tashqari morfemik sathda antroponimlarni yuzaga kelishi va ulardagi turli xil ma’no qirralarini ochish uchun xizmat qiladigan ba’zi formalar mavjud. Masalan: abdu,abdi,bek, begim, beka, bibi, bibish, bi,bobo, boy, bonu, buva, buv, bu, gul, dada, yor, jon, zoda, zod, mirzo, momo, moh, mulla, murod, mo‘min, nazar, niyoz, nisa, niso, nor, nur, oy, oyim, oxun, pochcha, sayyid, said, sulton, toy, tosh,to‘ra, xol, xon, qon, xonim, xonum, shayx, shoy, qul, qo‘zi, hoji va boshqalar kabi¹⁰⁸.

Abdi, abdu – qul, g‘ulom; banda; sig‘inuvchi, itoat qiluvchi. Masalan, Abdunodir, Abduqodir, Abdulatif, Abdurasul, Abdug‘ani, Abduvali.

Begim – bek farzandi, beklar avlodiga mansub, bekszoda; shahzoda; hokim, hukmdor; podshohning xotini yoki qizi; malika, bekszoda; xonim, beka, oyim; yuksak martabali, aslzoda. Ism tarkibida hurmat ma’nosida keladi. Masalan, Nodirmohbegim, Gulbadanbegim, Xonzodabegim.

Bobo – buva, ota yoki onaning otasi. Ba’zan aziz, muqaddas avliyo, pir ma’nosida ham keladi. Bobosining ismi berilgan bola, bobosining ismi bilan atalgan yoki bobosidek ko‘p umr ko‘rsin ma’nosida qo‘shiladi. Masalan,

¹⁰⁶ Тожиев Ё. Ўзбек тилида шахс отлари ясовчи аффикслар синонимияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1987.

¹⁰⁷ Салоев Р.Б. Ўзбек тилида исми фоллар: Филол.фанлари.номзоди... – дисс.автореф. Самарқанд, 1994.

¹⁰⁸ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 582-586-бетлар.

Qobilbobo, Asrorbobo, Asilbobo, Hojibobo, Bobo(fors-tojik, marhum buvasi, bobosining ismi berilgan bola. Bobo – arabcha – ota, diniy rahnamo, ulugʻ shayx), Boboali(bibisini ismini olgan bolaga Ali yor boʻlsin maʼnosida), Boboahmad, Bobobek, Bobodoʻst.

Boy – asli boylar, badavlatlar avlodiga mansublik; boy-badavlat, hukmron janob. Ism tarkibida bolaga toʻqlik, farovonlik tilash, hurmat, ehtirom maʼnolarida keladi. (Bazan erkalash manosida ham kelishi mumkin). Masalan, Inomboy, Salimboy, Odilboy, Boy, Boyali, Boybek, Boyberdi, Boybeka, Boyboʻri, Boygul, Boymaqom(oʻz-ar. – oliy martabali, mansabli; izzat-obroʻli)¹⁰⁹, Boysariq(oʻz. – sariq sochli oʻgʻil ulgʻayib badavlat boʻlsin)¹¹⁰, Boyxoʻroz(oʻz-ft. – qizil xolli (tojli) bola boy-badavlat boʻlsin)¹¹¹, Boyoʻgʻli (oʻz. – boyning farzandi; boyoʻgʻli urugʻiga mansub bola yoki boyoʻgʻli(qush)dek uzoq yashovchi boʻlsin)¹¹², Boyqoʻzi (oʻz. – qoʻy-qoʻzilar moʻl badavlat boʻlsin yoki qoʻylar qoʻzilayotgan paytda tugʻilgan bola)¹¹³.

Gul – guldek koʻrkam, goʻzal; zebo; hayoti guldek yashnagan, obod boʻlsin maʼnolarini anglatadi. Gul – nafasat, noziklik, masumlik, sohibjamollik ramzidir. Gul, Guloyim, Gulali, Gulanor, Gulandom, Gulafroʻz, Gulbayoz, Gulbarchin, Gulbegim, Gulbeka, Gulbibibi, Gulbodom, Guljahon(ft. – aynan: olam guli, olamdagi eng goʻzal qiz yoki guldek goʻzal qizning hayoti jahondek keng va farovon boʻlsin)¹¹⁴, Guldavlat(ft-arab. – guldek koʻrkam qiz boy, davlatli boʻlsin yoki ota-onasining davlati boʻlgan guldek koʻrkam qiz)¹¹⁵, Oygul, Bodomgul(ft. – bodom gulidek goʻzal, zebo qiz yoki bodom gullaganda tugʻilgan qiz)¹¹⁶.

Moh – oy; oydek goʻzal, chiroyli oy yuzli. Oydinda, yangi oy chiqqanda yoki oy toʻlishgan kunda tugʻilgan qiz¹¹⁷. Moh (ft.) – oy, oydek, suluv qiz¹¹⁸,

¹⁰⁹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 67-бет.

¹¹⁰ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 68-бет.

¹¹¹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 69-бет.

¹¹² Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 69-бет.

¹¹³ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 70-бет.

¹¹⁴ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010.. 95-бет.

¹¹⁵ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 94-бет.

¹¹⁶ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 65-бет.

¹¹⁷ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 584-бет.

¹¹⁸ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 249-бет.

Mohak (ft.) – jajji, kichkina oy, yangi chiqqan oy¹¹⁹, Mohbegim(ft-o‘z) – aslzodalar naslidan bo‘lgan oydek suluv qiz¹²⁰.

Murod – tilak, orzu, maqsad. Ismlar tarkibida tilab olingan, armon qilib yurib topilgan, istalgan, xohlangan bola, murod-maqsadli bola; tuhfa, sovg‘a, iltifot, inom, ma‘nolarini ifodalaydi¹²¹. Murod (ar) – murod-maqsadli yoki orzu qilingan, qo‘msalgan bola¹²², Murodbek (ar-o‘z) – beklar nasliga mansub murod-maqsadli bola¹²³, Murodnafas(ar.) – Allohning yoki sig‘inilgan, iltijo qilingan muqaddas joyning) qudrati bilan dunyoga kelgan bola¹²⁴.

Mo‘min – Allohi taoloning nomi (sifati) bo‘lib kelganda bandalari xavfsizligini taminlovchi, himoyachi, muhofazakor ma‘nolarini anglatadi. Ismlar tarkibida ko‘proq ishongan, imon keltirgan, musulmon; dindor, itoatkor. Allohning quli, codiq xizmatkori ma‘nosida keladi. Abdumo‘min (ar.) – omonlik va najot beruvchining, himoya qiluvchining, ya‘ni ollohning quli¹²⁵, Qulmo‘min (o‘z.-ar.) – Allohning yuvosh, mo‘min-qobil bandasi¹²⁶.

Nazar – 1) ko‘z qarash, nigoh. Ismlar tarkibida etirof, iltifot, muruvvat, shavqat ma‘nolarini anglatadi. Ba‘zi ismlarda sovg‘a, ehson, tuhfa tushunchalarini ham ifodalaydi. Bu hollarda Allohning, payg‘ambarning, aziz avliyolarning g‘amxo‘rligi ko‘zda tutiladi. 2) qadimiy yaxudiycha o‘zini xudoga bag‘ishlagan, xudojo‘y, taqvodor; o‘zini tutib olgan, vazmin, kamtarin ma‘nolarini anglatadi. Masalan, Nazarbek (ar.-o‘z.) – beklar naslidan bo‘lgan Alloh nazar qilgan bola¹²⁷. Nazarberdi(ar.-o‘z) – Allohning iltifoti, nazari tufayli topilgan bola¹²⁸, Qulnazar(o‘z.-ar.) – Allohning e‘tibori (nazari) tushgan bola, Allohning iltifoti, muruvvati tufayli tug‘ilgan bola¹²⁹

¹¹⁹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 249-бет.

¹²⁰ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 249-бет.

¹²¹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 584-бет.

¹²² Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 258-бет.

¹²³ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 258-бет.

¹²⁴ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 259-бет.

¹²⁵ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 16-бет.

¹²⁶ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 551-бет.

¹²⁷ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 281-бет.

¹²⁸ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 281-бет.

¹²⁹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 551-бет.

Niyoz – to‘rt xil farqli ma’nolarga ega: a) yolvorib, iltimos, iltijolar qilib yurib yetishilgan; b) xohlangan, kutilgan, orzu qilingan; v) marhamat, shafqat qilib berilgan; tuhfa, inom ehson; g) nazar qilingan, baxshida qilingan. Murodniyoz (ar.-ft.) iltijo qilib, yalinib, yolvorib yurib topilgan bola¹³⁰, Qulniyoz (o‘z.-ft.) – Allohdan yolvorib, so‘rab olingan bola yoki Allohning tuhfası, sovg‘asi¹³¹.

Oy – ayollar ismi tarkibida go‘zal, chiroyli, erkaklar ismida baxtli, tolei baland ma’nolarini anglatadi. Ba’zi ismlar tarkibida yangi oy tuqqanda yoki oy to‘lishgan kunda tug‘ilgan bola ma’nolarini ham ifodalaydi. Oyqiz (o‘z.-ar.) – oydek suluv, yorqin hamda tolei baland qiz yoki oy farzandi, Oyqosh (o‘z.) – qoshlari oydek (kamondek), qiyg‘och qoshli qiz yoki avvalgi bolalarga chirmashib (oyqashib) ketsin¹³²

Tosh – ismlar tarkibida mahkam, mustahkam, joni qattiq bo‘lsin, ya’ni yashasin ma’nolarini anglatadi. Bazan o‘zi ham atoqli ot sifatida qo‘llanishi mumkin. Tosh (o‘z.) – joni toshdek mustahkam bo‘lsin, ya’ni yashasin, tursin; Toshali, Toshbek, Toshboy, Toshbo‘ri, Toshbotir¹³³.

Qo‘zi – yosh, jajji, kichkintoy; aziz, qadirli ma’nolarida bolani suyish, erkalash ma’nolarini anglatadi. Ba’zi nomlar tarkibida qo‘ylar qo‘zilayotgan paytda tug‘ilgan bola, sog‘ ulg‘ayib qo‘y-u qo‘zilari ko‘p, boy- badavlat bo‘lsin ma’nolarida ham keladi. Boyqo‘zi (o‘z. – qo‘y-qo‘zilar mo‘l badavlat bo‘lsin yoki qo‘ylar qo‘zilayotgan paytda tug‘ilgan bola)¹³⁴

Hoji – Kabani ziyorat qilgan, haj qilgan shaxs va mana shunday shaxsning faxriy unvoni, laqabi. Ismlar tarkibida hojilar oilasiga, avlodiga mansub bola, hojining farzandi manolarini ham anglatadi. Mirhoji - (arabcha) hojilar nasliga mansub o‘g‘il ulg‘ayib baland martabalar sohibi bo‘lsin¹³⁵.

¹³⁰ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 259-бет.

¹³¹ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 551-бет.

¹³² Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 318-бет.

¹³³ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 420-421-бет.

¹³⁴ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 70-бет.

¹³⁵ Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 246-бет.

3.2. Antroponimlarning uslubiy xususiyatlari

Ushbu bobda ismlarning o'ziga xos ma'noviy va uslubiy xususiyati atroflicha tadqiq qilindi. Asrimizning 70 yillaridan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari xaqida tadqiqotlar yuzaga kela boshladi va ular quyidagi atamalar bilan nomlandi: adabiy onomastika, poetik onomastika, uslubiy onomastika, onomapoetika yoki so'zlovchi ismlar. Badiiy asarlardagi antroponimlar o'z mohiyatiga ko'ra, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarning tadqiq ob'ekti xisoblanadi. Adabiyotshunoslar asarning qahramonlari va prototiplari, badiiy-tasviriylar usullari va manbasini tadqiq qilishda antroponimlarga murojat qilishsa, tilshunoslar qahramon ismining real yoki to'qimaligini, uning nominativ va uslubiy ma'nolarini, antroponimlarning badiiy asarda tutgan o'rnini va ahamiyatini o'rganishadi. Badiiy asardagi ismlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liqroq ochish uchun tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining o'zaro birlashgan nuqtasi lingvostilistikadan foydalanildi.

Bunda badiiy asarlaridagi antroponimlarning uslubiy, ya'ni konnotativ ma'nolari ochib berildi.

Ma'lumki, ismlarning kommunikativ vazifasi atash, nominatsiyadir. Ammo adabiy asarlar tilida ismlar boshqa lug'aviy birliklar singari o'ziga xos uslubiy, ekspressiv vazifalarni ham bajarib keladi.

Badiiy asarlardagi, xususan, nasriy asarlardagi ismlarning uslubiy xususiyatlari o'zbek tilshunosligida yaqindan boshlab o'rganila boshladi. Ayniyning tili yuzasidan tadqiqot olib borgan E.Qilichevning fikricha yozuvchining deyarli barcha asarida antroponimlar tasvirlanayotgan vokeani badiiy aks ettirish uchun xizmat qilgan. Uning asarlarida so'zlanmaydigan ism va laqab yo'q desa bo'ladi. Har bir antroponim tasviriyl bo'lib, nimanidir aks ettiradi. Y.Solijonov va S.Mo'minov badiiy asardagi antroponimlarga bag'ishlangan maqolasida ismlarning yozuvchi g'oyaviy niyatini oydinlashtirishdagi ahamiyatini o'rinli uqtirishgan: "yozuvchilar qahramonning ruxiy dunyosini ochish, xarakterkning mohiyatini, voqealar ro'y berayotgan teritoriyani aniqlash, MILLIY

o‘ziga xoslikni ta’minlash maqsadida qahramonlarning ism-familiyalariga aloxida e’tibor berganlar”.

Darhaqiqat yozuvchi oldidagi eng murakkab vazifalardan biri asar qahramonlarining o‘ylab chiqilgan dunyosini ochib berish hisoblanadi. Shuningdek, ijodkor o‘ylab topgan obrazning asar mazmuniga mos bo‘lishi talab etiladi. Chunki asarda ularning hayotiy taqdiri ifoda etiladi. Agar yosh bola obrazini tasvirlash zarur bo‘lsa, uning kelajakdagi qiyofasini ham tasavvur etish zaruriyati yuzaga keladi. Bularning barcha jihatlari muallifga oldindan ma’lum bo‘ladi¹³⁶. Badiiy asar oldiga qo‘yiladigan talablardan biri esa asar qahramonlariga ularning ichki dunyosini ochib beradigan yoki unga ishora qiladigan ism berish hisoblanadi. Badiiy asar qahramonlari va ularning ismlari adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tilshunoslikning onomastika bo‘limida ham o‘rganiladi. Agar adabiyotshunoslik badiiy asar qahramon-larining “ismi jismiga mosligini” badiiy asar qonuniyatlaridan kelib chiqib o‘rgansa, tilshunoslikda leksik birlik sifatida motivativ va semantik uyg‘unlik muammolari tadqiq etiladi. Chunki onomastik semantika – bu semantikaning alohida turi bo‘lib, til va nutq sohasida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Onoma semantika atoqli otlarda mavjud bo‘lgan axborotdan barpo bo‘lib, uning til, nutq va alohida onomastik jihatiga bog‘liq holda stilistik va estetik ahamiyat kasb etadi. Biroq atoqli otlarning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ularning lug‘aviy ma’no ifodalashi borasidagi qarashlar turlicha bo‘lib, bunday qarashlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga atoqli otlarning leksik ma’no ifodalamasligini ilgari surgan tadqiqotchilar kirsar, ikkinchi guruhga atoqli otlar ham lug‘aviy ma’no ifodalashini ilgari surgan tadqiqotchilar kiradi. Birinchi guruh tarafdorlari atoqli otlar umumlashtiruvchi ma’noga ega emasligini, ular faqat farqlash vazifasini bajarishini asos qilib olsalar, ikkinchi guruh tarafdorlari atoqli otlar ham so‘z sifatida lug‘aviy ma’no ifodalashi zarurligini ta’kidlash bilan o‘z fikrlarini asoslaydilar. Ularning fikricha atoqli otlarning (antroponimlarning) lug‘aviy ma’nosini “shaxs”, “jins”, “millat”,

136

Кухаренко В. А. О системном характере антропонимии национальной художественной литературы // Шоста Республіканська ономастична конференція 4-6 грудня. 1990 року: Тези доповідей і повідомлень. ТІ, Одеса, 1990. – С. 124-125.

“ijtimoiy kelib chiqish”, “ijtimoiy fikr” mazmunlari tashkil etadi¹³⁷. Badiiy asarda antroponim o‘zining semantik ko‘lamiga ko‘ra bevosita va bilvosita xususiyatga ega bo‘lib, bu jihat kontekst yoki etimologiya orqali ko‘zga tashlanadi. Ko‘p hollarda esa badiiy asarda taxalluslar motivlashtiriladi va bular antroponimning eng motivlantirilgan ko‘rinishi hisoblanadi¹³⁸. Chunki bunda taxallus ijodkorning kasbi, ijtimoiy kelib chiqishi va joy-makon kabi motivlar asosida tanlanadi. Masalan, Navoiy, Foni, A.Yassaviy, Forobiy, M.Qoshg‘ariy, Sakkokiy (pichoqchi), Yusuf Xos Xojib, Ogahiy, Feruz, Chustiy, Mashrab, Furqat, Amiriy, Fitrat va boshqalar.

Badiiy personajning dunyoqarashini tasvirlash uning ismi sharifi bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi. She‘riy asarlardagi antroponimlarda, qahramon ismi va sharifi syujet va g‘oya bilan bog‘liq holda muallif tomonidan tanlab olinadi va bu hol ekspressivlikni kuchaytiradi hamda qahramonning ichki dunyosi va uning badiiy asar syujetidagi faoliyatiga, asar g‘oyasiga ishora qiladi. Jumladan, A.Qahhorning “Asror bobo”, “O‘g‘ri”, Oybekning “Qutlug‘ qon” kabi asarlarining bosh qahramonlari (Asror – ar. Sir, yashirin, maxfiy yoki ko‘p narsadan xabardor, purhikmat¹³⁹; “Qobilbobo” – ar. Yovvosh, tarbiya ko‘rgan¹⁴⁰; “Yo‘lchi – o‘z. Hamroh, do‘st, esh yoki yo‘l ko‘rsatuvchi, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi; boshliq, sarkor”¹⁴¹) nomini keltirishimiz mumkin.

Badiiy adabiyotda qahramonlarga nom yoki ism tanlashda an‘anaviylik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi: yozuvchi milliy ismlarga tayanadi, o‘z fikridagi assotsiatsiya hamda ba‘zi hollarda etimologik mazmunni ham unutmaydi. Ismlar ta‘rifi hatto hodisa sodir bo‘layotgan ijtimoiy davr va joyni anglab olishga ham yordam beradi. Masalan, – Dada! Nega mening otimni Mauzer qo‘ygansiz? Nima? Men to‘pponchamanmi? Men bilan birovni otmoqchimisiz?

137

Иванцова Е. В. Семантическая трансформация имени собственного в лексике и фразеологии современного русского языка. Автореф. дисс. ... канд. фил. наук / Е. В. Иванцова – М, 1998. – 15 с. Катермина В. В. Личное имя собственное: национальные культурные особенности функционирования (на материале русского и английского языков): Авторефератк. ф. н. Краснодар, 1998. – 19 с.

138

Фонякова О. И. Имя собственное в художественном тексте: Учебное пособие / О. И. Фонякова. – Л., 1990. – 104 с.

139

Э.А.Бегматов “Ўзбек исмлари”. Тошкент: 2010. 37-бет.

140

Э.А.Бегматов “Ўзбек исмлари”. Тошкент: 2010. 543-бет.

141

Э.А.Бегматов “Ўзбек исмлари”. Тошкент: 2010. 177-бет.

–Ahmoq! Men sening quroldek kuchli bo‘lishiningni xohlayman, bildingmi?¹⁴²

Aslida bu ism yozuvchining badiiy niyatidan kelib chiqqan holda asarga olib kirilgan. Komissar mustabid tuzum “o‘lim mashinasi”ning bir murvati edi, xolos. U o‘z millatining kushandasiga aylangan qotil, boshqacha aytganda, o‘sha tuzum va siyosatning “to‘pponcha”si edi.

Bu borada tadqiqot olib borgan Y.Solijonov va S.Mo‘minovlar yozuvchi o‘z asariga voqea ro‘y berayotgan joy ayni shu yerlik aholi uchun xarakterli bo‘lgan ismlarni tanlashini ta’kidlar ekan, ismlarning funksiyasi (komunikativ funksiyasi) haqida fikr bildiradilar.¹⁴³

Bundan tashqari, badiiy asarda qahramonlarga ism tanlashda “Ismi jismiga mos” naqliga ham e’tibor qaratiladi. Bunda yozuvchi o‘z qahramoni xarakteriga mos ismni tanlay bilishi kerak. Shundagina asarning mazmun va g‘oyasini to‘la yoritishga muvassar bo‘linadi. O‘zbek adabiyotida A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor va boshqalar asarlarida buning yorqin ifodasini ko‘rish mumkin. A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanidagi O‘zbekoyim antroponimi (o‘zbekcha – o‘zbeklarning baland martabali farzandi)¹⁴⁴ asarda qahramon xarakteriga to‘la mos bo‘lib, ana shu obraz uchun kerak bo‘lgan xususiyatni ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Yusufbek xoji obrazi ismining ma’nosi ham chiroyli bo‘lib, uning harakteri yumshoq, xalqqa yaxshilik qidadigan shaxs, farzandiga va kelinlariga nihoyatda halimlik bilan munosabatda bo‘ladi.

Navoiyshunos olim A.Rustamovning fikricha, “Navoiy dostonlarida qahramonlarning nomlari xam ularning o‘zlariga uyg‘unlashtirilgan. Shaxslarning shaklu shamoyili va fe’lu atvori ularning ismlarida ham aks ettirilgan”. Badiiy asarlardagi ismlar qahramonning millati, yurti, tashqi qiyofasi, ruhiyati, kasbi hamda asarning umumny g‘oyasi asosida tanlangan. Masalan, Tohir Malik “Shaytanat” qissasidagi bosh qahramon ismining o‘zi uning harakterini

¹⁴² Ў.Ҳошимовнинг “Тушда кечган умрлар” 148-бет

¹⁴³ Й.Солижонов ва С.Мўнинов, Бадий асарларда исмининг айрим функциялари, Ўзбек тили ва адабиёти журнали Фан нашриёти. 1984 й. 2-сон 48 бет.

¹⁴⁴ Э.А.Бегматов “Ўзбек исмлари маъноси”. Тошкент: 2010. 197-бет.

psihologiyasini ochib berish uchun xizmat qiladi. Chunki birinchidan, Asadbek antroponimidagi -bek morfemasi beklar naslidan bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan. Ikkinchidan, E.Begmatov Asad antroponimining ma'nosi quydagicha izohlaydi: Asad (ar.) – asad oyida (shamsiy yil hisobi bilan beshinchi oyning nomi, iyun-avgust oylariga to'g'ri keladi) tug'ilgan bola yoki asad-sher, arslon, ya'ni qo'rqmas, dovyurak, qudratli¹⁴⁵. Shunday ekan asarni o'qish davomida har qanday kitobxon qahramonning ismi uning xatti-harakati, felu atvori, ruhiy holati, qahramon tilidan aytilayotgan har bir jumlasini hamma-hammasini ochib berishda antroponimning o'rni beqiyosdir. Bundan tashqari, Tohir Malik aynan shu qahramonning umumiy vazifasi mazmunini, g'oyasini ochish uchun uning laqabini “o'qilon” deb ataydi.

Asarlardagi ismlarning asosiy qismi yolg'iz bir shaxsning ismi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, ba'zi ismlar bir necha shaxsni ifodalab kelgan. Chunonchi, Navoiy asarlaridagi Baxrom, Baxman, Farrux aloxida bir qahramonning ismi vazifasida ishlatilsa, boshqa manbalarda ular o'ziga xos xususiyatli boshqa shaxsni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Ma'lumki, nazmiy asarda qo'llangan barcha so'z tasviriy vosita xisoblanadi. Ismlar o'ziga xos tasviriy vosita sifatida quyidagi uslubiy xususiyatlarni ifodalagan: 1) nominativ vazifani bajarigan; 2) kontekst (matn) da o'ziga xos qo'shimcha ma'noni ya'ni ekspressiv-emotsional ma'noni ifodalagan.

Manbalardagi ismlarning ko'pchiligi nominativ ^{vazifani} bajarish bilan birga, matnlarda qo'shimcha ^{ma'nolarni} ifodalab kelgan. Ismlarning qo'shimcha ma'nosi shoirning so'z qo'llashdagi maxoratiga bog'liq xolda yuzaga kelgan. Shoir Muxammad Yusuf she'rlarida ham antroponimlarni qo'shimcha ma'nolarida kelganligini uchratishimiz mumkin. Jumladan,

Go'ro'g'illar qonga botsa g'irotlarda,
Ko'r o'g'illar yurtni sotsa xilvatlarda,
Boburing bexabar yotsa hirotlarda
Borib men uyg'otay desang – xalq bo'l elim.

¹⁴⁵ Begmatov Э. Ўзбек исмлари. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2010. 35-бет

Yuqoridagi misralarida shoir yurt uchun jon fido qilib, Vatan mustaqilligi, xalq farovonligi yo'lida mashaqqat chekayotgan mard yigitlarni tavsiflashda o'zbek xalqining buyuk shaxslaridan, xalq g'amini o'z gardaniga olgan qahramonlar nomidan keng foydalangan.

Yuqoridagi misralarda Go'ro'g'li va Bobur antroponimlarining qo'llanilishini turlicha talqin qilishimiz mumkin. UME da izohlanishicha, Go'ro'g'li nomi (ft-o'z) aynan: *“Go'rda tug'ilgan bola”*. Bu ism o'zbek xalq dostonlari qahramoni Go'ro'g'li nomiga nisbatan berib qo'yiladi. Qadimgi turkiy tilda *go'r//ko'r-botir, dovyurak, pahlavon* ma'nolarini bildirgan¹⁴⁶.

Bobur nomi orqali birinchi ma'noda o'zbek xalqining buyuk shaxslaridan biri shoh, shoir, olim va sarkarda Z.M.Bobur nazarda tutilgan. M.Yusuf she'rlarida ko'p uchraydigan Bobur antroponimi UME da shunday izohlanadi:

*Bobur - (o'z.) ba'zi ma'lumotlarda 1) yo'lbars, arslon; 2) ulug', ulkan, buyuk; 3) tez gapiradigan odam*¹⁴⁷

Muhammad Yusuf har bir she'rida Boburni shoh va shoir sifatida juda chiroyli ifodalagan. Masalan, “Nega yig'laysan”, “Farg'onajon”, “Fig'on”, “Bobur nidosi”, “Alvido”, “Shohlarga ham oson emas”. Shuningdek, shoir “Ibrohim marsiyasi”da shunday deydi:

*Onang o'lsin Ibrohim,
Makkadan ham yirog'im
O'chib qolgan chirog'im
Yutab qayda yotursan...*

Bu she'rda xam Ibrohim atroponimi qo'llangan bo'lib, UME da 1) ma'lum shaxsning ismi; 2) uning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan “Ibrohim – (qad. yah.) “Bibliya”dagi Abraam ismining arabcha shakli bo'lib, “xalq otasi”¹⁴⁸ deb izohlanadi.

¹⁴⁶ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси. Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти 2010. 105-бет.

¹⁴⁷ Э.А.Бегматов. Ўзбек исмлари маъноси. Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти 2010. 63-бет.

¹⁴⁸ Э.А.Бегматов. Ўша асар. 160-бет.

Yoki M.Yusufning “SANJAR” she’rida quyidagi misralarni uchratish mumkin:

Sanjar chimildiqni ko‘rmagan Sanjar
Menga tegmasmidi senga tekkan o‘q
Nomus azobida yuragim sanchar
Dunyoda nomusdan yomon narsa yo‘q

Bu she’rni o‘qish davomida urush vaqtida halok bo‘lgan shaxsni, uning ortidagi insonlarning hissiy kechinmalarini ochib berilganligini ko‘rishimiz mumkin. She’r sarlavhasiga e’tibor berilsa, bunga “Sanjar” antroponimini qo‘llashi ham bejiz emas. Sarlavhaning o‘zida shoir g‘oyasining bir qismini ochishga muyassar bo‘lgan. Chunki *Sanjar - (ar) aynan: sanchmoq, pichoq bilan urmoq; shiddatli, o‘tkir, kuchli yoki qa‘la, qo‘rg‘on yohud g‘olib, muzaffar*”¹⁴⁹ ma’nolarini ifodalaydi.

Yusuf, Yoqub, Xotam, Navruz, Xusrav, Xizr, Farxod, Jamshid, Majnun, Layli, Shirin, Rustam va boshqa antroponimlarning o‘nlab uslubiy ma’nolarini ifodalab kelishi konkret matnlarning taxili asosida yoritildi.

Masalan, Xizr matnlarda “xamkorlik qiluvchi, xamrox, avliyo, yo‘l ko‘rsatuvchi, yashil, daraxt, nasha (bang), ma’shuqa labidagi tuk, mangu tirik, ustoz” kabi ma’nolarni ifodalasa,

“Jamshid” - “buyuk shox, shox nasabi, xasad qiluvchi, taxt, qissa nomi, kungil, so‘z, Farxod, Baxrom, Iskandar” singari ma’noviy funksiyalarni bajargan. Bunda antroponimlarning uslubiy ma’noni ifodalab kelishi antroponimlarning nominativ vazifasi to‘g‘risidagi bir yoqlama qarashga o‘zgartirish kiritishni taqozo qiladi.

¹⁴⁹ Э.А.Бегматов. Ўша асар. 374-бет

BOB YUZASIDAN QISQA XULOSALAR

1. Keyingi yillarda tilshunoslikda sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bu tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, lingvistik faktlarga avtanom holda yondoshmay, har qaysi hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga e'tibor beriladi. Tadqiqotchi diqqati ko'proq lingvistik hodisalar o'rtasidagi munosabatni yoritishga qaratiladi. Bunday munosabatlarda lingvistik birliklarni ma'lum maydonlarga biriktirish asosida sistemaviy tadqiq qilish alohida o'rin tutadi. Shu jihatdan antroponimlarn antroponimlarning o'z navbatida "shaxs" arxisemali leksemalar ekanligiga, yuqoridagi singari mazmuniy guruhlariga ajratib, ularning yaratilishiga sabab bo'lgan motivlar, ularning umumiy va xususiy, birlashtiruvchi va farqlovchi tomonlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. "Shaxs" semasi bilan umumlashgan antroponimlari shaxs maydoniga mansub bo'ladi. O'zbek tilida ushbu makromaydonga mansub birliklar tilning turli sathlarida kuzatiladi. Jumladan, morfemik sathda affiksial morfemalar yoki leksik morfemalar tarkibida ularning turlicha guruhlarini belgilash mumkin.

3. Asrimizning 70-yillaridan antroponimlarning uslubiy xususiyatlari xaqida tadqiqotlar yuzaga kela boshladi va ular quyidagi atamalar bilan nomlandi: adabiy onomastika, poetik onomastika, uslubiy onomastika, onomapoetika yoki so'zlovchi ismlar. Badiiy asarlardagi antroponimlar o'z mohiyatiga ko'ra, tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarning tadqiq obyektiga aylandi. Adabiyotshunoslar asarning qahramonlari va prototiplari, badiiy-tasviriy usullari va manbaasini tadqiq qilishda antroponimlarga murojaat qilishsa, tilshunoslar qahramon ismining real yoki to'qimaligini, uning nominativ va uslubiy ma'nolarini, antroponimlarning badiiy asarda tutgan o'rnini va ahamiyatini o'rgandi. Badiiy asardagi ismlarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liqroq ochish uchun tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining o'zaro birlashgan nuqtasi lingvostilistikadan foydalanildi.

4. Badiiy adabiyotda qahramonlarga nom yoki ism tanlashda an'anaviylik yaqqol ko'zga tashlanib turadi: yozuvchi milliy ismlarga tayanadi,

o'z fikridagi assotsiatsiya hamda ba'zi hollarda etimologik mazmunga tayanadi. Ismlar ta'rifi hodisa sodir bo'layotgan ijtimoiy davr va joyni anglab olishga, badiiy personajning dunyoqarashini tasvirlash uning ism-sharifi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

5. She'riy asarlardagi antroponimlarda, qahramon ism va sharifi sujet va g'oya bilan bog'liq holda muallif tomonidan tanlab olinadi va bu hol ekspressivlikni kuchaytiradi hamda qahramonning ichki dunyosi va uning badiiy asar sujetidagi faoliyatiga, asar g'oyasiga ishora qiladi. Bunda yozuvchi o'z qahramoni xarakteriga mos ismni tanlay bilishi kerak. Shundagina asarning mazmun va g'oyasini to'la yoritishga muyassar bo'linadi.

6. Ismlar o'ziga xos tasviriy vosita sifatida quyidagi uslubiy xususiyatlarni ifodalagan:

- a) nominativ vazifani bajargan;
- b) kontekst (matn) da o'ziga xos qo'shimcha ma'noni ya'ni ekspressiv-emotsional ma'noni ifodalagan.

UMUMIY XULOSA

1. Antroponimika leksikologiyaning (onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini) o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi. U odamlar ismini, ularning tarqalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanishini va antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganadi. Atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikning turli usullari ham *antroponimikani* tadqiqot obyekti hisoblanadi.

2. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi subyektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi.

3. Adabiyotshunoslikda motiv deganda asarning asosiy temasidan farqli ravishda uning qo'shimcha, ikkinchi darajali temalari nazarda tutiladi.

4. Motiv xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq holda folklorshunoslikda sujet tarkibidagi halqalardan biri sifatida talqin qilinadi.

5. Motivatsiya tilshunoslikda ikki xil tarzda talqin qilingan bo'lib, birinchidan, nom qo'yish uchun asos bo'lgan ekstralingvistik vositalar – niyat, xohish, istak, orzu, ishonch, e'tiqot kabilar tushuniladi. Bu o'rinda motiv atamasi psixologiyadagi motiv atamasi bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. Ikkinchi ma'noda motiv atamasi so'z yasalishi bilan bog'liq holda izohlanadi.

6. Har qanday biologik jonzotda bo'lgani kabi insonda ham o'z naslini asrash instinkti mavjud bo'lib, bu instinkt boshqa jonzotlardan farqli ravishda o'z naslini faqat turli jismoniy tahdidlardaningina emas, balki turli ruhiy tahdidlardan ham asrash instinkti mavjud bo'ladi. Bu hol ism qo'yishda ham o'z ifodasini topadi. Bu esa tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashishiga olib keladi. Shu sababli bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik, animistik

tasavvurlar, koʻhna diniy aqidalar, sigʻinishlarning boshqa xil koʻrinishlari, udumlar, ishonchlar asosiy rol oʻynaydi. Bu esa magik motivatsiya bilan bogʻliq boʻlib, ism qoʻyishda bagʻishlov, joy-makon va etnik kelib chiqish, osmon jismlari, individning jismoniy holati, oʻsimlik va daraxtlar, hayvon va qushlar bilan bogʻliq motivatsiyani yuzaga keltiradi. Magik qarashlar bogʻliq motivatsiya shaxsning tugʻilish payti bilan bogʻliq holda ism qoʻyishda ham kuzatiladi. Chunki bunday ism tanlashda diniy qarashlar, tarixiylik, orzu istak kabi motivatsiya kuzatilmaydi. Shaxsning tugʻilish (kun, hafta, oy, fasl, yil) payti qaysi muddatga toʻgʻri kelishi, asosan, mifologik dunyoqarash bilan bogʻliq boʻlib, buning ibtidosi insoniyatning rivojlanishini dastlabki payitlariga borib taqaladi.

7. Antroponimlardagi mifologik dunyoqarash izlari magik qarashlar bilan bogʻliq motivlarda ifodalangan.

8. Oʻzbek xalqi tarixda zardushtiylik, buddaviylik va islom dinlariga eʼtiqod qilgan. Bu esa xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzida oʻz izini qoldirgan va oʻz navbatida antroponimlarda aks etgan.

9. Islom dini bilan bogʻliq motivlarga allohning nomi, sifatlaridan, uni madh qiluvchi tushunchalar nomidan yasalgan ismlar; paygʻambarlarning nomlari va sifatlarini bildiruvchi soʻzlardan yasalgan ismlar; Muhammad(SAV)ning qarindosh-urugʻlari ismi motiv qilib olingan ismlar; xalifalar, sahobalar, aziz-avliyolarning nomlari motiv qilib olingan nomlar kiradi.

10. Antroponimlarning baʼzi turlari mavjudki, ularda maʼlum tarixiy shaxslarni ham motiv sifatida olinish hollari uchraydi. Bunda maʼlum nomli tarixiy shaxslar oʻz shaxsiy xususiyatlari bilan xalqda eʼtiqodni uygʻota oladi. Natijada shaxsning vafot etishi yoki uning tiriklik payitidan boshlab, shaxsning xususiyatlari uning ismiga koʻchib oʻtadi va xalq bunday farzandlari koʻpayishini xohlaydi. Asta sekinlik bilan bu nomlarni farzandlarga qoʻyishda antroponimning oldingi manosiga qoʻshimcha ravishda maʼlum shaxsning siymosi ham qoʻshiladi.

11. Yaxlitlangan antroponimlar tarixan ikki qismdan iborat boʻlib, har ikki qism ham maʼno anglatgan. Hozirda esa bunday antroponimlar alohida-alohida

qismlarga ajratilsa, bir qismi ma'no anglatib ikkinchi qismi yoki har ikki qismi ma'no anglatmaydi.

12. Antroponimlar ikki leksemaning qo'shuluvidan hosil bo'lishi mumkin. Ular qo'shma antroponimlar bo'lib, uning qismlari qanday otlardan yasalishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- har ikki qismi turdosh otdan yasalgan antroponimlar;
- bir qismi turdosh, bir qismi atoqli otlardan yasalgan antroponimlar;
- har ikki qismi atoqli otlardan yasalgan antroponimlar.

17. Antroponimlarning o'z navbatida "shaxs" arxisemali leksemalar sifatida mazmuniy guruhlariga ajratib, ularning yaratilishiga sabab bo'lgan motivlar, ularning umumiy va xususiy, birlashtiruvchi va farqlovchi tomonlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

18. "Shaxs" semasi bilan umumlashgan antroponimlari shaxs maydoniga mansub bo'ladi. O'zbek tilida ushbu makromaydonga mansub birliklar tilning turli sathlarida kuzatiladi.

19. She'riy asarlardagi antroponimlarda, qahramon ism va sharifi sujet va g'oya bilan bog'liq holda muallif tomonidan tanlab olinadi va bu hol ekspressivlikni kuchaytiradi hamda qahramonning ichki dunyosi va uning badiiy asar sujetidagi faoliyatiga, asar g'oyasiga ishora qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг асарлари.

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2009 йил
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёткафолатлари. – Т.: 1997 йил
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998 йил
4. Каримов И.А. Инсон бахт учун туғилади. – Т.: Шарқ, 2001 йил
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: “Ўзбекистон”, 2011.

II. Asosiy adabiyotlar.

6. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
7. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Т.: ЎЗМЭ, 1998 йил
8. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985
9. Фонякова О. И. Имя собственное в художественном тексте: Учебное пособие / О. И. Фонякова. – Л., 1990.
10. Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – Москва, 1984.
11. Ҳожиёв А. Лингвистик терминлар луғати – Т.: Фан, 1987.
12. Ҳомидий Ҳ. Абдуллаев Ш. Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: “Ўқитувчи”. 1967 йил
13. Имомов К. ва бошқалар. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: “Ўқитувчи”, 1990.
14. Кенжаева С. Ўзбек антропонимларининг семантик ва социолингвистик тадқиқи. – Т.: 2011.
15. Н.М.Маллаев. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Т.: “Ўқитувчи”. 1973 й
16. Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli soʻzligi. – Т.: Yangi asr avlodi – 2010-yil.

- 17.Тожиев Ё. Ўзбек тилида шахс отлари ясовчи аффикслар синонимияси. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1987.
- 18.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “ЎМЭ”, 2010. V жилдлик
- III. Qo‘shimcha adabiyotlar.
- 19.Абу Райхон Беруний. Фармакогенези в медицине (Китаб ас-сайдана фи-тибб) / Исследование, переводы и указатели У.И.Каримова. Избранные произведения. Т.IV. – Ташкент, 1973.
- 20.Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.
- 21.Бегматов Э. “Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолінгвистик аспекти”. Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. 4 сон.
- 22.Бегматов Э. Антропонимлар-антропоцентриқ тадқиқ объекти. Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. 3 сон.
- 23.Бегматов Э. Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси (библиографик кўрсаткич). 2008.
- 24.Гадоев К. Бердиева С. Жаҳонгашта сайёҳ олимлар. – Т.: Ўзбекистон. 2012.
- 25.Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996.
- 26.Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. Т.: “МЕРИЮС”, 2009.
- 27.Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш: Филол.фанл.докт...дисс.автореф. Тошкент, 1999.
- 28.Иванцова Е. В. Семантическая трансформация имени собственного в лексике и фразеологии современного русского языка. Автореф. дисс... – канд. фил. наук.
- 29.Карсмагов Х- Курьон ва узбек адабиёти. Тошкент: Фан, 1993,
- 30.Пиотровский М Б Кораничесюч: сказание – Москва: Наука. 1991.

31. Катермина В. В. Личное имя собственное: национальные культурные особенности функционирования (на материале русского и английского языков): Авторефератк. ф. н. Краснодар, 1998.
32. Кенжаева С. Бағишлов исмларининг бир гуруҳи ҳақида. *O'zbek tili va adabiyoti*. 2011. 2-son.
33. Кенжаева С. Темурий маликалар исми ҳақида. “Амир Темур ва темурийларнинг жаҳон маданиятидаги ўрни” мавзусидаги илмий-назарий конференция материали. – Т.: 2006 йил.
34. Кухаренко В. А. О системном характере антропонимии национальной художественной литературы // Шоста Республіканська ономастична конференція 4-6 грудня. 1990 року: Тези доповідей і повідомлень. ТІ, Одесса, 1990.
35. Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи 7-синф. – Т.: “Шарқ”. 2013.
36. Мусаева Ф. Антропонимларда жинс тушунчасининг ифодаланиши. *Ўзбек тили ва адабиёти*. 2012. 3 сон.
37. Низомиддинова Д. Фарғона водийси антропонимларини ўрганишга доир. *Ўзбек тили ва адабиёти*. 2011/2 сон
38. Nurmonov A. “Tanlangan asarlar” II jild, T., “Akademnashr”, 2012-yil,
39. Нурмонов А. Тангланган асарлар, III жилд, –Т.: Академнашр, 2012 йил,
40. Нурмонов. А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2001.
41. Ohunov N. Antropotoponimlar va ularning yasalishi. Til va adabiyot ta'limi, 2005.1-son.
42. Qosimov B. To'xliyev B. Yo'ldashev Q. 10-sinf adabiyot T.; O'qituvchi. 2004.
43. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Т.: “Akademnashr” 2013
44. Раҳимов С. Хоразм минтакавий антропонимияси: Филол. фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 1998.
45. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Т. :“Университет”. 2006 йил

- 46.Салоев Р.Б. Ўзбек тилида исми фоллар: Филол.фанлари.номзоди... – дисс.автореф. Самарқанд, 1994.
- 47.Сатторов Ғ. Ўзбек исмларининг туркий қатлами: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1990.
- 48.Солижонов Й. ва С.Мўнинов, Бадий асарларда исмнинг айрим функциялари, Ўзбек тили ва адабиёти журнали Фан нашриёти. 1984 й. 2-сон.
- 49.Турдиматов Ш. “Гўрғули” эпосида Райхон араб образи. O‘zbek tili va adabiyoti 2011. 2-son.
- 50.Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Тошкент, 1998.
- 51.Худойбергенов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзодидисс.автореф. – Тошкент, 2008.
- 52.O‘zbekistan millim entsiklopediyasi, –Т.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. I tom
53. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва. Рус тили нашриёти. I том. 1981-й.

IV. Internet saytlari.

54. ru.wikipedia.org/wiki/лексико-семантическая_группа
55. forum.ziyouz.com/index.антропоним.
- 56 Қуронов Д. [хтп://www.куронов.народ.ру/](http://www.куронов.народ.ру/)